Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Muammoli ta'lim texnologiyasi XX-asrning o'rtalarida shakllanib, bugungi kungacha takomillashib bormoqda. L.S. Vigotskiy, D.B. Elkonin, V.V. Davidov kabi mashhur pedagog va psixologlar bu yondashuvni ilgari surganlar. Ular muammoli ta'limni shaxsni shakllantirishning psixologik va intellektual omili sifatida ko'rishgan. Vigotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasida muammoni hal qilish orqali o'quvchining bilim doirasi kengayishini asoslagan. Jon Dyui esa bu uslubni tajriba va faoliyatga asoslangan ta'lim deb atagan¹.

Bu texnologiyada asosiy e'tibor talabaga beriladi: u tayyor bilimni oluvchi emas, balki muammoni hal etish orqali bilimni o'zi izlab topuvchi shaxsga aylanadi. Aynan shu yondashuv sog'lom turmush tarzini shakllantirish, gigiyena va fiziologiya fanlaridagi muhim tushunchalarni ongli o'zlashtirishda muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" modulini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasining samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda nazariy tahlil, amaliy tajriba va natijalarni umumlashtirish bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda olib borildi. Tadqiqot jarayonida o'quv faoliyatini faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi va sog'lom turmush tarziga ongli munosabatni shakllantiruvchi metodik yondashuvlar sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" modulini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali talabalarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, ularni tahliliy fikrlashga, mustaqil xulosa chiqarishga va o'z salomatligi uchun mas'uliyat hissini shakllantirishga yo'naltirishdan iboratdir. Shu bois tadqiqotda o'qitish jarayonining nafaqat kognitiv, balki tarbiyaviy jihatlari ham hisobga olindi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" modulini o'qitish jarayoni tanlandi, predmeti esa mazkur jarayonda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni va metodikasini aniqlashdan iborat bo'ldi. Tadqiqot doirasida Qarshi xalqaro universitetining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar ishtirokida kuzatuv, suhbat, so'rovnoma va tajriba-sinov mashg'ulotlari o'tkazildi.

Ekspirimental bosqichda muammoli ta'lim asosida tashkil etilgan darslar – klaster metodi, SWOT tahlil, mini-tadqiqot va "Aqliy hujum" texnologiyalari asosida o'tkazildi. Ushbu metodlar o'quvchilarning faolligini oshirib, mavzuga ijodiy yondashuvni ta'minladi. Tajriba yakunida an'anaviy o'qitish natijalari bilan muammoli o'qitish asosidagi natijalar taqqoslanib, muammoli ta'limning samarali ekanligi aniqlashtirildi.

Tadqiqot jarayoni shartli ravishda uch bosqichda amalga oshirildi: tayyorlov, amaliy va natijaviy bosqichlar. Tayyorlov bosqichida muammoli ta'limning nazariy

¹ Vigotskiy L.S. "Psixologik rivojlanish nazariyasi", Moskva, 1934.

asoslari o'rganilib, dars mazmuniga mos topshiriqlar ishlab chiqildi. Amaliy bosqichda muammoli ta'lim asosidagi mashg'ulotlar o'tkazildi, natijaviy bosqichda esa olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, umumiy ilmiy xulosalar chiqarildi.

Natijalarni baholashda talabalar tomonidan bildirilgan fikrlar, dars davomida ularning faollik darajasi, savollarga javob berishdagi mantiqiylik, mini-tadqiqot va SWOT tahlil natijalari asosiy mezon sifatida olindi. Shuningdek, talabalarning sog'lom turmush tarziga oid bilimlarni amalda qo'llash qobiliyati ham alohida kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, muammoli ta'lim texnologiyasini "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" modulida qo'llash talabalarda mustaqil fikrlashni faollashtiradi, mavzuga nisbatan qiziqishni oshiradi va gigiyenik bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Bu yondashuv nafaqat ta'lim jarayonining sifatini yaxshilaydi, balki tarbiyaviy jihatdan ham katta samara beradi, chunki u talabaning sog'lom, faol va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalarini kompleks tarzda qo'llashning amaliy modeli ishlab chiqildi. Ushbu model interfaol metodlar orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish, gigiyenik madaniyatni rivojlantirish va talabalarning tahliliy tafakkurini o'stirishga yo'naltirilgan bo'lib, zamonaviy ta'lim standartlariga to'liq mos keladi.

Tahlil va natijalar. Muammoli yondashuv bu fanga quyidagi sabablarga ko'ra bevosita bog'liq:

- Fiziologik jarayonlar, masalan, o'sish, rivojlanish, yurak-qon tomir, nafas olish tizimi faoliyati haqida tasavvurlarni chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

- Gigiyenik me'yorlar – ratsional ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena – bularning barchasi talaba hayotidagi dolzarb muammolar hisoblanadi.

- Har bir talaba o'z sog'lig'i bilan bog'liq hayotiy vaziyatni boshdan kechiradi, shuning uchun muammoli ta'lim ularda bu masalalarga chuqurroq qiziqish uyg'otadi. Masalan, "Inson qo'li orqali patogen mikroorganizmlarning organizmga kirish ehtimoli qanday omillarga bog'liq va qo'l yuvish gigiyenasi orqali bu xavfni qanday darajada kamaytirish mumkin?"

Bu savol talabalarda quyidagi muammoli izlanishlarni uyg'otadi:

- Patogen mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar) qanday yo'llar bilan qo'lga tushadi?

- Qo'l orqali infeksiya yuqishining mexanizmlari qanday ishlaydi?

- Turli xil qo'l yuvish usullari (suv bilan, sovun bilan, antiseptik vositalar bilan) samaradorligi qanday farqlanadi?

- Gigiyena odatlarining shakllanishida ta'lim, reklama va ijtimoiy madaniyatning o'rni qanday?

Muammoli darslar quyidagi tuzilma asosida tashkil qilinadi:

1. Muammo qo'yiladi – dars savol bilan boshlanadi (masalan: "Nega 7–9 yoshli bolalarda uyquning davomiyligi kattalarnikidan farq qiladi?").

2. Taxminlar ilgari suriladi – talabalar o'z fikrlarini aytadilar.

3. Izlanish – darsliklar, ilmiy manbalar, amaliy tajribalar asosida muammo ustida ishlashadi.

4. Natijalarni tahlil qilish – javoblar taqqoslanadi, umumlashtiriladi.

5. Xulosa chiqariladi – talabalar ilmiy asoslangan fikrlar asosida xulosa chiqaradilar.

Ushbu dars jarayonida quyidagi metodlar samarali qo'llaniladi:

- Klaster metodi
- SWOT tahlil
- "Aqliy hujum"
- Mini-tadqiqot
- Infografikalar asosida fikr almashinuvi
- Raqamli savodxonlikni oshiruvchi internet manbalarga tayanish

Qarshi xalqaro universiteti Boshlang'ich ta'lim 2-bosqichda "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" modulidan " Bola o'sishi va rivojlanishida suv, mineral tuzlar va vitaminlarning ahamiyati." mavzusida o'tkazilgan amaliy mashg'ulot darsda muammoli savollar, klaster, SWOT tahlili, va mini-tadqiqot metodlari asosida dars tshkil etildi.

Amaliy darsning maqsadi: Talabalarda bola organizmining rivojlanishida suv, mineral modda va vitaminlarning biologik rolini tahlil qilish, gigiyenik asoslarini anglash va amaliy hayotga tadbiiq eta olish ko'nikmasini shakllantirish.

Talabalarga quyidagi muammoli savollar berildi:

Nega bolaning tanasida suv tarkibi kattalarnikiga nisbatan yuqoriroq bo'ladi?

Agar bola organizmida kalsiy yoki D vitamini yetishmasa, bu qanday fiziologik o'zgarishlarga olib keladi?

Vitaminlar yetishmovchiligi bilan bog'liq kasalliklarning oldini olishda qanday gigiyenik choralar muhim?

Ichimlik suvi tarkibidagi ortiqcha mineral tuzlar bolalar salomatligiga qanday ta'sir qiladi?

Organizmida suv balansining kamayishi bola faoliyatida qanday belgilar orqali namoyon bo'ladi?

1. Klaster metodi:

Dars boshida quyidagi asosiy tushunchalarni markazga olib, talabalarga ularning o'zaro bog'liqligini topish topshirig'i berildi.

Klaster markazi: "Suv – Vitamin – Mineral modda"

Amaliy topshiriq: Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, har bir tarmoq asosida klasterni chizadilar va qisqacha sharhlaydilar.

2. SWOT tahlili:

Talabalar bolalarda vitamin va mineral moddalar qabulining afzallik va tahdidlarini SWOT modeli asosida baholadilar.

S (Kuchli tomonlar)	W (Zaif tomonlar)
To'g'ri ovqatlanish immunitetni oshiradi. Suv balansini saqlash faollikni oshiradi. Raxit va anemiya kabi kasalliklar profilaktikasi.	Taomnomada bir xil oziq-ovqat. Yetishmovchilikni darhol aniqlash qiyin. Qishloq joylarda vitamin manbalariga yetishmovchilik.

<p style="text-align: center;">O (Imkoniyatlar)</p> <p>Gigiyenik targ'ibot va sog'lom turmush tarzi. Ovqatlanish tizimini yaxshilash.</p>	<p style="text-align: center;">T (Tahdidlar)</p> <p>Fastfud, gazli ichimliklar, noto'g'ri ovqatlanish. Ekologik ifloslanish, suv sifatining pastligi.</p>
--	--

Amaliy topshiriq: Har bir guruh SWOT jadvalidagi bir to'rtburchakni tanlab, unga oid real hayotiy misol keltirdilar va uni muhokama qildilar.

3. Mini tadqiqot metodi:

Talabalarga kichik tadqiqot vazifasi berildi:

Tadqiqot mavzulari (guruhlar bo'yicha):

“Temir yetishmovchiligi anemiyasi alomatlari va oldini olish choralari.”

“Qish oylarida D vitamini yetishmovchiligiga qarshi kurash.”

“Bolalar ratsionida magniy va kalsiyning manbalari va rolini o'rganish.”

Topshiriq: Har bir guruh bitta mavzuni tanlab, manbalarni o'rganib chiqishdi, statistik ma'lumotlar to'pladilar va qisqa prezentatsiya qildilar.

Dars yakunida:

Talabalar o'z mini-tadqiqotlarini taqdim etdilar.

Muammoli savollarga ilmiy asoslangan javoblar berildi.

Klaster va SWOT tahlilini taqqoslab, umumiy xulosa chiqarildi:

“Gigiyenik bilimlar orqali sog'lom bola voyaga yetkazish.”

O'quvchilar turmush tarzi, ovqatlanish, uyqu va yurak salomatligi orasidagi bog'liqlikni tahlil qilishdi. Dars so'nggida esa o'z jismoniy salomatligini monitoring qilish rejasini ishlab chiqdilar².

Muammoli yondashuv "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" modulining boshqa tabiiy fanlar – biologiya, anatomiya, psixologiya bilan uzviy bog'lanishini ta'minlaydi. Shuningdek, bu yondashuv talabalarda:

- Analitik tafakkur;
- Fikrni asoslash;
- Sog'lom turmush tarziga ongli yondashuv;
- O'z salomatligi uchun mas'uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu yondashuv nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy jihatdan ham talabani sog'lom, faol, ma'suliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yilgi nutqida aytilganidek: *"Yangi O'zbekiston yosh avlodini sog'lom, bilimli va vatanparvar etib tarbiyalash – barcha islohotlarimizning bosh maqsadidir"* – degan g'oya aynan shu texnologiya asosida amalga oshiriladi³.

Muammoli ta'lim – bu o'quv jarayonida talabalarni mustaqil fikrlashga, izlanishga, muammoni tahlil qilishga va shaxsiy xulosa chiqarishga yo'naltiruvchi ilg'or pedagogik yondashuvdir. Ayniqsa, "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" fanini o'qitishda muammoli vaziyatlardan foydalanish talabalar tafakkurini jonlantiradi, hayotiy masalalarni tahlil qilishga o'rgatadi va sog'lom turmush tarzi asoslariga chuqur yondashuvni shakllantiradi.

² Qarshi xalqaro universitetida olib borilgan muammoli dars tajribasi, 2024-yil sentabr.

³ Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2021-yil 29-dekabr.

Mazkur metodik yondashuvda muammoli savollar orqali talabalar:

- Mavzuga oid bilimlarni mustaqil izlaydi,
- Tahlil va solishtirish asosida xulosaga keladi,
- O'z fikrini asoslashga o'rganadi,
- Amaliy ko'nikma hosil qiladi,
- Jamoada fikr almashishga kirishadi.

Bugungi zamonaviy ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalarining o'rni va roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, sog'liqni saqlashga oid fanni – “Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” modulini o'qitishda bu yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, bu fan talabalarga inson organizmining rivojlanish bosqichlari, yoshga oid fiziologik va psixologik xususiyatlar, gigiyena asoslari, sog'lom turmush tarzini shakllantirish kabi dolzarb bilimlarni singdiradi.

Qo'shimcha qilib aytganda bu talabalarda tafakkur qilish, o'z mustaqil qarorini qabul qilish, muammoga bir nechta yechim topa olish salohiyatini shakllantiradigan pedagogik jarayondir. Ushbu metod orqali talabalar:

- Aniq vaziyatlar asosida mulohaza yuritishga o'rganadi;
- Hayotiy voqealarni tahlil qilishga qodir bo'ladi;
- Sog'liq va salomatlik masalalariga ongli yondasha boshlaydi;
- O'zining sog'lom hayotga oid nuqtayi nazarini shakllantiradi;
- Fanda mavjud qarashlar asosida yangilik qilishga qiziqadi.

Didaktik yondashuvning rivojlanishi - Talaba o'quv predmeti bo'yicha tayyor ma'lumotni yod olish o'rniga, muammoni tushunadi va yechim topadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - Har bir talaba individual yondashuv orqali faollik ko'rsatadi, fikr bildiradi.

O'zaro muloqot va bahs yuritish - Bu metod ustoz-talaba va talaba-talaba o'rtasidagi munosabatlarni kuchaytiradi.

Hayotiy moslashuv - Olingan bilimlar amaliyotda qo'llaniladi.

Quyidagi mavzularda muammoli ta'lim samarali qo'llaniladi:

- “Bolalar organizmining yoshga oid xususiyatlari” – bolalarning nafas olish tezligi, yurak urishi nega har xil?

- “Immunitet” – nima uchun to'g'ri ovqatlanish va uyqu immunitet uchun muhim?

Ushbu darslarda quyidagi muammoli vaziyatlar qo'llanilishi mumkin:

- Talabalar guruhda ishlaydi, bir voqeani tahlil qiladi (masalan, gigiyena buzilganda qanday kasalliklar kelib chiqadi?)

- Rolli o'yinlar orqali talabaning tanlovi tahlil qilinadi (to'g'ri-yoki noto'g'ri harakat).

- “Nima bo'lardi, agar...” kabi savollar orqali talabaning taxmin qilish va sababni tushuntirish ko'nikmasi oshiriladi.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi strategik hujjatlarida, xususan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va Davlat ta'lim standartlarida ta'lim jarayonining innovatsion texnologiyalar asosida olib borilishi belgilab berilgan. Muammoli ta'lim texnologiyasi esa bu talablarni to'laqonli amalga oshirishga xizmat qiladi.

Akademik A.Abdullayev ta'kidlaganidek: "Fanlar kesimida murakkab bilimlarni o'rgatishda muammoli ta'lim nafaqat tushunchalarni shakllantiradi, balki talabada ilmiy tafakkur asoslarini ham rivojlantiradi."

Muammoli ta'lim savollari talabalarning intellektual, ijtimoiy, gigiyenik, psixologik va fiziologik rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu savollar orqali mustaqil fikr yuritish, baholash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga kuchli zamin yaratiladi. Shuningdek, har bir savol mavzuga, o'quvchilarning yosh xususiyatiga va dars maqsadiga mos holatda tanlanadi. Bu esa metodikaning didaktik asoslanganligini ko'rsatadi.

Muammoli ta'lim – bu nafaqat ta'lim metodikasi, balki tarbiya strategiyasidir. U orqali nafaqat bilim, balki jamiyatga foydali, mas'uliyatli, sog'lom fikrli shaxs tarbiyalanadi. "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" fanida bu texnologiyadan foydalanish esa, ayniqsa dolzarb va ijobiy samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sodiqov Q., Aripova S.X., Shaxmurova G.A. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 184 b.
2. Mamatqulov D.A. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi asoslari. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati, 2017. – 210 b.
3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2020. – 256 b.
4. Xasanboeva U. Didaktika va zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 198 b.
5. Nishonova S. Pedagogik innovatsiyalar va kreativ ta'lim. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 175 b.
6. Rahmatullaev D. Gigiyena asoslari va sog'lom turmush tarzi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 223 b.
7. Xo'senov A., Vahobov E. Zamonaviy ta'limda muammoli yondashuv. – Toshkent: Ilm ziyo, 2018. – 190 b.
8. Samarov J. Gigiyena va sog'liqni saqlash psixologiyasi. – Buxoro: Ilm, 2019. – 168 b.
9. Shodmonov S. Ta'limda sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Ma'rifat, 2021. – 200 b.
10. Problem-Based Learning and its Effects on Student Health Literacy. // International Journal of Educational Research. – 2021. – Vol. 109. – P. 101-112.
11. Reflective Practice in Health Education in Japanese Schools. – Tokyo: Japanese Ministry of Education (MEXT), 2021. – 89 p.
12. Daryusheva D. Gigiyenik tarbiyaning maktab tizimidagi ahamiyati. // Pedagogik qidiruvlar jurnali. – 2022. – №2. – B. 45-49.

STEAM FANLARI MASALALARINI STEAM TA'LIMI METODIKASI YORDAMIDA
TADQIQ ETISH**Turdiyev Shoxrux Razzakovich**Qarshi xalqaro universiteti, Muhandislik va pedagogika fakulteti dekani,
Pedagogika fanlari doktori, professorEmail: shoxruxturdiyev77@gmail.com , Tel 91-560-77-33ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-7269-3723>**Razzoqov Shohjahon Shohrux o'gli**

O'zbekiston milliy universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM ta'limi metodikasi orqali tabiiy va aniq fanlar masalalarini tadqiq qilish keltirib o'tilgan. Muhandislik faoliyatiga yangicha yondashuv sifatida ishlab chiqarish masalalarini amaliyotga tadbiq qilishning yangicha metodi va metodikasi qo'llanilgan..

Kalit so'zlar: STEAM metodika, STEAM fanlar, STEAM ta'limi, fizik model, matematik model, deyzayn, fan model.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМ STEAM С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ
МЕТОДИК STEAM-ОБРАЗОВАНИЯ**Турдиев Шохрux Раззакович**Декан инженерно-педагогического факультета
Каршинского международного университета,

Доктор педагогических наук, профессор

Электронная почта: shoxruxturdiyev77@gmail.com

Телефон: +998 91-560-77-33

ORCID: : <https://orcid.org/0009-0003-7269-3723>**Раззаков Шохжахон Шохрux оглы**

Студент Национального университета Узбекистана

Аннотация: . В статье рассматривается изучение естественных и точных наук по методологии STEAM-образования. В качестве нового подхода к инженерной деятельности используются новый метод и методика внедрения производственных задач в практику.

Ключевые слова: слова STEAM методология, STEAM науки, STEAM образование, физическая модель, математическая модель, проектирование, модель науки.

RESEARCHING STEAM ISSUES USING STEAM EDUCATION
METHODOLOGIES**Turdiyev Shokhrux Razzakovich**Dean of the Faculty of Engineering and Pedagogy,
Karshi International University,

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Email: : shoxruxturdiyev77@gmail.com

Phone: +998 91-560-77-33

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-7269-3723>**Razzakov Shokhjahon Shokhrux ogli**

Student of the National University of Uzbekistan

Abstract: This article presents the study of natural and exact sciences through the STEAM education methodology. As a new approach to engineering activities, a new method and methodology for implementing production issues into practice are used..

Keywords: STEAM methodology, STEAM sciences, STEAM education, physical model, mathematical model, design, science model.

Kirish. Ta'lim beruvchi talabalarga fanning xususiyatidan kelib chiqib ta'lim metodlarini to'g'ri tanlashi sifatli ta'limning garovi hisoblanadi. Biz taklif qilayotgan STEAM ta'limi metodikasi ya'ni STEAM metodika bu metodika boshqa metodikalardan shunisi bilan farq qiladiki bunda STEAM fanlar bir-biri bilan integratsiyalashadi. Fanlarni bir mavzusini o'rganishi davomida boshqa fanlar mavzulari ushbu fan mavzusini o'zlashtirishga yordam beradi.

Shuningdek STEAM metodikaning boshqa metodikalardan yana bir farqli jihati auditoriyada qo'llanilishidan tashqari talabalarni mustaqil ta'limni yakka tartibda emas balki guruh-guruh bo'lib amalga oshirish hamda talabalarni ijodkorlikda birlashtirishida. Bu metodikani amalga oshirishda o'qituvchi auditoriyada o'tilgan mavzuni mustahkamlash yoki kelgusi mavzuni o'rganib kelish uchun bir nicta topshiriqlarni guruhlarga bo'linib, o'rganib kelishini vazifa sifatida berishi kerak bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). STEM ta'limi Amerika Qo'shma Shtatlarida America COMPETES qonuni orqali qo'llab-quvvatlandi. Ushbu qonun STEM ta'limini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, STEM ta'limining besh yillik rivojlantirish strategik rejasi (2013-2018) ishlab chiqilgan. Ushbu strategiya tabiiy, aniq, muhandislik va matematika fanlari o'zaro integratsiyasi bo'yicha innovatsion o'qitish uslublarini yaratishga qaratilgan. Shundan so'ng AQSH maktablarida STEM ta'limi dasturlari ishlab chiqilib, o'quv jarayonlariga tatbiq etildi. Auditoriyalarda kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi 1976 yili Telaviv universiteti professori SH.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko'proq talabalarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi. Talabalar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materialini kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir talaba umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z xissasini qo'shadi. Biz taklif etgan metodikada 6 kishilik guruh emas balki 5 ta guruhdan iborat kichik guruhlar tuziladi, bu to'g'risida quyida batafsil ko'rsatib o'tiladi va yaana qo'shimcha bir-qancha metodlar ("Klaster", "Bahs-munozara", "Aqliy hujum", "Xulosalash", (Rezyume, Veyer), "Insert", "Loyiha" va boshqalar) ushbu metod atrofida birlashtiriladi[9].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bu metodikani amalga oshirishda Oliy talim o'quv rejalarida keltirilgan 1-blok fanlari hozirda kredit-modul tizimi o'quv rejalarida majburiy fanlar blokidagi matematika, fizika, kimyo, infarmatika, hamda umumkasbiy fanlar bloki va ixtisoslik fanlarini tushuntirishda o'zaro bog'liqligini tushuntirib berishini ko'rishimiz mumkin masalan dars boshlangandan so'ng talabalarni STEAM ni har bir harfi dan iborat bo'lgan 5 ta guruhga ajratib olamiz ya'ni S fan guruhi, T texnologlar guruhi, E muhandislar guruh A guruh hamda M guruhlar. Bu guruh talabalariga har bir guruh, guruhga ajralishida nimalarga e'tibor berishi tushuntiriladi. Shundan so'ng quyidagicha guruhlar shakllantiriladi[6]:

S-guruhni tabiiy fanlar: fizika, astronomiya, kimyo, biologiya, geografiya fanlaridan olgan bilimlarini qo'yilgan muammoni yechishga qaratilgan fikrlar beruvchi talabalar tashkil etadi;

T-guruhni fanlar bilan bog'lovchi turli innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llovchi talabalar tashkil etadi;

E-muhandislik kasbiy faoliyatdagi mamlolarni nazariy olingan bilimlarni amaliyotga qo'llash va fundamental fanlarni mummoni yechishga qaratadigan guruh;


A-san'at bu guruh mummoli vaziyatlarni tasvirlash, chizmalarni chizish, dyezaynini yaratuvchi guruh;

M-matematiklar mummoni bartaraf etishda matematikani qonuniyatlari formula va mantiqiy fikrlarini beruvchi guruh.

STEAM fanlar ta'limini amalga oshirishda tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, dyezayin, va matematika fanlarining o'zaro integratsiyalashgan modellaridan foydalanishni ko'rsatib o'tamiz. maqsadimiz qaysidir bitta fanning masalasini yechishdan iborat emas balki, STEAM fanlar ta'limini bitta fan mavzusida ko'rsatib berishdan iborat[6].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). STEAM fanlar ta'limini amalga oshirish metodikasini bir qansa masalalarda ko'rib o'tamiz.

1-masala Muhandislik osma ko'piriklarini qo'rishda STEAM fanlarini ta'limini amalga oshirishni ko'rib o'tamiz. Bundan oldin unga o'xshash elektr simlarini og'irlik kuchlari yordamida yerga tortilishda yerning tortishish kuchi havoning qarshilik kuchi va elastik kuchlarning bir-biri bilan o'zaro ta'sirini tushuntirish kerak bo'ladi(1-rasm).



1-rasm simyog'och simlarining yerning tortishish kuchi ta'sirida tortilishi.

Bunda fizik qonuniyatdan iborat formulalardan tuzilgan fizik modelni keltiramiz elekt simlariga ta'sir etuvchi kuchlarning o'zaro munosabati quyidagi ko'rinishdagi fizik formulalardan iborat bu formulalar fizik modellarni ifodalaydi.

$$F = F_1 + F_2 = mg - kv \text{ bu yerda}$$

$$F_1 = mg \text{ yerning tortishish kuchi, } F_2 = -kv \text{ havoning qarshilik kuchi}$$


Endi matematik modelini keltiramiz buning uchun F nyutonning ikkinchi qonuniga tenglashtirib matematik modelini tuzamiz buning uchun tezlikdan vaqt bo'yicha hosila tezlanishga tengligidan foydalanib tezlanishni $a = \frac{dv}{dt}$ topib olamiz va tezlanishni o'rniga qo'ysak ya'ni yuqoridagi formulaga qo'yamiz

$$F = ma = m \frac{dv}{dt}$$

va $m \frac{dv}{dt} = mg - kv$ ga ega bo'lamiz hamda bu fizik modelni matematik modelini yaratamiz

$$m \frac{d^2s}{dt^2} = mg - k \frac{ds}{dt} \text{ yoki } m \frac{d^2s}{dt^2} + k \frac{ds}{dt} = mg$$

Shundan so'ng osma ko'pirikning muhandislik hisoblash modelini ko'rib chiqamiz. Bunda modelni grafik chizmalari yordamida osmaning istalgan nuqtasida kuchlar tasiri, kuchlarning yo'nalishlari va va qanday burchak ostida tasir etayotganini tasvirlaymiz(2-rasm).




2-rasm muhandislik hisoblash modelini

Rasmda ko'rinib turganidek osmaning istalgan P_1 va P_2 nuqtasida uchta $T_1 = T_2 \cos \theta$, T_2 , va $T_3 = T_2 \sin \theta$ kuchlar ta'siri yo'nalishini va bu kuchlar


qiymatlarini topish ya'ni to'g'ri burchakli uchburchak tomonlari (uchburchak tomonlari tasir etuvchi kuchlar vektorlarining moduliga teng) va ular orasidagi burchak yordamida topish mumkinligi aks ettirilgan. Shunday qilib, muhandislik modeli yaratiladi. Muhandislik modellari o'zida inshoatlarning tarkibiy qismlari va uni qurishda ishlatilayotgan materiallarning chidamliligini ko'rsatib beruvchi modeldir

Endi bu osma ko'pirikning kompyuterning dizeyn yaratuvchi turli dasturlari yordamida turlicha dizeynni ko'rinishlari ishlab chiqiladi va uning asl ko'rinishiga yaqin dizeyn modelini yaratiladi.



3-rasm osma ko'pirikning kompyuter dyezayni.

2-masala Erkin tushish tezlanishini tushuntirishda STEAM fanlarini integratsiyalashgan modellarini ko'rib chiqamiz chizmada bu faqat fizik qonunga o'xshab ko'rinsada modellarini ko'rib chiqamiz chizmada bu faqat fizik qonunga o'xshab ko'rinsada aslida o'zida bir nechta fan modelini jamlaganini ko'rib chiqamiz(1-rasm).



1-rasm a) jism h balandlikda harakatsiz holati b) jismning biror vaqtda davomida erkin tushishi jarayoni.

Biror balandlikda turgan jismga faqat yerning tortishish kuch $F=-mg$ va gravitatsion tasir qiladi. Bu tasir kuchi faqat jism massasiga bog'liq bulib uning fizik modeli $F=mg$ kurinishdagi fizik formuladan iborat bo'ladi. Jism pastga harakatlana boshlasa bu harakatni endi matematik model yordamida tushuntirish mumkin $m\frac{d^2h(t)}{t^2} = -mg$ erkin tushayotgan jismning balandlikdan tushishi biror vaqtga bog'liqligini ko'rsatish uchun uning matematik modelini $h(t)$ deb olamiz va undan t vaqt bo'yicha ikki marta xususiy hosilasini olib $\frac{d^2h(t)}{t^2}$ tuzish kerak bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, kompyuter texnologiyalari dasturlashlarini qo'llab jismning istalgan vaqtdagi holarini ko'rgazmali holatini aks etirish imkoniyatini beradi. Bu texnologiya fanini modelini ifodalaydi va fizik jarayonlarni dasturlash tillari yordamida jismning harakat vaqtida ko'rish mumkin bo'lmagan jarayonlarni 3 D modellarini vetual ko'rinishga o'tkazib, ekranda jarayonni ko'rish imkoniyatini yaratib beradi va talabalarning jarayon haqiqiy holati bo'yicha to'liq tasavurga ega bo'lishiga yordam beradi. Talabalar After Effects va Cinema 4D dasturlari orqali turli xil video, gif va animatsiyalar dyezaynini yaratishadi va bu orqali STEAM fanlari ta'limi amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turdiyev Sh.R. Matematika va tabiiy fanlar negizida kasbiy kompetentlik hamda kreativlikni takomillashtirish. Monografiya. Qarshi: Intellekt, 2021. – 124 b.
2. Turdiyev Sh.R. Didactic principles of guiding theoretical knowledge from steam science into practice // ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal. –New Delhi, Vol. 11, Issue 10. India. -2021. -rp. 1597-1601.
3. Turdiyev Sh.R. Forming Innovative Abilites of Students in Engineering and Research //Eastern European Scientific Journal. -Germany, №2. 2017. -rr. 163-167. (13.00.00, №1).
4. Shoxrux Razzoqovich Turdiyev. (2021). Organization of dual training through the steam approach in higher education. // Current research journal of pedagogics (ISSN:2767-3278 SJIF 2021: 5.714), 2(10), 215–219. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-02-10-39>.
5. Turdiyev Shoxrux Razzoqovich. (2021). MODELING STAEM SCIENCES IN HIGHER EDUCATION. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 7(12), 119–122. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/R78WE>
6. Shoxrux Razzoqovich Turdiyev DIDACTIC PRINCIPLES OF GUIDING THEORETICAL KNOWLEDGE FROM STEAM SCIENCE INTO PRACTICE. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> Vol. 11, Issue 10, October 2021
7. Ш.Р.Турдиев STEAM ФАНЛАР ТАЪЛИМИ ВА ИНТЕГРАЦИЯСИНИ ЮЗАГА КЕЛИШИ МОДЕЛИ Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 4 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-571-575 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1
8. Sh. TURDIYEV Zamonaviy STEAM ta'limiga asoslangan muhandislik ta'limi rivojlanishining dunyoviy ko'rinishlari. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index> Special Issue – 02 (2022) / ISSN 2181-1415
9. Шохрux ТУРДИЕВ, СТАЕМ ФАНЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДА, STEAM ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ О‘ЗБЕКISTON MILLIY UNIVERSITETI ХАВАРЛАРИ, 2022, [1/2/1] ISSN 2181-7324
10. Shadiyev R.D., Turdiyev.Sh.R. Basic didactic principles of building an integrated system of training to innovation engineering //Знание. – 2016. – №. 4-4. – С. 87-89.

**TA'LIMDA SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDAGI KOMPYUTER
IMITATION MODELLARDAN FOYDALANISH METODIKASI****Safarov Abbas Abdurasul o'g'li**

Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

Email: abbos.kiu1@gmail.com

Tel: +998912279817

Аннотация. Ushbu maqolada talabalar tasavvur qilishi qiyin bo'lgan jarayonlar, jumladan matematik analiz fanining ba'zi tushunchalarini SMART texnologiyalar asosidagi kompyuter imitatsion modellardan foydalanib o'qitish metodikasi keltirilgan..

Калит so'zlar: ta'lim, SMART texnologiya, kompyuter imitatsion model, matematika, ketma-ketlik, limit.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ИМИТАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ SMART-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Сафаров Аббос Абдурасул оглы

Преподаватель Каршинского международного университета

Эл. почта: abbos.kiu1@gmail.com

Тел: +998912279817

Аннотация. В данной статье представлена методика обучения сложным для восприятия студентами процессам, включая некоторые концепции математического анализа, с использованием компьютерных имитационных моделей на основе SMART-технологий.

Ключевые слова: образование, SMART-технология, компьютерная имитационная модель, математика, последовательность, предел.

METHODOLOGY OF USING COMPUTER SIMULATION MODELS BASED ON SMART TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Safarov Abbos Abdurasul oglu

Teacher of Karshi International University

Email: abbos.kiu1@gmail.com

Tel: +998912279817

Annotation. This article presents a methodology for teaching processes that are difficult for students to imagine, including some concepts of mathematical analysis, using computer simulation models based on SMART technologies.

Keywords: education, SMART technology, computer simulation model, mathematics, sequence, limit.

Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha turli yondashuvlar va tajriba natijalari dunyo olimlari tomonidan ilmiy nashrlarda e'lon qilinmoqda [7]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida darslarni interaktiv tarzda tashkil etish [7], SMART texnologiyalar asosida o'quvchilar faolligini oshirish [4,5,6], talabalarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda simulyatsiyani qo'llash [7] ga qaratilgan tadqiqot ishlari bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Maqsadlarni belgishlashning zamonaviy usullaridan biri SMART texnologiyalardir. SMART qisqartma so'zi Specific, Measurable, Achievable, Relevant va Time bound so'zlarining bosh harflaridan olingan bo'lib, ushbu so'zlarning har biri ma'no jihatdan texnologiyaning yaxlit mazmunini aks ettiradi.

A.G.Kasprajakaning imitatsion modellashtirish haqidagi fikriga ko'ra, tashqi dunyodagi har qanday obyekt yoki hodisani o'rganish modellashtirish metodologiyasiga asoslangan. Kompyuter imitatsion modelni yaratish informatikani tavsiflovchi faoliyatning umumlashtirilgan turidir.

A.A.Volodin o'zining dissertatsiya ishlarida, imitatsion modellar fanlararo aloqalarni hisobga olish ularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun zaruriy shartdir. Talabalarning tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirish ushbu bog'lanish qanday amalga oshirilishiga bog'liq. Bundan tashqari, fanlararo aloqalarni to'g'ri amalga oshirish ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga hissa qo'shadi, talabalarga atrofdagi narsalar va hodisalarning munosabatlarini kashf etishga yordam beradi va real dunyoning o'rganilayotgan hodisalari va jarayonlari to'g'risida yaxlit g'oyani yaratish imkoniyatini beradi deb takidlab o'tgan [8].

SMART sinflar turli texnologiyalar asosida qo'yilgan maqsadlarga erishishga imkoniyat yaratadi jumladan:

- masofaviy o'qituvchilarni oflayn sinfdagi o'qituvchilar bilan samarali tarzda ishlashini ta'minlash;

- o'quvchilarga oflayn sinf muhitida yanada faol ishtirok etish imkoniyatini yaratish;

- tizim bo'ylab xavfsizlikni ta'minlash;

- dars materiallarini o'zlashtirish va takrorlash imkoniyati yaratiladi.

Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun mavjud texnologiyalar o'qitish, o'rganish va sinfdagi interfaollik uchun tabiiy so'zlovchining gap mazmuniga munosabatini ifodalovchi semantik ifodalarni qo'llab-quvvatlashi lozim. Shuningdek, ushbu texnologiyalar xavfsiz, ishonchli va yuqori tezlikdagi sinxron/asinxron kontent bilan ta'minlanishi kerak [3].

Dunyo bo'yicha o'qitish sifati va samaradorligi bo'yicha reytinglarning yuqori o'rinlaridan joy olgan ta'lim muassasalarida SMART ta'lim texnologiyalari asosiy rol o'ynashini ko'rish mumkin. Masalan, 2024-yilda dunyoning top-1000 universitetlari qatorida bo'lgan Massachusett texnologiya instituti, Stenford universiteti, Garvard universiteti kabi ta'lim muassasalarining SMART ta'lim texnologiyalari asosida ta'limni tashkil etish sharoitlarini tahlilini keltirishimiz mumkin [4].

Massachusett texnologiyalar instituti (MTI) raqamli ta'lim vositalari asosida o'quv jarayonini tashkil etuvchi ilg'or ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Ushbu institutning ta'lim tizimida SMART ta'limga yondashuvni ko'rish mumkin. Institut ta'lim berishning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida raqamli resurslar, masofaviy ta'lim platformalari, interaktiv texnologiyalar va multimedia vositalaridan keng foydalanadi.

MTIning SMART ta'limga yondashuvi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. "MITx" va "OpenCourseWare (OCW)" – onlayn va ochiq ta'lim resurslari;

2. "Blended Learning" – an'anaviy va raqamli ta'limni uyg'unlashtirish;

3. "EdX" platformasi – ommaviy ochiq onlayn kurslar;

4. "Technology-Enhanced Classrooms" – zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan sinfxonalar;

5. "MIT App Inventor" – talabalar uchun mobil ilovalarni yaratish muhiti;

6. "Educational Technology Initiatives" – raqamli ta'limni rivojlantirish tashabbuslari;

7. “Experiential Learning” – loyihalar, amaliy mashg‘ulotlar va tadqiqotlar orqali o‘qitish.


MTIda ta’lim jarayoni raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va ilg‘or o‘qitish usullari yordamida olib borilib ular quyidagilardan iborat:

“MITx” va “OpenCourseWare(OCW)”. Massachuset texnologiyalar instituti tomonidan taklif etilayotgan onlayn kurslar ochiq hisoblanadi. “MITx” platformasida turli sohalarga doir kurslar va resurslar taqdim etiladi. Kurs materiallaridan foydalanish o‘quvchilar uchun juda qulay tarzda tizimlashtirilgan. Bunday platformalar talabalarning mustaqil bilim olish imkoniyatini kengaytiradi.

“EdX” Ommaviy Onlayn Kurslar (MOOCs). Massachusett texnologiyalar instituti “EdX” platformasining muassislaridan biri hisoblanadi. Ushbu platformalarda taqdim etilgan kurslar va resurslardan MTI va boshqa universitet talabalari qatnashish va foydalanish imkoniyatiga ega.


Matematika darslarida SMART texnologiyalar asosida kompyuter imitatsion modellardan foydalanishning afzalligi shundan iboratki, mavzuga oid nazariy ma’lumotlar bilan tanishish jarayonida talaba mavzuning ta’rif, teorema yoki masalani yetarli darajada tushuna olmasa, bunday tushunchalarning kompyuter imitatsion modelini o‘rganib, mavzuning ichida bo‘layotgan ichki jarayonlarni kuzatib, audio yordamida eshitib tasavvur qilib boradi. Quyida Matematik analizning muhim teoremlaridan birini o‘qitishda SMART texnologiyalar asosidagi kompyuter imitatsion modellardan foydalanish metodikasini keltiramiz.

Teorema. Ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo‘lsa, uning limiti yagonadir [3].




1-rasm. a nuqtaning ε atrofi imitatsion modeli.

Ushbu teoremaning isbotini kompyuter imitatsion model orqali tushuntiramiz. Faraz qilaylik, ketma-ketlik a va b limitlarga ega bo‘lib, $b > a$ bo‘lsin. $\varepsilon > 0$ sonni shunday tanlashimiz mumkinki a va b nuqtalarning ε atroflari o‘zaro kesishmasin (masalan: $\varepsilon < \frac{b-a}{3}$ deb olsak, bu atrofi kesishmaydi) (1; 2-rasmga qarang) [3].




2-rasm. b nuqtaning ε atrofi imitatsion modeli

U holda a nuqta ketma-ketlikning limiti bo'lganligi uchun a ning ε atrofida $\{x_n\}$ ketma-ketlikning cheksizta, ya'ni $x_{n_0+1}, x_{n_0+2}, \dots$ elementlari joylashgan bo'lib, uning tashqarisida cheklita $x_1, x_2, x_3, \dots, x_{n_0}$ elementlari yotadi (3-rasmga qarang).




3-rasm. a soni ketma-ketlikning limiti imitatsion modeli.

Jumladan b nuqtaning ε atrofida cheklita element qoladi. Kompyuter imitatsion modelda tashqarida yotadigan x_1, x_2, \dots, x_{n_0} hadlari qizil rang bilan ko'rsatilgan (4-rasmga qarang).



4-rasm. a soni limit bo'lganda $(a - \varepsilon, a + \varepsilon)$ intervaldan tashqarida cheklita element qolish jarayoni imitatsion modeli
Bu esa b nuqtaning limit ekanligiga qarama-qarshi (5-rasmga qarang).



5-rasm. b ning limit bo'la olmaslik jarayoni imitatsion modeli

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, SMART texnologiyalar asosida yaratilgan KIM yordamida “Matematik analiz” fanini mavzularini ko'rgazmali tarzda hamda vizualizatsiya elementlari bilan birgalikda ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish uning samaradorligini oshirishga, talabalarni kreativ fikrlashga hamda mustaqil bilim olish imkoniyatini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kristiawati, Arma Wangsa, Putri Fatmasari, Muhammad Rizal Usman, Mathematics Smart Books Based On Qr Code As A Digital Learning Media Material

Limit Function, Math Didactic: Jurnal Pendidikan Matematika, <https://doi.org/10.33654/math.v9i2.2128> Vol. 9 No. 2, Mei - Agustus 2023, 185-198 p.

2. Кечина О.М. Некоторые аспекты преподавания математического анализа будущим учителям математики. Поволжский педагогический вестник. 2020. т. 8, № 3(28), 101-105.

3. Mardiev R., Usmanov S. Analiz asoslari fani uchun o'quv qo'llanma. Samarqand. SamDU nashri, 2021 y. - 284 b.

4. Roland Gunesch. Computer simulations in lectures in mathematics and in the natural sciences: learning-theoretical aspects, 2019 The Authors. Proceedings in Applied Mathematics & Mechanics published by Wiley-VCH Verlag GmbH & Co. KGaA. Weinheim.

5. Ruzimurodov I.N. Elektron ta'lim muhitida dasturchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent-2022, 49 b.

6. Safarov A.A. Improving the methodology of teaching the science of mathematical analysis based on SMART technologies. International Journal For Multidisciplinary Research. Volume 6, Issue 6.

7. Safarov A.A. Oliy ta'limda SMART texnologiyalar asosidagi kompyuter imitatsion modellardan foydalanib talabalarning matematik bilimlarini rivojlantirish, "Pedagogik mahorat" jurnali 5-son 2025, 120-124 b.

8. Володин А.А. Компьютерное имитационное моделирование при изучении основ цифровой техники будущими учителями технологиию Дис. канд. пед. наук: 13.00.02. – М.: ПГБ, 2005.

Nurturing critical thinkers: approaches and activities for building critical thinking skills in primary students. [International journal of artificial intelligence vol. 4 no. 02 \(2024\): volume 04 issue 02 nurturing critical thinkers: approaches and activities for building critical thinking skills in primary students | international journal of artificial intelligence \(academicpublishers.org\)](https://academicpublishers.org). 2024-05-04

KOGNITIV FAOLIYAT TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA UNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI. G.Abdiraimova. "Pedagogik mahorat" jurnali 6-son 2025

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA O'QITUVCHINING YANGI ROLI VA KOMPETENSIYALARI

Ibragimov S.L

Qarshi xalqaro universiteti dotsenti

Email: ibragimovsuxroblatfovich@gmail.com

ORCID: [0009-0009-8234-5160](https://orcid.org/0009-0009-8234-5160) Tel: +998972002233

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitining shakllanishi sharoitida o'qituvchining kasbiy roli, pedagogik faoliyat mazmuni va zarur kompetensiyalar tizimi tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya o'qituvchidan nafaqat yangi texnologiyalarni bilishni, balki o'quvchilarning raqamli tafakkurini shakllantirish, kreativlikni qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim jarayonini individualizatsiya qilishni talab qiladi. Maqolada o'qituvchining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish yo'nalishlari va ularni baholash mezonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, raqamli kompetensiya, pedagogik texnologiya, o'qituvchi

rol, raqamli transformatsiya.

НОВАЯ РОЛЬ И КОМПЕТЕНЦИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Ибрагимов С

Доцент Каршинского Международного Университета

Эл. почта: ibragimovsuxroblatifovich@gmail.com

ORCID: [0009-0009-8234-5160](https://orcid.org/0009-0009-8234-5160) Тел: +998972002233

***Аннотация.** В данной статье рассматривается изменение профессиональной роли преподавателя в условиях формирования цифровой образовательной среды. Анализируется содержание педагогической деятельности и система необходимых компетенций. Цифровая трансформация требует от преподавателя не только владения новыми технологиями, но и способности формировать у обучающихся цифровое мышление, поддерживать креативность и обеспечивать индивидуализацию учебного процесса. В статье освещаются направления развития цифровых компетенций преподавателя и критерии их оценки.*

***Ключевые слова:** цифровое образование, цифровая компетенция, педагогические технологии, роль преподавателя, цифровая трансформация.*

THE NEW ROLE AND COMPETENCIES OF THE TEACHER IN THE DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

S. Ibragimov

Associate Professor of Karshi International University

E-mail: ibragimovsuxroblatifovich@gmail.com

ORCID: [0009-0009-8234-5160](https://orcid.org/0009-0009-8234-5160) Tel: +998972002233

***Annotation.** This article examines the transformation of the teacher's professional role within the digital learning environment. It analyzes the structure of pedagogical activity and the system of essential competencies. Digital transformation requires teachers not only to master new technologies but also to foster students' digital thinking, encourage creativity, and ensure the individualization of the learning process. The article highlights the main directions for developing teachers' digital competencies and the criteria for their assessment.*

***Keywords:** digital education, digital competence, pedagogical technology, teacher's role, digital transformation.*

Zamonaviy ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar ta'siri ostida tubdan o'zgarib bormoqda. Raqamli muhitda o'quv jarayoni faqatgina bilim berish emas, balki o'quvchini mustaqil axborot izlash, tanqidiy fikrlash, hamkorlikda o'rganish kabi kompetensiyalarni egallashga yo'naltiradi. Shu jarayonda o'qituvchi endilikda yagona bilim manbai emas, balki ta'lim jarayonining fasilatori, mentor va dizayneri sifatida faoliyat yuritadi.

Raqamli muhitda o'qituvchining roli tubdan o'zgarib bormoqda. An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi asosan bilim manbai, nazorat qiluvchi va baholovchi sifatida qaralgan bo'lsa, raqamli davrda u ta'lim jarayonining fasilatori, yo'naltiruvchisi va hamkorlik muhiti yaratuvchisiga aylanmoqda. O'quvchi endilikda passiv bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi, axborotni mustaqil izlovchi va tahlil qiluvchi subyekt sifatida shakllanmoqda. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilimni berishdan ko'ra, ularni axborotni topish, baholash, tanqidiy fikrlash va amalda qo'llashga o'rgatishi lozim.

Raqamli ta'lim muhiti o'qituvchidan texnologik moslashuvchanlikni talab etadi. U raqamli platformalar, masofaviy ta'lim tizimlari, onlayn hamkorlik vositalaridan samarali foydalanishni bilishi kerak. Shu bilan birga, o'qituvchi pedagogik dizayner rolini bajarib, o'quv materiallarini raqamli shaklda ishlab chiqadi, interaktiv topshiriqlar yaratadi va o'quvchilarning qiziqishini uyg'otuvchi muhitni shakllantiradi.

Raqamli o'qituvchi shuningdek, tahlilchi sifatida ham faoliyat yuritadi: u o'quvchilarning raqamli izlari, onlayn faolligi va natijalarini tahlil qilib, individual yondashuvni ta'minlaydi. Bu esa shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, raqamli muhitda o'qituvchi axborot madaniyati va xavfsizligi targ'ibotchisi sifatida ham muhim rol o'ynaydi. U o'quvchilarga internetda mas'uliyatli xulq-atvor, plagiat, kiberxavfsizlik, ma'lumotlarni himoya qilish madaniyatini o'rgatadi

O'qituvchining raqamli kompetensiyalari

Raqamli ta'lim muhitida o'qituvchining kompetensiyalari ta'lim sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'z fanining mutaxassisi, balki texnologiyalarni puxta biluvchi, pedagogik jihatdan ijodkor va innovatsion fikrlovchi shaxs bo'lishi zarur. Raqamli kompetensiya o'qituvchining raqamli vositalardan foydalanish, o'quv jarayonini texnologik asosda tashkil etish hamda axborotni tahlil qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Avvalo, texnologik kompetensiya o'qituvchining kompyuter, internet, masofaviy ta'lim platformalari va turli onlayn vositalardan samarali foydalanish mahoratini bildiradi. Bu kompetensiya o'quv jarayonida raqamli resurslarni yaratish, darslarni multimedia shaklida tayyorlash, sun'iy intellekt va ta'lim analitikasi tizimlaridan foydalanish imkonini beradi.

Pedagogik kompetensiya o'qituvchining raqamli vositalarni didaktik maqsadlarga mos ravishda qo'llay olish qobiliyatidir. U o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos interaktiv mashqlarni yaratadi, individual yondashuv asosida darsni loyihalaydi hamda raqamli muhitda o'qitish jarayonini boshqaradi.

Kommunikativ kompetensiya o'qituvchining onlayn muloqot olib borish, teskari aloqa o'rnatish va jamoaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish mahoratini bildiradi. Bu o'quvchi-o'qituvchi, o'qituvchi-o'qituvchi o'rtasida raqamli madaniyatga asoslangan sog'lom kommunikatsiyani ta'minlaydi.

Axborot xavfsizligi kompetensiyasi o'qituvchining internetdagi xavf-xatarlarni bilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va o'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish qobiliyatini ifodalaydi. U o'quvchilarga ishonchli manbalarni tanlash, plagiatdan saqlanish va kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilishni o'rgatadi.

Refleksiv kompetensiya esa o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, o'z ustida ishlash, yangi metodikalarni sinovdan o'tkazish va tajriba almashish qobiliyatini ifodalaydi. U doimiy ravishda yangi texnologiyalarni o'zlashtirib, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etadi.

Shunday qilib, raqamli kompetensiyalar tizimi o'qituvchining zamonaviy ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Bunday o'qituvchi nafaqat texnologiyalarni biladi, balki ularni maqsadga muvofiq pedagogik vosita sifatida

qo'llaydi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va raqamli madaniyatni shakllantiradi.

Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish yo'nalishlari

Raqamli ta'lim tizimini samarali tashkil etish uchun o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biridir. Chunki zamonaviy ta'lim jarayoni raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari va masofaviy o'qitish platformalariga asoslanadi. Shu sababli o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatini raqamli vositalar bilan uyg'unlashtira olishi, texnologik yangiliklarni tez o'zlashtirishi va ulardan samarali foydalanishi zarur.

Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bir necha asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari muhim ahamiyatga ega. Bu kurslar o'qituvchilarga raqamli pedagogika, onlayn ta'lim metodikasi, axborot xavfsizligi va raqamli madaniyat bo'yicha amaliy bilimlar beradi. O'qituvchilar uchun maxsus treninglar, vebinarlar va ustoz-shogird dasturlari orqali tajriba almashish imkoniyatini kengaytirish lozim.

Ikkinchi yo'nalish — pedagogik innovatsiyalar laboratoriyalarini tashkil etish. Bunday muhitda o'qituvchilar yangi raqamli texnologiyalarni sinovdan o'tkazib, ularning samaradorligini aniqlaydi va o'z dars jarayonlariga tatbiq etadi. Bu jarayon o'qituvchilarda ijodkorlik va eksperiment qilish madaniyatini rivojlantiradi.

Uchinchi yo'nalish — xalqaro tajriba va sertifikatlash tizimlarini joriy etish. Masalan, "Google Certified Educator", "Microsoft Innovative Educator", "ICDL Teacher" kabi dasturlar o'qituvchilarning raqamli savodxonligini xalqaro standartlarga mos baholash va tasdiqlash imkonini beradi.

To'rtinchi yo'nalish — raqamli metodik hamjamiyatlar va platformalar yaratish. Onlayn forumlar, professional tarmoqlar, virtual seminarlar orqali o'qituvchilar o'zaro tajriba almashadilar, dars ishlanmalarini bo'lishadilar va yangi g'oyalarni muhokama qiladilar. Bu esa ularning kasbiy hamkorligini kuchaytiradi.

Beshinchi yo'nalish — o'quv jarayonida edtech vositalaridan faol foydalanish. O'qituvchilar sun'iy intellekt, analitik tizimlar, raqamli test platformalari, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali o'quvchilarning faolligini oshiradi va darslarni interaktiv qiladi.

Shunday qilib, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish o'qituvchining kasbiy o'sishini, ta'lim jarayonining sifatini va raqamli transformatsiya samaradorligini ta'minlaydi. Bu yo'nalishlar uzluksiz ta'lim, amaliy tajriba va innovatsion muhit orqali qo'llab-quvvatlangandagina o'z natijasini beradi.

***Annotatsiya** Ushbu maqolada internet tilshunosligining shakllanishi va rivojlanish jarayoni, shuningdek, yangi kommunikativ muhitning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Internet tili an'anaviy yozma va og'zaki nutqdan farqli tarzda, o'zining gibrid tabiati, multimodal ifoda vositalari hamda raqamli belgilari orqali ajralib turadi. Maqolada virtual muloqotdagi emoji, stiker, qisqartmalar va inglizcha so'zlarning milliy tildagi o'rni ham ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** internet tilshunosligi, yangi kommunikativ muhit, virtual muloqot, emoji, stiker, raqamli til.*

УДК 894.375=87.(045)**ИНТЕРНЕТ-ЛИНГВИСТИКА: ТЕОРИЯ НОВОЙ
КОММУНИКАТИВНОЙ СРЕДЫ****Назарова Шохиста**

Преподаватель кафедры “Филология и преподавание языков”
Каршинского международного университета.

nazarovashohista@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются процесс формирования интернет-лингвистики и особенности нового коммуникативного пространства. Интернет-язык отличается от традиционной письменной и устной речи своей гибридной природой, мультимодальными средствами выражения и цифровыми знаками. В работе также анализируется роль эмодзи, стикеров, сокращений и англицизмов в национальном языке.

Ключевые слова: интернет-лингвистика, новое коммуникативное пространство, виртуальное общение, эмодзи, стикер, цифровой язык.

UDC 894.375=87.(045)

INTERNET LINGUISTICS: THE THEORY OF A NEW COMMUNICATIVE ENVIRONMENT

Nazarova Shohista

Teacher at the Department of "Philology and Language Teaching"

Karshi International University

nazarovashohista@gmail.com

Annotation: This article explores the development of Internet linguistics and the linguistic features of the new communicative environment. The Internet language differs from traditional written and spoken forms by its hybrid nature, multimodal expressions, and digital symbols. The study also examines the role of emojis, stickers, abbreviations, and Anglicisms in the national language.

Keywords: Internet linguistics, new communicative environment, virtual communication, emoji, sticker, digital language.

KIRISH. So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi. Bugungi kunda internet global axborot maydoni, shuningdek, ijtimoiy va madaniy muloqotning asosiy vositasiga aylandi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar tildan foydalanishning yangi shakllarini vujudga keltirdi. An’anaviy og‘zaki va yozma muloqotga nisbatan **internet tili** (yoki **virtual til**) deb ataluvchi alohida til tizimi shakllanmoqda. Bu hodisa hozirgi tilshunoslik nazariyasi oldiga mutlaqo yangi savollarni qo‘ymoqda.

Internet tili o‘z mohiyatiga ko‘ra **gibrid (aralash)** xarakterga ega bo‘lib, unda og‘zaki nutqqa xos tabiiylik, hissiy ifoda, tezkorlik; yozma nutqqa xos tuzilma va vizual shakllar uyg‘unlashadi. Internet muloqotida yozuv, rasm, emoji, gif, stiker, ovozli xabar va video kabi turli belgilar tizimi bir vaqtning o‘zida ishlatiladi. Natijada inson nutqi yangi – **multimodal kommunikatsiya** darajasiga ko‘tariladi. Bu jarayon tilda yangi belgilar, qisqartmalar, inglizcha so‘zlar (anglitsizmlar) va o‘ziga xos so‘z yasash shakllarining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Shuningdek, internet kommunikatsiyasi ijtimoiy-lingvistik jihatdan ham alohida ahamiyatga ega. Chunki raqamli makonda muloqot ishtirokchilari ko‘pincha anonim bo‘ladi, bu esa tilning etik qoidalariga, nutq madaniyatiga va shaxsiy identifikatsiya jarayoniga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Internet tili nafaqat axborot almashish vositasi, balki **shaxsning raqamli identitetini** shakllantiruvchi muhim omilga aylanmoqda.

Internet tili orqali muloqot tezkor, qisqa va ko‘pincha hissiy tusda kechadi. Bu holat inson tafakkuri va nutqining yangi kommunikativ sharoitga moslashuvini ifodalaydi. Shu boisdan internet tilini faqat texnik yoki ijtimoiy hodisa sifatida emas,

balki **til tizimining yangi bosqichi**, ya'ni "**yangi kommunikativ muhit**" nazariyasi nuqtayi nazaridan o'rganish dolzarbdir.

Mazkur maqolaning maqsadi – internet tili misolida yangi kommunikativ muhitning lingvistik, semiotik va sotsiolingvistik xususiyatlarini yoritish, shuningdek, virtual muloqotning milliy til va madaniyatga ta'sirini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida internet tili belgilar tizimi, ularning ma'no ifodalashdagi o'rni hamda zamonaviy jamiyatda kommunikatsiya usullarining o'zgarishi tahlil qilinadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, XXI asrda tilning rivojlanishi endilikda faqat tabiiy ijtimoiy muhitda emas, balki raqamli makonda ham sodir bo'lmoqda. Bu esa tilshunoslikda yangi yondashuv – **internet tilshunosligi** yo'nalishining shakllanishiga zamin yaratdi. Internet tili jamiyat, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganish uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, internet tilining nazariy asoslarini aniqlash va uni "yangi kommunikativ muhit" doirasida tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Asosiy qism

Internet tili – bu virtual kommunikatsiya sharoitida shakllanayotgan yangi til tizimidir. Uning asosiy belgilaridan biri **multimodal aloqa** bo'lib, bunda matn, rasm, emoji, gif va tovush kabi turli ifoda vositalari birgalikda qo'llaniladi.

Virtual muloqotda **tezlik, qisqartmalilik, hissiy ifodalilik** kabi omillar ustun turadi. Masalan, "ok", "brb", "lol", "thx" kabi qisqartmalar yoki "😊" kabi belgilar tilning yangi semiotik tizimini yaratmoqda.

Internet tili ijtimoiy tarmoqlarda milliy tildagi yangicha shakllarni ham keltirib chiqarmoqda: "gap yo'q", "zôr", "xaxaxa", "yozvordim" kabi og'zaki nutq shakllari yozma muloqotda keng ishlatilmoqda. Bu holat **til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning yangi bosqichini** ifodalaydi.

Internet tili orqali yoshlar o'z **raqamli identitetini** shakllantiradi, bu esa tilning madaniy va ijtimoiy funksiyalarini yanada kengaytiradi.

Xulosa

Internet tili zamonaviy jamiyatda muloqotning asosiy shakliga aylanmoqda. U yozma va og'zaki nutqning sintezidan iborat bo'lib, yangi belgilar tizimi, tezkor muloqot uslubi va emotsional ifodalilik bilan ajralib turadi.

Yangi kommunikativ muhit nazariyasi tilshunoslik uchun yangi yo'nalish — **virtual til tizimini ilmiy o'rganish zaruratini** yuzaga keltirdi. Internet tili nafaqat muloqot vositasi, balki madaniy, ijtimoiy va psixologik identitetni ifodalovchi yangi lingvistik hodisadir.

Kelgusida internet tilining milliy tilga, til siyosatiga va o'quv jarayoniga ta'siri alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilishi zarur.

FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR

1. Safarov, Sh. *Pragmatik lingvistika asoslari*. Toshkent: Fan, 2008.
2. Xasanov, Akbarjon & Hamroyev, Hisenxon. "O'zbek tilida internet-tilshunosligi masalalari." *Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'lim*, Vol. 6 No. 3 (2025).

3. Rashidova, Kamola. "Ijtimoiy tarmoqlarda tilning o'zgarishi: yangi leksik birliklar." *Modern Education and Development*, Vol. 26 No. 7 (2025).

4. Komilova, Zarina Zafar qizi. "Internet tili va uslubi." *Educational Research in Universal Sciences*, 2025.

5. Isroilova, Komilaxon Tavakalovna. "Ijtimoiy tarmoqlar tili va medialingvistika tavsifi." *FarDU Ilmiy Xabarlar* (Ijtimoiy gumanitar fanlar), №6 (2024/2025).

FOYIQ DEVONI: MATNSHUNOSLIK, JANR VA ARUZ TAHLILI (MULAMMA', MUXAMMAS, RUBOIY)

Muxlisa Vohidova Abdumalik qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi,
Elektron pochta: muxlisvohidova@gmail.com

Telefon raqami: (99) 813-65-03

Annotatsiya. Maqolada Foyiq devoni materiallari asosida o'zbek mumtoz she'riyatining uch asosiy ko'rinishi — mulamma', muxammas va ruboiy janrlari matnshunoslik, janr poetikasi va aruz tizimi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Avvalo matnshunoslikning uch bosqichi — matn tarixi, matn talqini va matn tuzish konseptual mezon sifatida olinib, nusxalararo tafovutlar (grafika, imlo, leksik-grammatik allomorflar) hamda intertekstual ishoralar (Qur'on oyatlari, hadis va tasavvufiy ramzlar) aniqlanadi. Mulamma'ning ikki tillilikka (turkiy-arabiy/forsiy) asoslangan kompozitsion mexanizmi, muxammasning taxmis shakli orqali ustoz-murabbiy g'azaliga bog'lanish an'anasi, ruboiyning hazaj bahri va "tezis-antitezis-modda-sintez" kompozitsion modeli amaliy misollar asosida ko'rsatiladi. Aruz tizimida ramal va hazaj bahrlari, qofiya-radif usullari, "zul-matla'/tamom matla'" kabilar poetik struktura sifatida sharhlanadi. Tadqiqot natijasida Foyiq lirikasida diniy-falsafiy semantika, balog'at, obrazli intertekst va aruz intizomi uyg'unligi muayyan uslubiyat darajasiga ko'tarilgani xulosasi ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Foyiq devoni, mulamma', muxammas (taxmis), ruboiy, aruz (ramal, hazaj), qofiya-radif, matn tarixi, matn talqini, matn tuzish, intertekst, balog'at.

ДИВАН ФАЙКА: ТЕКСТЫ, ЖАНР И АНАЛИЗ СЛОВА (МУЛАММА, МУХАММАС, РУБАИ)

Мухлиса Вохидова Абдумалик кызы

Преподаватель Ташкентского государственного
университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
Электронная почта: muxlisvohidova@gmail.com

Телефон: (99) 813-65-03

Аннотация. В статье на материале дивана Фойика проводится текстологический, поэтический и метрико-ритмический анализ трёх ключевых жанров узбекской классической лирики — муламма, мухаммас и рубаи. В качестве методологической основы задействуются три этапа текстологии — история текста, интерпретация и установление основного варианта. Описываются межсписочные расхождения (графика, орфография, грамматические алломорфы), интертекстуальные аллюзии (аят, hadis, суфийская символика). Показаны механизмы двуязычной композиции муламма, традиция «тахмиса» (присоединения к газели мастера), а также композиционная формула рубаи «тезис-антитезис-модда-синтез». Рассматриваются арузные размеры (рамаль, хазадж), системы рифмы и радифа, приёмы «zul-matla'/tamom-matla'». Сделан вывод о синтезе религиозно-философской семантики, балагата, интертекста и дисциплины аруза в поэтике Фойика.

Ключевые слова: диван Фойика, муламма, мухаммас (тахмис), рубаи, аруз (рамаль, хазадж), рифма–радиф, история текста, интерпретация, установление, интертекст, балагат.

FOYIQ'S DIVAN: TEXTS, GENRE AND ANALYSIS OF THE WORD (MULAMMA', MUHAMMAS, RUBAI)

Mukhlisa Vokhidova Abdumalik qizi

Teacher of the Tashkent State University of Uzbek
Language and Literature named after Alisher Navoi

Email: muxlisvohidova@gmail.com

Phone number: (99) 813-65-03

Abstract. Drawing on Foyiq's *Dīwān*, this article offers a textual, generic, and prosodic analysis of three core genres of Uzbek classical lyric—*mulamma'*, *mukhammas* (*taxmīs*), and *rubā'ī*. The study adopts a three-tier methodology of textual scholarship—textual history, interpretation, and the establishment of a base text [1]. It maps variant readings across witnesses (script, orthography, grammatical allomorphs) and intertexts (*Qur'anic* verses, *ḥadīth*, *Sufi* symbolism). We explicate the bilingual mechanics of *mulamma'*, the tradition of linking a *mukhammas* to a master's *ghazal* via *taxmīs*, and the “thesis–antithesis–bridge–synthesis” macro-structure of the *rubā'ī* [2; 3; 4]. Prosodic discussion focuses on *arūd* meters (*ramal*, *hazaj*), rhyme–*radīf* systems, and devices such as *zul-matla'*/*tamām-matla'* [5; 6]. We argue that Foyiq's lyric unites religious-philosophical semantics, *balāgha*, intertextuality, and strict *arūd* discipline into a distinctive stylistic signature.

Keywords: Foyiq's *Dīwān*, *mulamma'*, *mukhammas* (*taxmīs*), *rubā'ī*, *arūd* (*ramal*, *hazaj*), rhyme–*radīf*, textual history, interpretation, base text, intertextuality, *balāgha*.

Istiqlol sharofati bilan yuzaga kelgan talab va imkoniyatlar adabiyotshunoslik fanimiz zimmasiga insonning tafakkur qudrati, qalb va idrok kuchi bilan yaratilgan bebaho merosimizni keng ko'lamda chuqur o'rganish hamda asrlar osha bezavol yashab kelgan ma'naviy qadriyatlarimizni kengroq kashf etish mas'uliyatini yukladi. Biz tanlagan va yoritishga uringan mavzu ham ana shu mas'uliyatli yo'ldagi harakatlardandir.

Sharq xalqlari qadim zamonlardan buyon jahon madaniyatining ulkan xazinasiga o'zining mumtoz asarlari bilan hissa qo'shgan ko'pgina buyuk ijodkorlarni yetishtirib berdi. Ularning merosini keng xalq ommasiga yetkazib berish madaniyatimizning to'kisligi uchun nihoyatda zarurdir. Bu ishlarni o'tmish qo'lyozmalarni yig'ish, ilmiy-tanqidiy o'rganish va nashr qilish bilan shug'ullanuvchi manbashunoslik va matnshunoslik bilimlarisiz, arabiy imlo malakasisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Matnshunos oldida turgan bosh vazifa – matn tarixini tiklash, tadqiq doirasiga tortilgan manbaning turli nusxalarini qiyosan o'rganish, tadqiq etish, ular asosida matnning asosiy variantini yaratish va ilmiy muomalaga kiritishdir. Muayyan matnning paydo bo'lishidan to oxirgi holatigacha davom etgan o'zgarishlar silsilasi matn tarixini tashkil qiladi. Aksar matnlar ma'lum vaqt mobaynida subyektiv (muallif, kotib, nashrga tayyorlovchi muharrir) va obyektiv (ijtimoiy) omillar ta'sirida o'zgarishga uchraydi. Matnshunosning vazifasi mana shu o'zgarishlarni aniqlash, ularni tarixiy, ilmiy dalillar bilan asoslash va shu yo'l bilan asl matnni tiklashdir.

Matnshunoslik badiiy asarning ichki-botiniy jihatlarini ochib berish, matnni asl mohiyatini anglash, filologik yechimdan tashkari falsafiy ma'nosini ham o'rganishi lozim. Shu bilan birga, matnning yaratilish tarixi, matn o'zgarishi sodir bo'lgan bo'lsa unga olib kelgan holatlarni aniqlash va muallif varianti saqlanib qolmagan taqdirda asarning asliga yaqin matnini tuzishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandir. Bu esa uch jabhada olib boriladi:

- 1) matn tarixini o'rganish;
- 2) matn talqini;
- 3) matn tuzish.

Juda qadimiy tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha kitobxon ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida gap borganda uning nimalarni tasvirlagani haqida emas, asosan qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloq qiyofalarini go'zalashtirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan.

Shoir lirikasida g'oyaviylik uning badiiy ko'lami shoirning ijtimoiy muhit ta'sirida yozilgan. Foyiq devoni hamd, na't, muxammas, musaddas, taxmis, mulamma', ruboiy kabi janrlarga boy bo'lib, XX asr turkiy she'riyatida munosib o'rinni egallagan. U, avvalo, zabardast lirik shoirdir. Yuzlab mazmundor g'azallar yozgan, devon tuzgan, turkiy she'rning buyuk Alisher Navoiydan keyin qadr-u e'tiborini yuksak sharaf va mas'uliyat bilan himoya eta olgan shoirdir. O'z navbatida forsiyda ham ijod qilib, o'zgacha mahoratini namoyon qilgan.

Ko'rinib turibdiki Foyiq ijodida g'azal, muxammas, taxmis va ruboiy janrlari yetakchilik qilmoqda. Foyiq g'azallariga to'xtaladigan bo'lsak devondagi bu janr g'azal qoidalariga mos keladi. G'azal (arabcha — ayolni sevish, unga oshiqona munosabatda bo'lish) — Sharq adabiyotida eng keng tarqalgan lirik janr "G'azal" atamasi dastlab VI-VII asrlarda arab she'riyatida paydo bo'lgan[9]. So'ng O'rta Osiyo va Sharq xalqlari adabiyotlariga o'tib, X asrda forsiy adabiyotga, XIV asr boshlarida turkiy adabiyotga kirib kelgan. Hajmi 3 baytdan 19 baytgacha qilib belgilangan. Lekin 21, hatto 27 baytli g'azal namunasi ham uchraydi.

Foyiq ijodida esa deyarli 27 baytli g'azallar uchraydi, hatto, u o'z ijodining ibtidosidan boshlab g'azal janriga alohida ahamiyat beradi, bu janrni boshqalaridan yuqori qo'yadi. G'azallarida Qur'onidan Karim va Hadisi sharifdan iqtiboslar

keltirgan. Devonning 3-A sahifasida uchraydigan g'azalda aynan shu holatni kuzatishimiz mumkin:

Zihi mir'oti zotingdin bo'lub aksi jahon paydo – Alloh, Sening zoting ko'zgusi aksidan jahon paydo bo'ldi.

Agar oyina mavjud o'lmasa aksi erdi no paydo – agar oyna bo'lmasa aks bo'lurmi?

Emas zarra oti olam ichra zoting nuridin o'zga – olamdagi zarra borki, Zoting nuridin o'zga narsa emas. NUR SU'RASI 35- OYATga ishora. Ya'ni **اللَّهُ نُورُ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضِ**

Rumuzi kuntu kanzan nuktasi chun bo'lsa mafhuming – Men yashirin xazina erdim hadisidin tushunilgandir.

Qilib kunu makon ma'ruf bo'lmoqliq uchun insho – O'zini tanitish uchun bu olammi insho - bunyod qildi. ZARIYAT SURASI 56-OYATga ishora. Ya'ni: **وَمَا خَلَقْتُ إِلَّا لِيَعْبُدُونِ** (وقال ابن جريج : إلا ليعرفون) الْجِنَّ وَالْإِنْسَ إِلَّا لِيَعْبُدُونِ

Yaqin zohir ko'rur zotingni olami mazhari ichra – Ochiq oydin bu olamdagi ko'ringan narsakardan Seni ko'radilar. (Seni qudratingni Xoliqlingni, v h)

Kalomi bu kashf sayrig'a ul ko'z gum erur bino – Sening kaloming kashfiga mening qalbim sayr uchun kifoyadir.

Balog'at birla zoting madhni qilmoq na mumkindur – Balog'at tili bilan Sening zotingni madh qilish mumkinmi?

Bale uldur balog'at kavning (yulduz) bo'lsa gar tili go'yo – agar tili go'yo bo'lsa, balog'atda yulduz bo'lish kerak.

Jahon qaydidin ozod aylagay ishqig'a band avloq – jahon bandidan ozod aylaydi uning ishqiga jo'nash (bo'lish)

Kamol uldur ki manzur aylamasak dahrni qat'o – Kamol shuki, dunyoni hech qachon manzur aylamaslik kerak.

Muxammas Foyiq yashagan davr she'riyatida ham an'ana sifatida davom etdi. Bu ayniqsa, shoirning devonida yorqin namoyon bo'ldi. Foyiqning Alisher Navoiy, Fuzuliy g'azaliga bog'lagan muxammaslari buning yaqqol dalilidir.

Shoir Navoiyga bag'ishlab ham muxammas bitgan. Muxammas quyidagicha boshlanadi:

**Bo'lg'usi ul moh guliston ichra mavo aylagach,
Ziynati ortuq chaman la'lini go'yo aylagach.**

**Gar o'luka jon berur Iso dami lekin agar,
Necha Iso jon topar la'lin Masiho aylagach.**

Ushbu g'azal Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidan 98-raqamda o'rin olgan "aylagach" radifli g'azaliga bog'langan. Shoir g'azal mazmunini deyarli o'zgartirmaydi ya'ni, Navoiyda ushbu g'azal quyidagicha:

"G'AROYIB US-SIG'AR" 98-g'azal

**Husni ortar yuzda zulfin anbar afshon aylagach,
Sham` ravshanroq bo'lur torin parishon aylagach.**

**Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading,
Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach?**

**Tiyg' ila paykonlaring yetti ko'ngul bo'lg'och xarob,
Suv quyub tuxm ekting, ul kishvarni vayron aylagach.**

**Qon emaskim yopti gulgun hulla jannat xozini,
Ishq maqtulin shahid aylarda uryon aylagach.**

**Oshkor aylab yuzin ko'zumni hayron ayladi,
Yoshurun oldi ko'ngul ko'zumni hayron aylagach.**

**Jong'a qo'yg'ach naqdi ishqing qildi ko'nglumni halok,
O'lturur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.**

**Ey Navoiy, ishq agar ko'nglungni majruh etmadi,
Bas nedurkim, qon kelur og'zingdin afg'on aylagach?![10]**

Yuqoridagi g'azaldan bizga Foyiqning g'azali Alisher Navoiyning g'azaliga taxmis ekanligi ma'lum bo'ladi. Foyiqning "aylagach" radifli g'azalini aruziy jihatidan tahlilga tortadigan bo'lsak:

Bo'lg'usi ul moh guliston ichra ma'vo aylagach,

— V — — — V — — V — — — — V —

Ziynati ortuq chaman la'lini go'yo aylagach.

— V — — — V — — — V — — — V —

Yuqoridagi chizmaga ko'ra g'azal 15 hijoli ekanligi aniqlandi. Vazni esa **Ramali musammani mafzuf**. Mazkur vazn dastlabki uch ruknning *foilotun*, so'nggi to'rtinchi running *foilun* tarzida kelishidan yaraladi. Ya'ni vaznning taqtiyi:

foilotun foilotun foilotun foilun

— V — / — V — / — V — / — V —

Xulosa sifatida aytish mumkinki, istiqloq yillarida matnshunoslik, manbashunoslik va adabiyotshunoslik sohalariga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada kuchaydi, bu esa milliy ma'naviyatimizning ildizlarini chuqur o'rganish, mumtoz adabiyot namoyandalarining merosini ilmiy asosda tadqiq etish imkonini berdi. Foyiq ijodi ham ana shunday ilmiy izlanishlar orqali qayta kashf etilib, uning g'azal, muxammas, taxmis va ruboiy janrlaridagi badiiy mahorati, Qur'on va hadislardan iqtiboslar keltirishdagi falsafiy yondashuvi, Navoiy an'alariga sadoqat bilan yondashgani o'zbek she'riyatining rivojida muhim bosqichni tashkil etadi. Uning asarlari nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki ma'naviy kamolot, ilohiy tafakkur va badiiy mukammallikni o'zida mujassam etgan bebaho adabiy meros sifatida qadrlanadi. Shu bois Foyiq lirikasini o'rganish o'zbek mumtoz adabiyotining g'oyaviy, falsafiy va estetik qirralarini yanada chuqurroq anglash uchun katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tansuqov, A. **Matnshunoslik nazariyasi: Matn tarixi, talqini va tuzish.** Toshkent: —, 2016. [1]
2. Hayitmetov, A. **O'zbek mumtoz adabiyoti poetikasi.** Toshkent: Fan, 1981. [2]
3. Shamsiev, A. **Sharq she'riyati janrlari: G'azal, qasida, muxammas.** Toshkent: —, 1974. [3]
4. Sirojiddinov, S. **Janr va uslub: Mumtoz lirika tadqiqi.** Toshkent: —, 2008. [4]
5. Devin, N. (tarj.). **'Arūz va Qofiya asoslari.** Toshkent: —, 1999. [5]
6. Elwell-Sutton, L. P. *The Persian Metres.* Cambridge: CUP, 1976. [6]
7. Greetham, D. C. *Textual Scholarship: An Introduction.* NY: Garland, 1994. [7]
8. Karimov, R. **O'zbek tili tarixiy grammatikasi.** Toshkent: O'qituvchi, 1992. [8]
9. D.Yusupova. **Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari.** – Toshkent: Ta'lim-media, 2019. [9]
10. http://navoi.natlib.uz:8101/uz/xazoyin_ul_maoniy_garoyib_us_sigar_uc_hinchi_tom/gazallar/gazallar_1_100. [10]

EFFECTIVE METHODS OF IMPROVING SPEAKING SKILLS FOR B2 LEVEL STUDENTS.

Mokhinur Rakhmonova Zokhidovna

an English teacher at the Department of Philology
and language teaching Karshi international university

mohinurrahmonova1401@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-7755-4095?lang=ru>

Annotation: *The development of speaking skills plays a crucial role in foreign language acquisition, as it enables learners to participate actively in communication and use the target language in authentic contexts. This article investigates effective methods for improving oral proficiency among B2 level learners of English. Despite having sufficient knowledge of grammar and vocabulary, many students at this level still struggle with fluency, confidence, and spontaneous speech production. The study highlights communicative and interactive approaches, including role-playing, debates, pair and group discussions, storytelling, and gamification. These methods not only create a motivating classroom atmosphere but also reduce language anxiety and encourage students to practice real-life communication. The findings suggest that regular use of interactive speaking tasks significantly improves learners' fluency, lexical range, and overall confidence in oral communication. The article concludes that implementing communicative techniques is essential for developing effective speaking skills at the B2 level, and provides practical recommendations for teachers to integrate these strategies into their classroom practice.*

Key words: *Speaking skills, oral proficiency, interactive approaches, role-playing, debates, pair and group discussions, storytelling, gamification, fluency, classroom practice, confidence, communication.*

B2 DARAJADAGI TALABALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISH UCHUN FOYDALI METODLAR.

Rahmonova Mohinur Zohid qizi

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasini ingliz tili o'qituvchisi.

Qarshi xalqaro universiteti.

mohinurrahmonova1401@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-7755-4095?lang=ru>

Annotatsiya: *Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish chet tilini o'rganishda muhim ahamiyatga ega, chunki bu o'quvchilarga muloqotda faol ishtirok etish va tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. Ushbu maqolada B2 darajali ingliz tili talabalari uchun og'zaki nutqni rivojlantirishning samarali usullari tadqiq etilgan. Grammatik va lug'aviy bilimlari yetarli bo'lsa ham, ko'plab talabalar hali ham nutqda ravonlik, ishonch va spontan ifodada qiyinchiliklarga duch keladi.*

Tadqiqotda rasmiy va interaktiv yondashuvlar, jumladan rasmiy rolli o'yinlar, bahs-munozaralar, juft va guruhli mashqlar, hikoya qilish va gamifikatsiya usullari ta'kidlangan. Ushbu metodlar nafaqat dars muhitini rag'batlantiradi, balki til o'rganishdagi tashvishni kamaytiradi va talabalarni real muloqot amaliyoti qilishga undaydi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, interaktiv og'zaki mashqlarni muntazam qo'llash o'quvchilarning nutq ravonligini, lug'at boyligini va umumiy ishonchini sezilarli darajada oshiradi. Maqola xulosasida B2 darajali talabalar uchun og'zaki nutq ko'nikmalarini samarali rivojlantirishda rasmiy kommunikativ texnikalarni tatbiq etish zarurligi ta'kidlanadi va o'qituvchilarga bu strategiyalarni dars amaliyotiga integratsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: *og'zaki nutq ko'nikmalari, og'zaki kompetentsiya, interaktiv yondashuvlar, rolli o'yinlar, bahs-munozaralar, juft va guruh mashqlari, hikoya qilish, gamifikatsiya, nutq ravonligi, dars amaliyoti, ishonch, muloqot.*

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ УСТНОЙ РЕЧИ У СТУДЕНТОВ УРОВНЯ B2

Рахмонова Мохинур Зохиловна

Преподаватель кафедры Филология и преподавание языков

Каршинского международного университета

mohinurrahmonova1401@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-7755-4095?lang=ru>

Аннотация: Развитие навыков устной речи играет ключевую роль в изучении иностранного языка, поскольку оно позволяет учащимся активно участвовать в коммуникации и использовать целевой язык в аутентичных ситуациях. В данной статье исследуются эффективные методы повышения устной компетенции у студентов уровня B2. Несмотря на достаточные знания грамматики и словарного запаса, многие учащиеся на этом уровне испытывают трудности с беглостью речи, уверенностью и спонтанным высказыванием.

В исследовании особое внимание уделяется коммуникативным и интерактивным подходам, включая ролевые игры, дебаты, работу в парах и группах, рассказывание историй и геймификацию. Эти методы не только создают мотивирующую атмосферу в классе, но и снижают языковую тревожность, побуждая студентов практиковать язык в реальных коммуникативных ситуациях.

Результаты показывают, что регулярное использование интерактивных заданий для устной речи значительно улучшает беглость, словарный запас и общую уверенность студентов в коммуникации. Статья делает вывод о том, что внедрение коммуникативных техник является необходимым для развития эффективных навыков устной речи на уровне B2 и предоставляет практические рекомендации для преподавателей по интеграции этих стратегий в учебный процесс.

Ключевые слова: навыки устной речи, устная компетенция, интерактивные подходы, ролевые игры, дебаты, работа в парах и группах, рассказывание историй, геймификация, беглость речи, учебная практика, уверенность, коммуникация.

Introduction

Developing speaking skills is one of the most essential aspects of learning a foreign language, as it directly reflects learners' ability to communicate effectively in real-life situations. At the B2 level, students are usually able to understand complex texts and use a wide range of vocabulary and grammar structures; however, many of them still face difficulties in expressing their ideas fluently and confidently. These difficulties are often related to limited lexical resources, lack of practice, anxiety, and insufficient exposure to authentic communication.

Therefore, it is necessary to explore effective methods that can enhance B2 learners' oral communication skills. The aim of this article is to identify and analyze the most efficient techniques for developing speaking abilities at the B2 level. The study focuses on communicative and interactive approaches, such as role-playing, debates, pair and group discussions, and gamification, which have been proven to create a more engaging learning environment.

A considerable number of studies have emphasized the importance of speaking skills in second language acquisition. According to Harmer (2007), communicative competence is one of the main goals of language learning, and speaking activities should focus on real-life communication rather than isolated grammar practice. Similarly, Richards and Rodgers (2014) highlight that communicative language teaching (CLT) provides learners with opportunities to interact and develop fluency by engaging in meaningful tasks.

Research on B2 level learners shows that they often encounter challenges such as limited vocabulary, lack of confidence, and difficulties in spontaneous speech production (Littlewood, 2004). Dörnyei (2001) notes that psychological factors,

particularly anxiety and motivation, play a key role in the success of oral communication. Thus, teaching methods should not only develop linguistic competence but also create a supportive and motivating environment.

Task-Based Language Teaching (TBLT) has also been widely recognized as an effective method for improving speaking skills. Ellis (2003) argues that task-based learning provides learners with authentic communicative contexts that enhance both fluency and accuracy. In addition, studies on gamification in language learning (Werbach & Hunter, 2012) demonstrate that interactive activities such as speaking games and role-plays increase learners' engagement and reduce anxiety.

Overall, the reviewed literature suggests that interactive, communicative, and task-based methods are the most effective in developing speaking skills at the B2 level. These approaches encourage learners to actively participate, build confidence, and practice using the target language in authentic situations. Developing oral communication skills at the B2 level requires not only linguistic competence but also motivation, confidence, and exposure to authentic speaking contexts. Research highlights that learners often struggle with fluency, lexical range, and anxiety when speaking in a foreign language (Thornbury, 2005; Ur, 2012).

Gamification has recently emerged as an effective approach to increase student engagement and motivation in language learning. Chapman and Rich (2018) define gamified education as the application of game mechanics to learning environments to enhance participation and learning outcomes. Laksanasut (2024) emphasizes that gamification in ESL/EFL contexts encourages active speaking practice, reduces anxiety, and makes learning enjoyable. Almelhes (2024) also reports that game-based learning activities significantly improve oral proficiency, especially when learners collaborate and compete in controlled tasks. Meta-analyses confirm that gamified interventions positively influence English proficiency and communication skills in learners across different countries, including South Korea (MDPI, 202?). Platforms like Kahoot! and other digital tools provide opportunities for interactive practice, enhancing both vocabulary and fluency (inlibrary.uz).

Computer-supported collaborative learning (CSCL) has also been shown to improve oral skills. Chappelle (2001/2003) notes that technology-mediated environments, such as online discussion platforms or video-feedback tools, allow learners to practice speaking in authentic contexts beyond the classroom. For example, Zhao et al. (2017) demonstrated that ROC Speak, a semi-automated online module, improved students' prosody, fluency, and overall confidence through structured speaking exercises and feedback.

Prosody—the rhythm, stress, and intonation of speech—is another critical factor in oral communication. Teaching prosody effectively helps learners produce more natural-sounding speech and increases listener comprehension (Wikipedia, 2025). Integrating prosody practice into speaking tasks, especially combined with gamified and technology-enhanced approaches, enhances learners' communicative competence.

Overall, current research suggests that **a combination of gamified activities, CSCL platforms, and prosody-focused practice** is particularly effective in developing B2 level students' oral skills. These approaches not only enhance linguistic

ability but also foster motivation, reduce anxiety, and encourage authentic communication.

Methodology

This study was conducted with a group of B2 level university students who were learning English as a foreign language. The main objective was to identify which classroom activities most effectively support the development of oral communication. A qualitative approach was applied, combining classroom observations, student feedback, and analysis of speaking performance over a six-week period.

The teaching methods implemented included role-playing, debates, pair and group discussions, storytelling, and gamified speaking activities. These tasks were designed to simulate real-life communicative situations and to encourage active student participation. Each session lasted approximately 60 minutes, with at least half of the time devoted to speaking practice.

Data collection was based on three tools:

1. **Observation checklists** – to monitor student participation and engagement during activities.
2. **Student self-reflection forms** – to gather learners' perceptions of their progress.
3. **Speaking performance assessments** – to evaluate fluency, lexical range, and accuracy at the beginning and end of the study.

The collected data were analyzed thematically, focusing on improvements in fluency, vocabulary use, and confidence. The methodology aimed to ensure that findings reflected both the observable progress in students' performance and their subjective experiences of using interactive speaking methods.

Results

The implementation of communicative and interactive methods showed noticeable improvements in students' speaking performance. Observation checklists indicated that more than 70% of learners actively participated in role-plays and debates, while group discussions encouraged nearly all students to contribute at least one idea per activity. The speaking assessments revealed that learners demonstrated greater fluency and a wider lexical range by the end of the study. For instance, the average speaking test score increased by 15%, particularly in the areas of fluency and vocabulary. Students also reported feeling more confident when expressing their opinions in English, especially during informal discussions and debates. Self-reflection forms confirmed these findings: most students indicated that gamified speaking activities and role-plays were the most enjoyable and helpful, as they created a stress-free environment for practicing oral communication.

Discussion

The results support previous research emphasizing the effectiveness of communicative approaches in language teaching (Harmer, 2007; Richards & Rodgers, 2014). The increased participation levels suggest that interactive activities reduce language anxiety, which aligns with Dörnyei's (2001) findings on the role of motivation and psychological factors.

Among the tested methods, role-playing and debates appeared to be the most effective for promoting fluency, while storytelling and group discussions contributed more to vocabulary expansion and confidence building. Gamification was particularly successful in lowering students' fear of making mistakes, which encouraged more spontaneous speaking.

However, certain limitations were observed. Larger class sizes made it challenging to provide equal speaking opportunities for all students, and time constraints sometimes limited the depth of discussions. These challenges highlight the importance of careful planning and activity selection when applying communicative approaches in the classroom.

Conclusion

This study demonstrated that B2 level learners benefit significantly from communicative and interactive speaking activities. Role-plays, debates, discussions, storytelling, and gamified tasks proved to be effective in enhancing fluency, vocabulary range, and learners' confidence in oral communication.

It is recommended that teachers integrate a variety of these methods into their lessons to maximize speaking practice and provide students with opportunities to use English in authentic contexts. Future research could investigate the long-term effects of communicative approaches and compare their impact on learners at different proficiency levels.

REFERENCES

- 1 Dörnyei, Z. (2001). *Motivational strategies in the language classroom*. Cambridge: Cambridge University Press.
- 2 Ellis, R. (2003). *Task-based language learning and teaching*. Oxford: Oxford University Press.
- 3 Harmer, J. (2007). *The practice of English language teaching* (4th ed.). Harlow: Pearson Education.
- 4 Littlewood, W. (2004). *The task-based approach: Some questions and suggestions*. *ELT Journal*, 58(4), 319–326.
- 5 Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
- 6 Werbach, K., & Hunter, D. (2012). *For the win: How game thinking can revolutionize your business*. Philadelphia: Wharton Digital Press.
- 7 Almelhes, S. A. (2024). Gamification for teaching the Arabic language to non-native speakers: A systematic literature review. *Frontiers in Education*.
- 8 Chapman, A., & Rich, M. (2018). Gamified education defined and characterized. *Seaborn citation*.
- 9 Chappelle, C. A. (2001/2003). *Computer applications in second language acquisition; English language learning and technology*. Wikipedia.
- 10 Laksanasut, S. (2024). Gamification in ESL/EFL Education: Transforming Language Learning and Teaching Through Play. *TESOL and Technology Studies*, 6(1).
- 11 MDPI. . Effects of Gamification on Students' English Language Proficiency: A Meta-Analysis on Research in South Korea.
- 12 Zhao, R., Li, V., Barbosa, H., Ghoshal, G., & Hoque, M. (2017). Semi-Automated & Collaborative Online Training Module For Improving Communication Skills (ROC Speak).

**IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYIN O'ZBEKISTON MILLIY
ZIYOLILARIGA QARSHI QATAG'ONLIKLAR TARIXIDAN.****Ergasheva Y. A**Qarshi davlat texnika universiteti
professori, tarix fanlari doktoriE-mail: yuae63@gmail.com

Аннотация: Мақоллада ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda O'zbekiston ziyolilariga qarshi g'oyaviy zug'um va qatag'onliklar hamda sovet tuzumining madaniy sohadagi siyosatining xalqimiz ma'naviy hayotiga ta'siri tahlil qilingan. Sovet hokimiyatining madaniy siyosatidagi konseptual-g'oyaviy yondoshuvning milliy ma'naviyatga ta'siri va qatag'onliklarga uchragan milliy ziyolilar, olimlar, adabiyot va san'at vakillarining fojiaiy taqdiri ko'rib chiqilgan

Калит so'zlar: g'oyaviy zug'um, qatag'onliklar, ma'naviy hayot, ziyolilar, fan, olimlar, adabiyot, san'at, milliy madaniyat..

**ИЗ ИСТОРИИ РЕПРЕССИЙ ПРОТИВ НАЦИОНАЛЬНОЙ
ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ УЗБЕКИСТАНА ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ
ВОЙНЫ.****Эргашева Ю.А.**Профессор, доктор исторических наук,
Каршинский государственный технический университет.E-mail: yuae63@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы политических гонений и идеологический прессинг на творческую интеллигенцию Узбекистана, воздействие политики репрессий советской власти на культурную жизнь общества. Анализируются проблемы концептуально-идеологической взаимозависимости репрессивной природы советской власти и антинациональной направленности советской культурной политики, разрушающего воздействия репрессивной политики на духовную жизнь народа, а также рассматривается трагическая судьба подвергшихся гонениям и репрессиям представителей национальной творческой интеллигенции, деятелей науки, литературы, искусства.

Ключевые слова. политические гонения, идеологический прессинг, репрессии, духовная культура, наука, литература, искусство, творческая интеллигенция, ученые, национальная культура.

**FROM THE HISTORY OF REPRESSIONS AGAINST THE
NATIONAL INTELLIGENTSIA OF UZBEKISTAN AFTER WORLD WAR
II.****Ergasheva Y. A**Professor, Doctor of Historical Sciences,
Karshi State Technical UniversityE-mail: yuae63@gmail.com

Annotation. The article examines the issues of political persecution and ideological pressure on the creative intelligentsia of Uzbekistan, the impact of the policy of repression of Soviet power on the cultural life of society. The problems of the conceptual and ideological interdependence of the repressive nature of the Soviet power and the antinational orientation of the Soviet cultural policy, the destructive impact of the repressive policy on the people's spiritual life are analyzed, and the tragic fate of the persecuted and repressed representatives of the national intelligentsia, scientists, literature, and art is considered.

Keywords : political persecution, ideological pressure, repression, spiritual culture, science, literature, art, creative intelligentsia, scientists, national culture

Mamlakatimizda milliy mustaqillikni qo'lg'a kiritilishi, bir tomondan mustabid sovetlar tuzumi davrida shakllangan salbiy holatlarni bartaraf etishga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomondan esa demokratik huquqiy davlat va insonparvar fuqarolik jamiyati qurish uchun shart-sharoit yaratdi. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda olamshumul ahamiyatga loyiq voqealar ro'y berdi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot, madaniy-mafkuraviy sohada jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jamiyatdagi o'zgarishlarga mutanosib ravishda mamlakatimizda milliy o'zlikni anglash va milliy istiqlol g'oyalari asosida yanada mustahkamroq jipslashish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Jamiyatning har bir a'zosining ijtimoiy faolligi, ijtimoiy-siyosiy voqeliklarga munosabatini to'g'ri tanlashda tarixiy xotira muhim ahamiyat kasb etadi. Yaqin o'tmishdagi tarixiy voqea va jarayonlarni o'rganish, ularning mohiyatini anglash va xolisona baho bergan holda xulosalar chiqarish o'zlikni anglash jarayonida muhim o'rin tutadi. Darhaqiqat, hozirgi kunda davlatimiz va uning rahbariyati tomonidan milliy qadriyatlarimizni tiklash, boy tariximizni, madaniy merosimizni o'rganish, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida sobiq sovet tuzumi davrida buzib ko'rsatilgan yoki yoritilmagan juda ko'p ijtimoiy-tarixiy hodisa va voqealar qaytadan ko'rib chiqildi va bu jarayon hozirda ham davom etmoqda. Shu bois, mustabid sovet hokimiyatining o'ta murakkab va ziddiyatli kechgan hukmronligi yillarida xalqimiz tarixini, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotini, shu jumladan, respublikada ulug'davrlarchilik siyosati, shovinistik yondoshuvlar oqibatida milliy ijodkor ziyolilarni tahqirlanishi va qatag'on qilinishi, milliy adabiyot, tarix, madaniyat asossiz qoralanishi bilan bog'liq voqealarga to'xtalmoqchimiz.

Stalinizmning O'zbekiston ijodkor ziyolilariga zarbasi urushdan keyingi o'n yilliklarda sodir bo'lgan siyosiy voqealar bilan bog'liq. Darhaqiqat, bu davrda repressiv zarbaning ikkinchi to'liqini o'zbek madaniyatiga katta talofat yetkazdi. Urushdan ilgari sovet davrida taniqli madaniyat arboblarning quvg'in qilinishi va ular ijodiga asossiz, xo'rlab baho berilishi undan keyingi adabiy-badiiy ijodga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

40-yillarning oxiri va 50-yillarning boshlarida ziyolilarning peshqadam qismi repressiyaga uchradi, O'zbekistondagi ko'pgina yozuvchilar, shoirlar, olimlar va madaniyatning boshqa arboblari boshiga qora kunlar tushdi. Urush tamom bo'lishi bilanoq ilm-fan, ma'rifat va madaniyat xodimlariga nisbatan qatag'onliklarning maqsad-muddaosi urushdan holsizlanib chiqqan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot qiyinchiliklariga nisbatan xalqning ko'zini ochadigan ziyolilarni qo'rquv va itoatkorlikda tutish hamda ularga "markscha-lenincha to'g'ri yo'lni" ko'rsatish edi.

Shu bois VKP(b) Markaziy Komitetining 1946 yilda “Zvezda” va “Leningrad” jurnallari haqida”, “Dramatik teatrlarning repertuarlari va uni yaxshilash choralari haqida”, “Katta hayot” kinofilmi haqida”, 1948 yilda “V. Muradelining “Ulug‘ do‘stlik” operasi haqida” va boshqa bir qancha qarorlari e‘lon qilindi. Ushbu qarorlarda hamda ulardan keyin e‘lon qilingan rasmiy maqolalarda adabiyot, san‘at va madaniyatning boshqa sohalarida bir qator yutuqlar bilan birga “jiddiy kamchiliklar” sodir bo‘layotganligi, badiiy jihatdan past va hatto “umidsizlik”, kelajakka ishonchsizlik ruhi bilan “sug‘orilgan, g‘oyaviy jihatdan “zararli” asarlar paydo bo‘lganligi ko‘rsatiladi, madaniyatning taniqli arboblari sha‘ni bo‘lg‘andi, guyo ularning asarlarida “g‘oyasizlik”, “siyosiy ko‘rlik”, “hayot haqiqatining buzilishi”, “g‘arbning burjuaziya madaniyatiga sajda qilish” va hokazolar ayon sezilib turibdi deb tanqid qilinadi.

Bunday mafkuraviy “karnay navosi”ga, tarkib topgan an’anaga ko‘ra, joylardagi maddohlar bajonidil jo‘r bo‘ldilar. Respublika, viloyat, tuman partiya tashkilotlari ana shu “rahnamo” qarorlarga darrov “labbay” deb javob berdilar. Asosiy qarordan keyin shosha-pisha joylarda qabul qilingan qarorlar qo‘g‘irchoqbozlik o‘yinini eslatar edi: yozuvchilar, shoirlar, jurnallarning tahririyatlari badjahllik va omillik bilan tanqid qilina boshlandi. Bu o‘rinda xalq ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlari, ahloq–odobi sira inobatga olinmadi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XIV plenumi 1946 yilning avgust oyida qabul qilgan qarorida quyidagilar ta’kidlangan edi: “Ayrim yozuvchilar ijodidagi g‘oyasizlik va siyosatdan chetda turish, respublika teatrlari repertuar siyosatidagi g‘oyasizlik, ba’zi ijodkorlarning zamonaviy dolzarb mavzulardan chetda turishi hollari zarur tarzda zarbaga uchramayapti”. [1]

Ana shunday “zarur zarba”ni berish hamda O‘rta Osiyo Respublikalari partiya-davlat idoralari faoliyatini cheklab qo‘yish uchun 1947 yilda Toshkentda yana qaytadan VKP(b) Markaziy Komitetining O‘rta Osiyo byurosi tuzildi, xolbuki bunday byuro ilgari, ya’ni 1934-yilda tarqatib yuborilgan edi. Ushbu mahkamaning talabi bilan 1948-1950 yillarda mintaqadagi respublikalardagi kompartiyalarining markaziy komitetlarining byurolari va sekretariyatlari yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlar uyushmalarining, ko‘pgina olimlarning faoliyatini qattiq tanqid qildilar va qoraladilar. G‘oyasizlikning “o‘ziga xos” sabablari ham topildi: “millatchilik bobida xali ham tagtomiri bilan quritilmagan adashishlar hamda markscha-lenincha nazariyani o‘rganishda beparvolik bilan karash ayrim ijodiy xodimlarga unumli ishlashga jiddiy xalaqit bermoqda”deb asoslandi. “Millatchilik”da ayblash milliy respublikalardagi stalincha qatag‘onlarni ruyobga chiqarish uchun o‘ziga xos “hususiyat” va “qulay” shakl edi. O‘zbekiston xalq shoiri Shukrullo hikoya qiladi: “Urushdan keyingi paytda Oybek uyushma raisi, men esa maslahatchi edim. Mamarasul Boboyev, Homil Yoqubovlar “Sharq yulduzi”da mehnat qilishardi. Kunlardan bir kun ular mendan

oynomada e'lon qilish uchun she'r so'rab qolishdi. 1939 yilda Qoraqalpog'istonda o'qituvchilik qilgan kezlarimda Orolga bag'ishlab yozilgan "Dengizda bir tun" sarlavhali she'rimni berdim. Baxtga qarshi u e'lon qilinishi bilan naq baloga qoldim. Ayrim siyosatdonlar uchun bu asar "g'oyasizlik va kosmopolitizm" haqidagi qarorga mos kelib qoldi. Ular unda mehnat ko'rsatilmay, quruq dengiz manzarasi maqtalgan deb ayb qo'yishdi. Qarorning joylardagi "ijro"si uchun o'sha paytda mening asarimga o'xshagan she'rlar kerak bo'lgan. Bu 1948-1950 yillarda yana asossiz qamoqqa olishlari uchun tayyorgarlikning debochasi ekan" [2].

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti 1949 yilning iyun oyida yozuvchilar uyushmasining ishini muhokama qilib, qo'yidagilarni ta'kidladi: "Sunggi davrda yozilgan asarlarda millatchilik, milliy manqurtlik, feodal o'tmishni ideallashtirish hamda eski feodal madaniyat oldida qullarcha sajda qilish holatlariga yo'l qo'yildi" [3].

O'zbek adabiyoti va san'atida o'rni-tagida bo'lmagan illatlarni "fosh" etishga ittifok markazi bosh bo'lib turgani kunday ravshandir. O'sha vaqtda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining mafkura masalalari bo'yicha kotibi bo'lib ishlagan N.Muxitdinov o'z xotiralarida quyidagilarni ta'kidlagan edi: "O'sha kunlar Moskvadan bir katta guruh fan va madaniyat xodimlari, ular bilan birga esa VKP(b) Markaziy Komitetining vakillari kelishdi. Ular O'zbekistondagi xar bir yirik olim va madaniyat arbobining ijodini sinchiklab o'rganishdi. Faollarning yig'ilishlari o'tkazildi, bu yig'ilishlarda guruhlarning rahbarlari partiyaning "milliy siyosatini soxtalashtirayotgan", "arxaizmlarni ommalashtirayotgan", "saroy poeziyasi va musiqasini" yoyayotgan kishilarni, "o'zbek madaniyatini tanholashtirib, ittifokdan ajratib olishga"- go'yo o'rinayotganlar deb qattiq tanqid qilindi. Birin-ketin o'zbek adabiyotinig atoqli vakillariga yasama tuhmat va bo'htonlar yog'dirilib, ular yomon otlig' qilinib siquv va hibsga olina boshladilar". N.Muxitdinov bergan ma'lumotlarga qaraganda "qora ro'yxat"ga tushgan adiblar soni 60 kishidan iborat edi [4].

Partiyaning qarorlari va "ko'rsatmalari"ni "ijro etish" chog'ida ko'p yozuvchilar va milliy madaniyat arboblari xor-zor qilindi, mafkurani pesh qilib, badnom etildi, lavozimlaridan olib tashlandi. Atoqli o'zbek yozuvchilari - Oybek, A. Qahhor, M. Shayxzoda, Shukrullo, Shuhrat, Hamid Sulaymon, Said Ahmad, Mirzakalon Ismoilij va boshqa anchagina adiblarga nisbatan, shuningdek "Sharq yulduzi" va "Zvezda Vostoka" jurnallariga nisbatan asoslab berilmagan g'oyaviy va siyosiy ayblar qo'yildi.

40-yillarning oxiri va 50-yillarning boshlarida respublika matbuotida ketma-ket ijodiy xodimlar ayblanib, yer bilan yakson qilinadigan maqolalar bosildi. Agar bu maqolalar xususida xolis fikr aytadigan bo'lsak, milliy ziyolilarga zo'r berib hujum qilinganini ko'ramiz. Masalan, "Pravda Vostoka" gazetasining 1951 yil 10 avgust sonida V. Kostirya, K. Fayzulin "Ayrim shoirlar ijodidagi mafkuraviy buzilishlar

to'g'risida" degan maqola bilan chiqishib, sotsialistik realizm prinsipiga "qiroatxonlik" bilan suyanib, Turob To'la, Sobir Abdulla, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, Habibiy, A. Bobojonov singari shoirlarga turlicha ayblarni qo'yidilar. Aslida, mazkur maqola totalitar rejim maqsadlari ruhiga javob berar edi: "jilovni tortib turish" maqsadi va oqibatida adabiyot va she'riyat shunday ahvolga tushib qoldiki, bu sira-sira uning ravnaqiga xizmat kilmadi. Quyidagi baholardan bu ayon ko'rinib turibdi: "Mirtemir obidiyda qilib", "yor degan laparcha yozibdiki, bu tushkunlikning xuddi o'zidir. U tarixiy haqiqatni qo'pollik bilan buzgan. Shoir odamlarimizga behayolik bilan tuhmat toshini otgan" yoki yana bir misol: "Turob To'laning "O'zbekistonim" asarida sotsialistik O'zbekistonga xos bo'lgan alomatlarini qidirsanggiz ovora bo'lasiz. Muallif almisoqdan qolgan manzaralarni kuylaydi. "Balqigan kuyosh", "Gullagan bog'", "Bahor"ni tilga oladi-yu, lekin mamlakatimizdagi xalqlarning stalincha do'stligi, hayotbaxsh sovet vatanparvarligi xaqida bir og'iz ham gapirmaydi. T. To'laning bu zarvulli asari o'z ruhiga ko'ra burjuaziya millatchilarining baytlariga hamohangdir". Shunga o'xshash "izchil tanqid" millatga qarshi qaratilgani ayondir, bu esa sira shak-shubhasiz yakka hokimlik qilayotgan partiya kazo-kazolarining nuqtai nazari va pozitsiyasini aks ettirar edi. Bu maddohlarning fikricha "o'zbek xalqining paxta hosildorligini oshirish uchun ilhombaxsh kurashini, uning kommunistik partiyaga, buyuk Stalinga oliyjanob mehr-muhabbati"ni aks ettirgan asarlar "ommaning e'tiboriga molik" bo'layotgan ekan [5].

Akademik M. Oybek o'sha vaqtda bosh bo'lib turgan til va adabiyot instituti ishida ham "katta kamchiliklar" topiladi. Bu sohadagi ilmiy-tadqiqotlarning g'oyaviy darajasidan tashvishga tushgan partiya-davlat idoralari sovet davridan ilgarigi adabiy merosni tadqiq etayotgan olimlarni, ayniqsa qattiq tanqid kildilar.

1951 yilning 21 avgustdan "Pravda Vostoka" gazetasida M.Ivanov, V.Lavrov va F. Iskandarovlarning "O'zbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda" degan maqolasi paydo bo'ldi. Ushbu maqola o'zbek adabiyotshunosligi muammosiga bag'ishlangan edi. Maqolani tahlil etar ekanmiz, bir narsani ilg'ab olish qiyin emas: mualliflar o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini ajratib olishlarida sinfiy, partiyaviy-bolshevistik yondashuvlar jiddiy ta'sir o'tkazgan. Rasman bu maqolada Oybek, X.Zarifov, X.Yoqubov, I.Sultonov singari adabiyotshunoslik, adabiy tanqid va filologiya sohasidagi taniqli olimlarning asarlari tanqid qilinadi. Aslida esa mazkur maqola inqilobdan ilgarigi o'zbek xalqining adabiy me'rosini ijobiy yoritish va tahlil etishga qarshi qaratilgan edi. Bu quyidagi misollarda yaqqol ko'rinib turibdi: "M.Oybek "Sanobar" va "Malikai Dilorom" singari ochiq-oydin reaksion, islom fanatizmi ruhi bilan sug'orilgan, xalqqa yot bo'lgan asarlarni xalq romanlari deb noto'g'ri baholaydi. Yoki yana bir misol: "X.Yoqubov tarixiy voqealarni noto'g'ri

talkin etadi, Qo'qon xonlarini ideallashtiradi, jumladan, qonxo'r jallod Umarxonni XIX asr boshidagi adabiy xarakterning rahbari qilib ko'rsatishga o'rinadi" [6].

Ijodkor ziyolilar O'zbekiston yozuvchilari uyushmasining 1951 yil avgust oyida bo'lib o'tgan oltinchi plenumida yana ham qattiqroq tanqidga uchradilar. Yozuvchilar uyushmasi raisining ma'ruzasi boshidan oyoq "ayrim yozuvchilar va shoirlar ijodidagi mafkuraviy tushdagi kamchiliklarni tanqid" qilishga bag'ishlanadi. Jumladan, ma'ruzada Shayxzoda asarlarida "sotsialistik voqelik, sovet kishilarining obrazlari buzib tasvirlangan", deb takidlanadi. Uning asarlari tilida esa, "arabcha, eroncha, turkcha so'zlar ko'p bo'lib, bular ham diniy ruhdadir". S. Abdullaning "Alpomish" pyesasi feodal o'tmishni ideallashtiradigan zararli asar, deb e'lon qilindi. Ta'kidlash kerakki, bu asar tomoshabinlarga juda ma'qul bo'lgan edi, 1951 yilning uch oyi mobaynida Muqimiy nomli teatr sahnasida u 18 marta, Samarqand teatrida esa 22 marta ko'rsatilgan edi.

Plenumda T. Fattoh, Zulfiya, M. Boboyev, H. G'ulomov, Uyg'un singari shoirlarning ham "boshida kaltak sindi", ularning ba'zi asarlarida "ko'hna g'azallardagi" "gul va bulbul" so'zlari va boshqa iboralar juda ko'p qaytarilgan" ekan. O'zbek yozuvchilari va shoirlari ijodidagi milliy o'ziga xoslikning har qanday ko'rinishlarini bachkanalik bilan ulug' millatchilik deb tanqid qilinishi adabiyotimiz taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Buning ustiga, totalitar tuzumning repressiv qilichi yana ishga tushdi. Bu jarayon, tobora kuchayib borib, asosan, ikki yunalishda kechdi: birinchidan, aholiga mafkuraviy jihatdan ishlov berish kuchaydi; ikkinchidan esa, xalqni doimo qo'rquvda ushlab maqsadida to'g'ridan-to'g'ri qatag'onchilik boshlandi. Milliy ziyolilarning atoqli vakillariga qarshi qatag'onlar, ayniqsa 1951-1952 yillarda avj oldi. 1952 yilning boshlarida "sovetlarga qarshi" faoliyat uchun Shukrullo, Maqsud Shayxzoda, Mirkarim Osim, Said Ahmad, Mirzakalon Ismoilov, Shuhrat va respublikaning boshqa bir qancha yozuvchilari, olimlari 25 yilga qamoq jazosiga hukm qilindi.

Mafkuraviy ishni kuchaytirish va "xalq dushmanlari"ga qarshi kurashishni rukach qilib, ijod erkinligini cheklash va ziyolilar faoliyatini rasmiy tarzda bir qolipga solish uchun chora-tadbirlar ko'rildi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1952 yil fevral oyida bo'lgan X plenumida "Respublikada mafkuraviy ishning ahvoli va bu ishni yaxshilash tadbirlari to'g'risida"gi masala muhokama qilinib, yana bir marta nihoyatda behayolik bilan o'zbek yozuvchilari, olimlari, kompozitorlari ijodidagi jiddiy kamchiliklar xususida gapirildi, shuningdek, mehnatkashlarni sovet vatanparvarligi va xalqlar do'stligi ruhida, millatchilik sarqitlariga qarshi kurash, ayollarga feodal-boylarcha munosabatga qarshi kurash ruhida tarbiyalash ishini yaxshilash zarurligi o'qtirildi. Ana shu plenumda Oybek va boshqa bir qancha yozuvchilar millatchilar deb e'lon qilindi. Xuddi o'sha oying

o'zida yozuvchilar uyushmasining plenumi bo'lib o'tdi, bu yig'inda quyidagilar ta'kidlangan edi: "sovet davlatida yozuvchi mehnati shaxsiy va xususiy ish emas, balki davlat ishi, partiya va xalq ishidir", shu boisdan ham uyushma a'zolaridan "ularning asarlari o'zining g'oyaviy va badiiy darajasi bilan sovet o'quvchilarining talablariga, kommunistik partiya qo'ygan vazifalariga javob berishi kerak"ligi talab qilindi [7].

Xullas, shunday siyosiy va mafkuraviy vaziyat vujudga keltirildiki, o'z tabiatiga ko'ra cheklab bo'lmaydigan va inson, tinchlik, axloq-odob singari abadiy mavzular bilan shug'ullanishi lozim bo'lgan adabiyot o'ziga xos bo'lgan ijodiy, oliy fazilatlardan mahrum bo'lib, jun kosibchilikka aylanishi kerak edi. O'sha yillari inson faoliyatining nihoyatda nozik sohasi bo'lgan adabiyot g'oyaviy iskanjaga solinishi oqibatida 90-yillarga qadar adabiyotning bundan keyingi taraqqiyoti bir o'zanga solindi va yozuvchilar davrasida zamonasozlik (konformizm) qaror topdi.

Milliy ziyolilarning badnom etilishi va qatag'on qilinishi oqibatida ko'pgina iste'dodli yozuvchilar, shoirlar va olimlardan judo bo'ldik va bu intellektual ijod, jumladan adabiy-badiiy ijodga nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatdi. Badiiy zaif, o'rtamiyona asarlarning paydo bo'lishi, ularning sun'iy tarzda ishlab chiqarish mavzuiga yaqinlashtirilishi adabiyot, milliy tilning ravnaqiga jiddiy to'siq bo'ldi. Vatanimiz tarixini o'rganish va unga xolis baho berish o'zoq yillarga cho'zilib ketdi. "Sotsialistik realizm" badiiy ijodning bosh fazilati bo'lib qoldi. Bu o'rinda "realizm"ni "sotsialistik" deb atalgan beo'xshov tosh bosib yotardi, xuddi ana shu "sotsialistik" iborasi g'oyaning zug'umini va siyosiy mazmunning hukmini aks ettirardi. Ijod erkinligi bo'lmasa, adabiyotning o'zi ham bo'lmaydi. Demak, adabiyot rivojlana olmaydi ham. O'sha davrda xuddi ana shu ijod erkinligi bug'ib qo'yilgan edi. Darvoqe, ijodiy, intellektual ruhning o'zi zamonasozlik tafakkur tarzini ma'qul ko'rgan totalitar tizim bilan chiqisha olmas edi. Shuning uchun ham ziyolilarni o'sha tuzumga xizmat ko'rsatuvchilar deb hisoblab keldi. Mabodo kimdir mustaqil yo'l tutadigan bo'lsa, tahqir etilib, siyosiy ayblar chaplab tashlanar edi.

Stalincha qatag'onlik davrida xalqimiz orasidan yetishib chiqqan ijodkor ziyolilar, iste'dodli madaniyat va san'at vakillarini, atoqli olimlar, adib va shoirlarni jismonan yo'q kilinishi o'zbek milliy madaniy taraqqiyotiga katta zarba berdi. Shuni ta'kidlash kerakki, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra faqat "uchlik"lar hukmi bilan O'zbekistonda 1937-1953 yillarda 18652 kishi qatag'on qilingan, ulardan 6038 kishi otib tashlangan [8]. Tarixchi olim I.Tursunov 1939-1953 yillarda O'zbekiston ziyolilaridan jami bo'lib 61 ming 799 kishi qamalganligi, shulardan 56 ming 112 kishi turli muddat bilan ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganligi, 7 ming 100 kishi esa otib tashlanganligini yozadi [9].

Davlat va adabiy-badiiy hayotdagi ana shunday murakkab sharoitda tajribali hamda endigina adabiyot maydoniga kirib kelayotgan yozuvchilar va shoirlar ijodi

davom etardi. Ayni vaqtda shu yillar faqat ko'proq salbiy hodisalar bilan ajralib turdi desak joiz bo'lmaydi. Hayot taqozosi, estetik qonunlarning o'ziga xosligi va ularning shiddat bilan namoyon bo'lishi har qanday cheklashlar va yo'l yo'riqlardan ko'pincha ustun bo'lib chiqdi. Buning ustiga, "qarshilikni yengish" ham o'z samarasini berdi: bu davrda o'zbek adabiyoti haqiqatan ham kizikarli asarlar bilan boyidi, ularda mumtoz milliy an'analar davom ettirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Эргашева Ю.А. Культура Узбекистана: тенденции и проблемы развития. – Ташкент: Фан, 1997, с. 146.
2. Усмонов И. Катагон курбонлари. – Тошкент, 1992, 205-206 бетлар.
3. ЎзМА, ф. 2356, р. 2, д. 460, б. 44.
4. Мухитдинов Н. Годы, проведенные в Кремле. - Ташкент, 1994, с.
5. Правда Востока, 1951, 10 августа.
6. Правда Востока, 1952, 24 февраля.
7. ЎзМА, ф. 2356, р. 1, д. 311, б. 18.
8. Правда Востока, 1989, 21 мая.
9. Турсунов И. Истиклолга интилган қалблар нидоси. - Тошкент, 1993, 33 бет.

MUSTAQILLIKNING DASLABKI YILLARIDA KASB-HUNAR KOLLEJLARINING MODDIY-TEXNIKA BAZASINI RIVOJLANISHI

Shuxrat Toshkentovich Boymurodov

Qarshi xalqaro universiteti dotsenti.

Аннотация: Мамлакат та'лим тизимидagi mavjud holatni, kadrlar tayyorlash jarayoni respublikada amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar. Ta'lim muassasalarining o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallar bilan to'liq ta'minoti, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika salohiyati va axborot bilan ta'minlanganlik darajasi, kasb-hunar kollejlarining maddiy-texnika bazasini rivojlanishi tahlil qilingan.

Калит so'zlar: o'rta bug'in, o'rta maxsus ta'limi, ta'lim islohatlar, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, moddiy-texnika, kichik mutaxassis.

РАЗВИТИЕ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ БАЗЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОЛЛЕДЖЕЙ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Шухрат Ташкентович Боймуродов

доцент Каршинского международного университета.

Аннотация: Проанализированы современное состояние системы образования страны, процесс подготовки кадров, демократические преобразования, происходящие в республике, полная обеспеченность образовательных учреждений учебной, методической и научной литературой и дидактическими материалами, материально-технический потенциал образовательных учреждений и уровень информационного обеспечения, развитие материально-технической базы профессиональных колледжей.

Ключевые слова: среднее образование сегодня, среднее специальное образование, образовательные реформы, Закон «Об образовании», материально-техническая база, младший специалист.

DEVELOPMENT OF THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF PROFESSIONAL COLLEGES IN THE FIRST YEARS OF INDEPENDENCE

Shukhrat Tashkentovich Boymurodov

Associate Professor, Karshi International University.

Annotation: The current situation in the country's education system, the process of personnel training, democratic changes implemented in the republic. The complete supply of educational institutions with educational and scientific literature and didactic materials, the material and technical potential of educational institutions and the level of information provision, the development of the material and technical base of vocational colleges were analyzed.

Keywords: secondary education, secondary special education, educational reforms, law on education, material-technical junior specialist.

Dolzarbli: Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim soxasining barcha bug'inlarida olib borilayotgan islohotlar yoshlarni qamrab olinishini yanada kengaytirish, ularni bilim va yetuk mutaxassis etib tarbiyalash, qaratilgan. Albatta, mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar e'tiborga molik. Mustaqillik sharoitida uzluksiz ta'lim tizimida o'rta maxsus ta'lim, sohasi sezilarli darajada o'zgardi, tizimda yangi bilimlarni o'zlashtirgan, aniq kasblar sohasidagi innovatsion imkoniyatlar doirasini tushunadigan kadrlar talab qilina boshladi. Ular xo'jalik va ishlab chiqarish masalalarini nafaqat malakali hal qiluvchi, balki to'g'ri qaror qabul qiluvchi tahliliy layoqatlarga ega bo'lishlari kerakligi O'zbekistonning zamonaviy sanoatlashgan dunyoga integratsiyalashishiga bo'lgan intilishi undan mehnat bozorining tez o'zgarayotgan ehtiyojlariga moslasha oladigan ta'lim tizimini yaratishni talab qiladi. Ta'lim muassasalarini rivojlantirish va ular tomonidan sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish zarur bo'lib qoldi.

2. **Metodlar:** Maqolada O'zbekistonda o'rta maxsus ta'lim sohasidagi islohotlari va uning ahamiyati qabul qilingan tarixiy va sotsiologik metodlar – tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy, tuzilmaviy, funksional yondashuv, qiyosiy-mantiqiylik, tahliliy, ketma-ketlik, xolislik, ob'ektivlik tamoyillari asosida yoritilgan.

3. **Tadqiqot natijalari:** Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ijobiy dinamikasi va global axborot jamiyatini shakllantirishda yuqori malakali va innovatsion texnologiyalarga ega bo'lgan yuqori va o'rta darajadagi mutaxassislarga ehtiyoj tug'diradi.

1996 yildan boshlab respublika iqtisodiyotining yuqori malakali ishchi kadrlarga bo'lgan talablarini to'laroq qondirish, kasbga o'qitishning uzluksizligini ta'minlash, ishchi kadrlarni uzluksiz tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Eng avvalo qishloq joylarda mehnat bozorini shakllantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda hunar-texnika ta'limini qayta tashkil etishga kirishildi. Mustaqillikning daslabki yillarida bu tizimda jami 221 ming kishini ta'lim

bilan qamrab olgan 442 o'quv yurti, shu jumladan, 209 kasb-hunar maktabi, 180 kasb-hunar litseyi va 53 biznes-maktab faoliyati yo'lga quyilgan edi. 1996 yilga kelib boshlang'ich kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlarida qariyb 20 ming o'qituvchi va malakali mutaxassislar ishlagan bo'lsa, respublikada jami 197 ming kishi ta'lim olayotgan 258 o'rta kasb-hunar ta'limi o'quv yurti ishlab ularda qariyb 16 ming o'qituvchi va muhandis-pedagog xodimlar mehnat qilgan. Ta'lim islohotlarining jadallashuvi bu yo'nalishda izchillik hamda uzliksizlikni ta'minlashga xizmat qiladigan yangi qonun qabul qilinishni taqozo etayotgan bir vaqtda mamlakat miqyosida ta'lim tarbiya, ilm fan, kasb-hunar o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi.

1997 yil 10 martda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish to'g'risida qaror qabul qilindi. Ta'lim sohasidagi milliy tajribaning tahlili shuni ko'rsatadiki yoshlarni kasb-xunarga o'rgatish, ta'lim uzliksizligini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga kutarilishining xuquqiy asoslar yaratib berilishi kerak edi.

Zaruratdan kelib chiqib "Ta'lim tag'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Bu dastur ta'lim tizimida mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan xalos etish, Rivojlangan mamlakatlar darajasida yuksak malakali kadrlar tayyorlash milliy ta'lim tizimini yaratilishga huquqiy zamin yaratib berilishi kuzda tutilgan edi.

Eng avvalo yangi tipdagi kasb-xunar kollejlari tayyorlanadigan mutaxassislar nomeklaturasi islohotlar va iqtisodiyotda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlarga moslashtirildi. Natijada 1998 yil 5 yanvarda "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida" qarorlari qabul qilindi. Ularning akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari amaliyotiga joriy etilishi 1999-2000 o'quv yilidan boshlab bosqichma bosqich amalga oshirildi. 2010-2012 o'quv yili davomida xalqaro va milliy tajriba asosida umumta'lim fanlari bo'yicha 16 ta standart ishlab chiqildi.

1998 yil 23 sentyabrda akademik litsey va kasb-xunar kollejlarning moddiy texnika bazasini rivojlantirish hamda mablag' bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Qashqadaryo viloyat o'rta maxsus ta'lim tizimi tahlil qilinganda viloyatda 1998 yilda Yakkabog' kasb-xunar litseyi va Qarshi 2-kasb xunar litseyi rekonstruksiya qilinib kasb-xunar kollejlari aylantirildi. 1998-1999 o'quv yilida 452 nafar o'g'il-qiz qabul qilinib yangi o'quv reja va dastur asosida o'quv boshlandi.

Qarshi shahridagi 5-kasb-xunar maktabi o'quv moddiy-texnika bazasi rekonstruksiya qilinib akademik litsey tashkil kilindi. Akademik litseyda 200 nafar ug'il-kiz qabul qilinib o'quv boshlandi. 1999 yilda 7 ta, Koson sanoat, Qarshi iqtisodiyot, madaniyat, qurilish, Qamashi pedagogika, qishloq xo'jalik, Chiroqchi qishlok xo'jalik kasb-xunar kollejlari tashkil qilindi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki viloyatida 1998-2001 yillarda jami 18493\851 o'rinli 23 ta o'quv yurti shundan 2ta 975\500 o'rinli akademik litsey va 21ta 17520\351 urinli kasb hunar kollejlari uchun jami 18mld 926 mln 176so'mlik ajratilgan bo'lib shundan 16mld 288mln 555 ming 934 so'mlik qurilish montaj ishlari amalga oshirilgan.

O'rganilayotgan davrda Akademik litsey, kasb-hunar kollejlarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish hamda mablag' bilan ta'minlash uchun barcha shart-

sharoitlar yaratib berilgan bo'lsada 5 oylik natijalar tahlil qilinganda ayrim kamchiliklar mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. Masalan 5 oy ichida Qashqadaryo viloyatida 190270 ming so'mlik kapital mablag' o'zlashtirilgan. Jumladan Qamashi agrobiznes kollejda 15088 ming so'mlik yoki umumiy hajmga nisbatdan 19 foiz Chiroqchi KXL da 25042 ming so'mlik yoki 20 foizni Qamashi KXLda 30000 ming so'mlik yoki 13 foizni Qarshi 1-KXLda 32545ming so'mlik yoki 29 foiz Qarshi Madaniyat kollejda 32530ming so'mlik yoki 22 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

Dalilardan ko'rinib turibdiki viloyatda rekonstruksiya ishlari bor-yo'g'i 20 foizni tashkil qilgan. Natijada kasb-hunar kollejlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar ishlab chiqish zarurati to'g'ilgan.

2002 yilga kelib tashkil etilgan kasb hunar kollejlari zamonoviy texnika va o'quv laboratoriya jihozlari bilan jihozlash uchun Markaz bilan 1mld 104 mln 435 ming so'mlik shartnoma tuzilgan yil davomida 545 mln 108 ming 5888 so'mlik jixozlar shundan ximiya va fizika o'quv xonalariga har xil laboratoriya jihozlari jami 70 komplekt KEX va KEF pas kuchlanishli elektor shitlari, 6ta kasb- hunar kollejlari zamonaviy kompyutir o'quv sinfi, 2 ta kollej ustaxonasi uchun 36 komplekt durodgorlik verstack, o'quv xonalar uchun 50 dana kadaskop 28 dona murili pechlari, qishloq xo'jalik texnikalaridan 4 ta pretsep 4ta traktor hamda 2ta "Otayo'l" yuk avtomashinasi va 1ta "DAMAS" ruso'mli yengil avtomashinalar o'quv amaliyotida foydalanish uchun ajratilganligi aniqlandi Tadqiqot natijasida 2003 yilda Qashqadaryo viloyatida milliy dasturning uzliksiz bo'lagi bo'lgan kasb hunar ta'lim muassasalarining qurilishi tahlil qilinganda shunga duch keldiki 2003 yilda viloyatda jami 10200 o'quvchi o'rniga muljallangan 20 ta kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni foydalanishga topshirish rejalashtirilgan bo'lib, ulardan 12 ta ya'ni 8000 o'rinli kasb hunar ta'lim muassasalari tashkil etilgan. Bulardan 1ta 900 o'rinli yangi qurilish hisobidan 11ta 7100 o'rinli kasb hunar kolleji rekonstruksiya hisobidandir. 2003 yil uchun tasdiqlangan davlat byudjeti parametirlariga muvofiq markazlashtirilgan mablag'lar xisobidan viloyat xokimligi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi o'quv muassasalarga yetkazib beriladigan o'quv laboratoriya uskunalari, texnik vositalar va o'quv ko'rgazmali qurollar uchun ajratilgan mablag'lar tahlil qilinganda 9 oy moboynda 849,7 mln so'm mablag' moliyalashtirilgan bo'lsa, xaqiqatda 420 mln so'm ya'ni 49 foiz uskuna va jixozlar joylarga yetkazib berilgan.

2005 yilga kelib viloyatdagi 59 ta kasb hunar va akademik litseydan 9 tasiga harid qilingan jihozlardan biron dona xam berilmagan, ularning evaziga ayrim ta'lim muassasalariga katta miqtordagi jihozlar ajratilgan misol uchun Qarshi shahridagi qishloq xo'jalik kollejiga 55140,6ming so'mlik jihoz berilgan, bu esa jami harid qilingan jihozlarning 12 foizni tashkil etadi Shungdek Qarshi tumanidagi Qovchin qishloq xo'jalik kollejiga 41259,2 ming so'mlik 9 foiz Kitob tumanidagi maiyshiy xizmat ko'rsatish kollejiga 33171,6mig so'mlik 7.2 foiz va shu tumandagi qishloq xo'jalik kollejiga berilgan jihozlar xajmi viloyatning 35 foizni tashkil etilganligi ma'lum bo'ldi respublikada tashkil etilayotgan ta'lim muassasalarini jahon andozalari darajasida jihozlashga jiddiy e'tibor qaratilayotgan bir paytda markaz tasarrufidagi

ta'lim muassasalari jihoz uchun ajratilishi rejalashtirilgan mablag'lar nazoratga olmaganligini ko'rish mumkin.

Shunday bo'lsada o'rta maxsus talimini moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ham e'tibor kuchaytirildi. Ta'lim muassasalarini o'quv-laboratoriya jihozlari va texnikalari bilan ta'minlash uchun 2005 yilda mahalliy byudjetdan 16,6 mlrd. so'm, respublika byudjetidan 1,88 mlrd. so'm mablag' ajratilishi rejalashtirildi. 2005 yil 27 dekabr xolatiga akademik litsey va kasb-hunar kollejlari zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari va texnikalar bilan ta'minlash uchun maxalliy byudjetdan 14,5 mlrd. so'm (87%) mablag' ajratildi. 2005 yilda mahalliy byudjetdan rejalashtirilgan mablag'lar 900,0 mln. so'mga qisqartirilgan. Respublika byudjetidan rejadagi 1,88 mlrd. so'm o'rniga haqiqatda 1,35 mlrd. so'm (72%) mablag' moliyalashtirildi, bu ko'rsatkich 2004 yilda rejadagi 5,2 mlrd. So'm o'rniga 4,5 mlrd. so'mni (87%) tashkil etgan. Ushbu mablag'lar hisobiga ta'lim muassasalariga 15,6 mlrd. so'mlik o'quv-laboratoriya jihozlari, asbob-uskunalar, texnikalar, ko'rgazmali qurollar va kompyuter texnikalari yetkazib berildi. 2005 yilning 25 dekabr holatiga 959ta ta'lim muassasasi 23 mingta kompyuterlar bilan ta'minlangan. Kompyuterlar bilan ta'minlanganlik darajasi 100 o'quvchi o'rniga nisbatan akademik litseylarda 9,5ta, kasb-hunar kollejlari 7,6 ta rejalashtirilgan. Amalda bu ko'rsatkich mos ravishda 4,6 va 3,6tani tashkil etadi. Ta'lim muassasalarini kompyuterlar bilan ta'minlanishi talab darajasining 46,9 foizini ko'rsatgan. 2004 yil mahalliy lashtirish dasturiga kirgan jihozlar uchun umumiy qiymati 12,1 mlrd. so'mlik shartnomalar imzolani, korxonalaridan 11,8 mlrd. so'mlik (97%) jihozlar sotib olingan.

2005 yilda o'quv laboratoriya asbob-anjomlari, ta'limning texnik vositalari va o'quv ko'rgazmali qo'llanmalarni ishlab chiqarishni respublika korxonalarida mahalliy lashtirish dasturiga kirgan jihozlarning (89,4%) sotib olingan hamda ta'lim muassasalariga yetkazib berilgan. 2005 yil 5 dekabr holatiga Markazning ta'minotchi korxonalariga bo'lgan debitorlik qarzi 409,4 mln. so'mni, jumladan mahalliy lashtirish dasturi bo'yicha 190,7 mln. so'mni, kreditorlik qarzi 1701,1 mln. so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijasida shu narsaga duch keldik markazdan olingan jihozlar o'rta ta'lim muassasalari o'rtasida teng taqsimlanmagan uning natijasida kadrlar tayyorlash dasturining amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi ayrim holatlar yuzaga kelgan. Bu hol kasb hunar ta'limi bir tekista rivojlanshga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Shuni ta'kidlash kerakki mustaqillikning daslabki yillarda mamlakatimizda yangi tipdagi kasb-hunar ta'lim muassasalarining qo'rilayotgani va ularning har biriga katta miqdordagi mablag'larning sarflanishi, ikkinchidan respublika hamda mahalliy byudjet mablag'lari ajratilishi bilan chegaralanib qolmay, davlat tomonidan kafolatlangan eng nufuzli chet el grantlari yoki imtiyozli kreditlar asosida qishloq xo'jaligi, qurilish, mayshiy xizmat, sanoat va axborot texnologiyalari sohasidagi ta'lim muassasalarining zamonaviy uskunalar va mini texnologik liniyalar bilan jihozlanishi tom ma'noda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi sohasida islohotlar davom ettirildi desak bo'ladi.

Xulosalar 1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi tomonidan olib borilgan faoliyatning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini davlat tomonidan takomillashtirish hamda yangi sharoitlarga moslashtirish kasb-hunar

kollejlari va akademik litseylarni zamonaviy talablar asosida jihozlash, dolzarb masala edi. Shu jihatdan ta'lim sohasidagi dastlabki islohotlar, avvalo, qamrovni oshirish, ularning moliyaviy holatini yaxshilash, o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratildi.

2. O'rta maxsus ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning manzilli mezonlarini shakllantirish, o'rta maxsus ta'lim muassasalaridagi mutaxassisliklarni hududlar, sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlarini inobatga olish lozim. Birinchisi o'rta maxsus ta'lim muassasalari ishlab chiqarish bilan xamkorligini kengaytirish uning uzviyligini ta'minlash xuquqiy asoslarini mustaxkamlash bo'lsa, ikkinchisi o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib va talabaning amaliyot utashi uchun muhit yaratishdir.

3. Kollejlarda o'quv ustaxonalarining sohaga oid eng ilg'or vositalar bilan jihozlangani natijasida bitiruvchilarda o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha yetarli bilim va kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniyatining kengayib borgan. Ta'lim tarbiyani jadallashtirishning huquqiy asoslari yaratilgan bo'lsa-da, ta'lim tarbiya jarayonidagi ish uslublarining ayrimlari hamon eskiligicha qolib ketmoqda edi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

[1]. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" 1997 yil avgust.

[2]. O'zR VMning 1998 yil 23- sentyabrdagi 406- sonli «1999-2005 yillarda akademik litsey va kasb-xunar kollejlarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish hamda mablag' bilan ta'minlash dasturi to'g'risida»gi qarori.

[3] Matqurbonov Q. Kadrlar tayyorlash milliy modeli dunyo tajribasi va milliy xususiyatlarimizni o'zida mujassam etgan o'ziga xos noyob hodisa. // «Ma'rifat» gazetasi, 2013 yil 6 fevral.

[4]. Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari Milliy dastur. 1997 yil

[5]. Qashqadaryo viloyat hokimligi o'rta mahsus kasb- hunar ta'limi boshqarmasi hayat yig'ilishining 2003 yil 3 aprel 2\7 sonli qarori.

[6].Qashqadaryo viloyat hokimligi o'rta mahsus kasb -hunar ta'limi boshqarmasi hayat yig'ilishining 2003 yil 3 dekabr 10\11 qarori.

UO'K:9.93/94

O'ZBEKISTON SSR VA QORAQALPOG'ISTON ASSRDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TEXNIKA USKUNALARINING AHOLI HAYOTIGA KIRIB KELISHI VA OMMALASHISHI.

Pulatova Guli Islombekovna

Qoraqalpoq davlat universiteti

“O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tarixi” kafedrasida tayanch doktoranti

e-pochta: guliislombekova@gmail.com

Tel:+998937191401

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston miqyosida aholi hayotida bo'lgan maishiy o'zgarishlar, qulay ahot sharoitiga o'tish jarayoni, aholining bunga munosabati ochib beriladi. Shuningdek, aholining maishiy texnika uskunalaridan

foydalanish darajasining qay holatda bo'lgani yilma yil tahlil qilinadi. Bu masala mavzuga doir turli adabiyotlar, manbalar, gazeta-jurnal maqolalari va arxiv hujjatlari asosida ochib beriladi. Shu bilan birga dala tadqiqoti natijalari ham o'rin oladi.

Kalit so'zlar: *Maishiy texnika, savdo, sovutgich, radio uskunalar, televizorlar, kir yuvish mashinalari, changyutgichlar, tikuv mashinalari*

УДК: 9.93/94

ВНЕДРЕНИЕ И ПОПУЛЯРИЗАЦИЯ ТЕХНИЧЕСКОГО ОБОРУДОВАНИЯ В ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКСКОЙ ССР И КАРАКАЛПАКСКОЙ АССР ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА

Пулатову Гули Исломбековну

Каракалпакский государственный университет
докторанту кафедры История Узбекистан и Каракалпакстана
электронная почта: guliislombekova@gmail.com

Тел:+998937191401

Аннотация: . В данной статье раскрываются бытовые изменения в жизни населения Узбекистана и Каракалпакстана во второй половине XX века, процесс перехода к благоприятным условиям жизни, отношение населения к этому. Также ежегодно анализируется состояние использования населением бытовой техники. Этот вопрос раскрывается на основе различной литературы, источников, газетно-журнальных статей и архивных документов по данной теме. Вместе с тем, имеются и результаты полевых исследований.

Ключевые слова: *Бытовая техника, торговля, холодильники, радиооборудование, телевизоры, стиральные машины, пылесосы, швейные машины*

UDC: 9.93/94

THE INTRODUCTION AND POPULARIZATION OF TECHNICAL EQUIPMENT INTO THE LIFE OF THE POPULATION IN THE UZBEK SSR AND KARAKALPAK ASSR IN THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY.

Pulatova Guli Islambekovna

Karakalpak State University
basic doctoral student of the Department of
"History of Uzbekistan and Karakalpakstan"
email: guliislombekova@gmail.com

Tel:+998937191401

Abstract: *This article reveals the domestic changes in the life of the population of Uzbekistan and Karakalpakstan in the second half of the 20th century, the process of transition to favorable living conditions, and the population's attitude towards this. Also, the level of use of household appliances by the population is analyzed annually. This issue is revealed on the basis of various literature, sources, newspaper and magazine articles, and archival documents on the topic. At the same time, the results of field research are also included.*

Keywords: *Household appliances, retail, refrigerators, radio equipment, televisions, washing machines, vacuum cleaners, sewing machines*

Bugungi XXI asr texnologiyalar asri ekani kundek ravshan. Shundan ayta olamizki, hozirgi zamonaviy dunyomizda har bir xonadonni texnika uskunalarisiz

tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa oxirgi 15 yil ichida bu jarayon respublikamizning deyarli barcha hududlarida jadallik bilan o'sib bormoqda. Fan-texnika yutuqlari bizning hayotimizda kun sayin qulayliklar yaratib borayotgani barchamizga ma'lum. Aslida bu fan-texnika taraqqiyoti qaysi davrda yuzaga keldiyu, qaysi davrda bu qadar rivojlanishga erisha oldi?

Fan-texnika taraqqiyoti – fan bilan texnikaning o'zaro bog'liq, yagona, oldinlab boruvchi taraqqiyoti; ijtimoiy taraqqiyot negizidir. Dastlab fan rivoji bilan texnika taraqqiyoti o'rtasidagi yaqinlashuv XVI–XVIII asrlarda manufaktura ishlab chiqarishi bilan bog'liq holda amalga oshdi. Bu davrgacha moddiy ishlab chiqarish empirik tajribalar, hunarmandchilik asosida shakllangan. XX asrning o'rtalariga kelib fanning ijtimoiy hayotdagi roli mislsiz darajada oshdi. Fanlar taraqqiyotidagi inqiloblarning xarakteri o'zgardi, ya'ni ilm sohasidagi tub o'zgarishlar texnika sohasidagi axborotlar bilan uyg'unlashib ketdi va ilmiy-texnika inqilobi yuzaga keldi, shuningdek ijtimoiy fanlar yo'nalishlari, iqtisod va ishlab chiqarishni tashkil qilish, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarish, aniq ijtimoiy tadqiqotlar kabilarga sezilarli ta'sir qiladi. Fanning texnikaga nisbatan yetakchilik mavqei yanada yorqin namoyon bo'ladi, fan texnikani uzluksiz o'zgartiruvchi kuchga aylanadi. O'z navbatida, texnika ham fan taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning oldiga yangi talab va vazifalar qo'yadi. Hozirgi zamon fan texnika inqilobining xarakterli xususiyati uning sanoat bilan birga ijtimoiy hayotning turli sohalari: qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, tibbiyot, ta'lim, maishiy xizmat kabilarni qamrab olganligidadir.

Maishiy xizmat uchun foydalanadigan texnika vositalari bular ishlab chiqarishda qatnashmaydigan texnikalar sirasiga kiradi. Maishiy texnika asosan uy xo'jaliklarida va shunga o'xshash joylarda ishlatiladigan turli xil elektr va elektron jihozlariga tegishlidir. Maishiy texnika yoki kundalik texnika sifatida ham tanilgan. Maishiy texnika odamlarni og'ir, zerikarli va ko'p vaqt talab qiladigan uy yumushlaridan ozod qiladi, insoniyat uchun jismoniy va ruhiy salomatlik uchun yanada qulayroq va chiroyli yashash va ishlash muhitini yaratadi. Ayniqsa, bugungi kunda ular boy va rang-barang madaniy-ko'ngilochar sharoitlarni ta'minlab, zamonaviy oilaviy hayotning zaruriyatiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil 30-dekabrda mamlakatimizning yetakchi ilm-fan vakillari bilan uchrashuvidagi nutqida mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishi ilm-fansiz tasavvur qilib bo'lmaydi, ilm-fan rivojlanishida fundamental tadqiqotlar katta ahamiyatga ega, ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi va nazariyalar yuzaga keladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi, shuningdek, ilm, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada yuksaltirish ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tgan edi [1]. Madaniy meroslarni tadqiq qilish orqali xalqimizning milliy o'ziga xosligini tiklash bilan birga haqiqiy xalqning tarixini yozish uchun ilmiy ma'lumotlar topamiz. Shu o'rinda biza ham aholi hayotidagi bu kabi o'zgarishlarning sodir bo'lish jarayoni, uning natijalari, o'z davri uchun ahamiyatimi o'rganishni maqsad qildik.

Sovet hukumati davrida aholining kundalik hayotidagi moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida, partiya va hukumat tomonidan bir qator chora

tadbirlar belgilanib, uning natijasida barcha ittifoqdosh respublikalarda maishiy xizmat sohasini rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Jumladan, sohani texnik ta'minlangan va mexanizatsiyalashgan yirik tarmoqqa aylantirish davlat siyosatining muhim vazifalardan biri etib belgilandi [2].

Maishiy xizmatlar uchun xizmat qiladigan texnikalar esa, dunyo miqyosida XX asrning boshlaridan ommalasha boshlagan bo'lsa, bu jarayon o'lkamiz hududida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadallasha boshladi.

SSSR miqyosida maishiy texnika uskunalarning sotilish ko'rsatkichi nisbatan ko'payib borgan. Quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, SSSR tashkil topgan dastlabki yillarda respublikada maishiy texnika uskunalari sotuvi mavjud bo'lmagan, xatto 1950-yillarning oxirigacha sust bo'lganligi qayd etilgan. Faqatgina 50-yillarning oxiriga kelibgina bu sohada nisbatan o'sish ko'rsatkichlari namoyon bo'ladi. Quyidagi jadvalda bu ko'zga yaqqol tashlanadi [8]:

№	Mahsulot turi	1928-yil	1940-yil	1945-yil	1958-yil	1965-yil
1.	Radiopriyomniklar (ming dona)	-	160,5	13,9	3902	5159
2.	Televizorlar (ming dona)	-	0,3	-	979	3655
3.	Muzlatgichlar (ming dona)	-	3,5	0,3	360	1675

Bu orada aytishimiz joizki, XX asrning 60-yillaridan maishiy texnika sotuvi ancha oshgan. 1961-1965 yillar oralig'ida muzlatgichlar 4,7 mln. dona, kir yuvish mashinalari 10,9 mln. dona, radiopriyomniklar 21,5 mln.dona, televizorlar 12,0 mln.dona, mebel 8,0 mlrd.so'mlik sotilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1966-1970-yillarda ancha o'sgan. Ya'ni muzlatgichlar 18,5 mln.dona, kir yuvish mashinalari 19,0 mln.dona, radiopriyomniklar 30,0 mln.dona, televizorlar 27,0 mln.dona, mebel 11,6 mlrd.so'mlik sotilgan. Bundan ko'rinadiki aholi orasida maishiy texnikadan foydalanish deyarli ikki barobarga yaqin ortgani ma'lum bo'ladi [7, 4-b].

O'zbekiston SSR miqyosida ham elektr jihozlarning sotuvi ortib borganini quyidagi raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

Aholiga sotish uchun davlat va kooperativ savdoga yuborilgan madaniy va maishiy foydalanish tovarlari [4]
(ming dona)

№	Mahsulot nomi	1960	11965	1966	11967	1968	1969
1.	Barcha turdagi soatlar	499,0	591,4	707,8	774,7	902,7	1012,2
2.	Tikuv mashinalari	94,4	68,5	72,9	73,3	75,4	79,3
3.	Radio uskunalari	173,9	197,3	193,8	231,0	252,4	258,2
4.	Televizorlar	60,1	88,9	116,2	149,6	201,8	210,9

5.	Muzlatgichlar	22,6	61,1	77,5	105,8	111,0	135,1
6.	Kir yuvish mashinalari	26,7	82,5	83,6	85,6	116,4	124,0
7.	Changyutgichlar	3,9	6,3	9,0	13,3	16,2	20,0
8.	Fotoapparatlar	20,1	22,1	21,9	30,0	33,6	32,1

Qoraqalpog'iston ASSRda ham muzlatgich, televizor va radiopriyomniklar sotuvi 1965-yilda 1964-yilga qaraganda 2 barobar ko'paygan [6, 3-b]. Shu o'rinda, dala tadqiqoti asosida to'plangan materiallarda suhbat olib borilgan 1987-yildan Xo'jayli shahridagi "Голубой экран" texnika ta'mirlash ustaxonasida ishlagan Jumaniyozov Jumanazar otaning eslashicha, uning uyida televizor 1965-yilda paydo bo'lgani va mahalla miqyosida faqat ularning uyida mavjud bo'lgani, mahalla ahli television dasturlarni tomosha qilish uchun ularning uyiga yig'ilganini aytib o'tdi. Sovutgichning xonadonda paydo bo'lishi 1970-yillarga to'g'ri kelishi haqida ham to'xtalib o'tdi [5]. Bu faktlar shuni ko'rsatadiki, qishloq joylarida aholi orasida bu kabi texnikalarning tarqalishi 1980-yillardan keyin sodir bo'lgan. Undan oldingi davrda esa bunday texnikalar faqatgina sanoqli xonadonlarda bo'lgan.

Nukus shahrida "Moviy ekran" texnik xizmat ko'rsatish shaxobchasida 1980-yilda 9 xil markadagi televizorlar, "Техсложбытприбор" xizmat ko'rsatish muassasasida esa muzlatgichlarni ta'minlash bo'yicha 1600 ta murojat kelib tushgani ma'lumotlarini inobatga olsak, bu davrda hududda texnika uskunalari aholi xonadonlarida anchayin ommalashganini ko'rishimiz mumkin.

Qoraqalpog'iston ASSR miqyosida 1980-1985-yillar orasida telestudiyalar va ustaxonalar tarmog'i orqali 186 ming dona turli markadagi hamda to'liq komplektidagi radio-televideniye uskunalari ta'mirlangan. Bu raqamlar hududdagi aholi orasida radio va televizor apparatlarining qanchalik ommalashganini ko'rsatadi [6].

Hududda 1950-yillardan boshlab elektr energiyasining keng tatbiqi, uy-joy qurilishi dasturlarining amalga oshirilishi hamda sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi aholining maishiy ehtiyojlarini qondirish yo'lida muhim omil bo'ldi.

1960-yillardan e'tiboran Qoraqalpog'iston bozorlariga SSSRning turli viloyatlarida ishlab chiqarilgan texnika vositalari kirib kela boshladi. "Riga", "Minsk", "Volna", "Donbass", "Elektronika" singari markali sovutkichlar, televizorlar, radioqabul qilgichlar va kir yuvish mashinalari aholining kundalik hayotida qo'llanila boshlandi. 1960-yillarga kelib, xalq orasida yangi texnika uskunalari aholi uylarida keng paydo bo'la boshladi. Xalqqa ustki va oyoq kiyimlar, muzlatgichlar, kir yuvish mashinalari, radiopriyomniklar, televizorlar va yana boshqa shu kabi buyumlar sotish ko'paytirildi. Xalqqa bu kabi iste'mol buyumlari sotish 1965-yilda 1963-yilga qaraganda 30 million manat ortiq bo'ldi. Ularning savdo aylanishi 1,48 marta o'sdi. 1965-yilda sotuv aylanishi 1958-yilga qaraganda 57,6 million manatga ko'paydi. Respublikada savdoning yaxshilanishi uchun 1964-yil aprel oyida Qoraqalpog'iston ASSR Savdo Ministrligi, Nukus va Xo'jaylida shahar savdo bo'limlari tashkillashtirildi [3].

Umuman olganda Qoraqalpog‘iston ASSRda maishiy texnikaning ommalashish jarayoni bosqichma-bosqich kechgan bo‘lib, uni quyidagi yo‘nalishlarda kuzatish mumkin:

1. Elektrlashtirish bosqichi (1950–1965-yillar): shahar va yirik aholi punktlarida elektr tarmoqlarining kengaytirilishi elektr choynak, temir, pishirish plitalari kabi oddiy maishiy qurilmalarning qo‘llanilishiga imkon berdi.

2. Axborot-madaniy taraqqiyot bosqichi (1965–1975-yillar): televizor va radiopriyomniklarning tarqalishi bilan axborot olish va madaniy hordiq jarayoni yangi bosqichga ko‘tarildi. Nukus shahrida telemarkaz faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi butun respublika miqyosida ommaviy axborot vositalarining rivojiga turtki berdi.

3. Komfortlashuv bosqichi (1975–1985-yillar): sovutkich, kir yuvish mashinasi va changyutkichlarning keng qo‘llanilishi ayollar mehnatini yengillashtirdi, maishiy xizmatlar sifati oshdi.

Xulosa tarzida aytishimiz joizki, maishiy texnikaning ommalashishi yuqorida ko‘rganimizdek, asoson 1960-yillardan keyin sodir bo‘lgan. Shunday bo‘lsada, bu yillarda dastlab shahar hududlarida aholi orasida maishiy texnika ommalashgan, qishloq joylardagi ommalashuv esa biroz keyin sodir bo‘lgan ya‘niki, 1980-yillarga kelib qishloq joylarda ham texnikalar paydo bo‘la boshlagan. Bu kabi texnikalarning aholi orasida kengayuvining tabiiyki ijtimoiy omillari mavjuddir. Bu omillarning yuzaga kelishi texnikaning ommalashuvini ta‘minlaydi aslida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “Ilm-fan yutuqlari taraqqiyotning muhim omili”. “Xalq so‘zi” gazetasi 31-dekabr 2016-yil №259 (6694)

2. Умаров А.Х. Анализ и рациональная организация структуры службы быта. Ташкент, 1969. -Б. 3.

3. Q.Allambegenov “Qaraqalpaqstan XX asırda: iqtisadiyat hám ijtimagıy ózgerisler” – Nukus: Bilim, 2007. – 198 b.

4. “Народного хозяйство Узбекской ССР в 1969 году” Ташкент. Узбекистан. – 1970. 232 л.

5. Xo‘jayli shahri Bayterek mahallasi Zulfiya ko‘chasi 42-uyda yashovchi 1962-yilda tug‘ilgan fuqaro

6. Qoraqalpog‘iston Markaziy arxivi. 551-fond, 2-ro‘yxat, 5905-hujjat, 36-varaq

7. “Sovet Qoraqalpog‘istoni” gazetasi. 06.04.1966. №68. 1-4 varaq

8. “Sovet Qoraqalpog‘istoni” gazetasi. 11.02.1966. №29. 3-varaq.

PSIXOLOG TALABALARDA KASBIY REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Shukurova Nargiza

Qarshi xalqaro universiteti "Ijtimoiy
gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0007-9930-0060>

e-mail: profil.uz4444@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada psixolog talabalarida kasbiy refleksiyaning rivojlantirish jarayonining psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Refleksiya kasbiy o'sish va shaxsiy rivojlanishning muhim omili sifatida talabalarda o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini shakllantiradi. Maqolada reflektiv tafakkurning rivojlanish bosqichlari, emotsional-intellektual jarayonlarning o'zaro aloqasi hamda ta'lim muhitida refleksiyaning qo'llab-quvvatlashning samarali usullari ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** kasbiy refleksiya, psixolog talabalar, o'zini anglash, reflektiv tafakkur, shaxsiy o'sish, metakognitiv jarayonlar.*

ПРОБЛЕМЫ КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТИ И ЭТИКИ В ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УСЛУГАХ ДЛЯ ПОДРОСТКОВ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Шукурова Наргиза

Преподаватель кафедры «Социально-гуманитарные науки»

Каршинский международный университет

<https://orcid.org/0009-0007-9930-0060>

Эл. почта: profil.uz4444@gmail.com

***Аннотация:** В статье рассматриваются психологические механизмы развития профессиональной рефлексии у студентов-психологов. Рефлексия выступает важным фактором профессионального становления личности, способствуя формированию навыков анализа, самооценки и адаптации к профессиональным изменениям. Особое внимание уделяется этапам развития рефлексивного мышления, взаимодействию эмоциональных и когнитивных процессов, а также эффективным педагогическим условиям поддержки рефлексии в образовательной среде.*

***Ключевые слова:** профессиональная рефлексия, студенты-психологи, самопознание, рефлексивное мышление, личностный рост, метакогнитивные процессы.*

PRIVACY AND ETHICAL ISSUES IN AI-BASED PSYCHOLOGICAL SERVICES FOR ADOLESCENTS

Shukurova Nargiza

Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences

Karshi International University

<https://orcid.org/0009-0007-9930-0060>

E-mail: gprofil.uz4444@gmail.com

***Abstract:** This article examines the psychological mechanisms underlying the development of professional reflection in psychology students. Reflection is considered a key factor in professional*

and personal growth, enabling students to analyze their activities, evaluate their experiences, and adapt to change. The paper discusses the stages of reflective thinking, the interaction between emotional and cognitive processes, and effective educational conditions that foster reflective competence in future psychologists.

Keywords: *professional reflection, psychology students, self-awareness, reflective thinking, personal growth, metacognitive processes.*

Psixolog talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishi, ularning kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishlari va kasbiy kompetentsiyalarini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Kasbiy refleksiya o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni tan olish va ularni tuzatishga yo'naltirilgan jarayon sifatida psixolog talabani kasbiy o'sishida muhim rol o'ynaydi. Psixologik mexanizmlar – bu talabani kasbiy refleksiyasini rivojlantiruvchi psixologik jarayonlar va omillarni ifodalaydi. Ularning orasida o'zini anglash, hissiy va kognitiv jarayonlar, o'z-o'zini nazorat qilish va ijtimoiy o'rganish kabi mexanizmlar mavjuddir. Ushbu maqolada psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik mexanizmlar va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Kasbiy refleksiya talabani o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va yaxshilash jarayonini anglatadi. Bu jarayon talabani o'zini anglash, o'z faoliyatining muvaffaqiyatlari va kamchiliklarini aniqlash, xatolarni to'g'rilash, hamda o'z kasbiy mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi. Psixolog talaba o'z faoliyatini tahlil qilish va baholashda nafaqat kognitiv, balki hissiy-emotsional jarayonlarga ham tayangan holda qarorlar qabul qiladi. Shuning uchun, kasbiy refleksiya faqat bilimlar va ko'nikmalarni rivojlantirish bilan cheklanmay, talabani shaxsiy, hissiy va emotsional jihatlarini ham qamrab oladi.

O'zini anglash mexanizmi kasbiy refleksiyaning asosiy psixologik mexanizmidir, chunki u talabani o'z faoliyatini, fikrlarini, hissiyotlarini va xatti-harakatlarini tahlil qilish jarayonini tashkil etadi. Psixologiya ta'limida bu mexanizm ayniqsa muhimdir, chunki psixolog talabani o'z kasbiy faoliyatida yuqori darajada reflektiv fikrlashni amalga oshirishlari kerak. O'zini anglash talabani o'z shaxsini tushunishi va o'z salohiyatlarini aniq baholash imkonini yaratadi. Bu jarayon orqali talaba o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, shu bilan birga o'zining kasbiy faoliyatiga nisbatan konstruktiv fikrlashni rivojlantiradi.

Talaba o'zining hissiy holatlarini, fikrlarini va tashvishlarini tushunishi va ularni aniq tahlil qilishi kerak. Bu, ayniqsa, psixologiya sohasida ishlashda muhimdir, chunki psixolog talaba o'z hissiyotlarini va boshqalarning hissiyotlarini empatiya orqali tushunishga qodir bo'lishi zarur. Talaba o'z faoliyatini, qarorlarini va xatti-harakatlarini qayta ko'rib chiqib, ulardagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlaydi. Bu orqali o'ziga nisbatan realistik va ob'ektiv baho berish imkoniyatini yaratadi. Kasbiy refleksiya jarayonida talaba o'z faoliyatini baholashda xatoliklardan o'rganishi va ularni kelajakda tuzatishga harakat qiladi. O'zini anglash mexanizmi talabani o'z shaxsiga nisbatan ob'ektiv baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu, o'z navbatida, talabani kasbiy refleksiyasini kuchaytiradi va uning o'ziga nisbatan ishonchini oshiradi. O'zini baholash jarayonida talaba o'zining muvaffaqiyatlari va kamchiliklarini aniqlash bilan birga, o'zining qobiliyatlariga nisbatan ijobiy qarashlarni rivojlantiradi.

Kasbiy refleksiya talabani o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va rivojlantirish jarayonidir. O'zini anglash mexanizmi bu jarayonning asosiy qismidir, chunki talaba o'z faoliyatini o'zini anglash orqali tahlil qiladi. Talaba o'zining zaif tomonlarini aniqlash va ularni rivojlantirish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqadi. Boshqa tomondan, o'zini anglash talabani o'ziga nisbatan ishonchni oshiradi, chunki u o'zining kuchli tomonlariga tayanib, o'z faoliyatini yanada takomillashtiradi. Shuningdek, o'zini anglash mexanizmi psixolog talabalarga empatiya o'rnatishda, boshqalarni tushunishda va ularning fikrlarini anglashda yordam beradi. Psixologiya ta'limida talaba boshqalarning hissiyotlarini tushunish va ularga ta'sir ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirish zarur, chunki bu psixologik jarayonlarni tahlil qilishda va boshqalarga yordam berishda muhimdir. Psixologiya ta'limida o'zini anglash mexanizmi, ayniqsa, talabani kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish va ularni psixologik jarayonlarni tahlil qilishda muvaffaqiyatga erishishda katta rol o'ynaydi. Talaba o'z faoliyatini baholashda o'zining o'ziga bo'lgan ishonch va motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, o'zini anglash mexanizmi talabani murakkab vaziyatlarda qarorlar qabul qilish, o'zini tahlil qilish va o'z rivojlanishini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

O'zini anglash mexanizmi psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlanishida muhim psixologik mexanizm bo'lib, bu talabani o'z faoliyatini tahlil qilish, o'z xatolarini tan olish va ularni tuzatish orqali kasbiy rivojlanishga erishishga yordam beradi. O'zini anglash jarayoni talabani o'z shaxsini tushunishi, hissiy va kognitiv jarayonlarni tahlil qilish va empatiya o'rnatish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, psixologiya ta'limida o'zini anglash mexanizmini rivojlantirish kasbiy refleksiyaning kuchaytirish va talabalarning kasbiy o'sishiga yordam beradi.

Emotsional intellekt (EQ) psixologik mexanizmlarning yana bir muhim jihati hisoblanadi. Talabani o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish va boshqalarning hissiyotlarini tushunish qobiliyati kasbiy refleksiyaning shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Yuksak emotsional intellektga ega bo'lgan talaba o'zining xatolarini tan olish va ularni to'g'rilashga osonlik bilan kirishadi. Bu jarayon talabani kasbiy faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, emotsional intellekt talabani stressni boshqarish, xatolardan o'rganish va murakkab vaziyatlarda ham o'zini tahlil qilish imkoniyatlarini yaratadi. Kognitiv mexanizm talabani o'z faoliyatini mantiqiy ravishda tahlil qilish, xatolarni aniqlash va qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Kognitiv mexanizm yordamida talaba o'z bilimlarini va ko'nikmalarini qaysi sohalarida takomillashtirish zarurligini aniqlaydi. Shuningdek, bu mexanizm talabani o'zini o'rganish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Kognitiv jarayonlar, masalan, xotira, e'tibor, tasavvur va analitik fikrlash talabani kasbiy refleksiyaning asosiy qismini tashkil etadi.

O'z-o'zini nazorat qilish mexanizmi talabani o'z xatti-harakatlarini boshqarish, o'zini rag'batlantirish va o'z kasbiy faoliyatini boshqarish qobiliyatini anglatadi. Bu mexanizm orqali talaba o'zining kasbiy faoliyatini baholaydi, maqsadlar qo'yadi va ularga erishish uchun zarur choralarni ko'radi. O'z-o'zini nazorat qilish jarayoni talabani o'zini takomillashtirishga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilishga yordam

beradi. Motivatsiya mexanizmi talaba kasbiy refleksiya-rasmiy rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan talaba o'z faoliyatini tahlil qilishga va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga tayyor bo'ladi. Ijtimoiy o'rganish mexanizmi talabaning boshqalardan o'rganish jarayonini anglatadi. Talaba o'zining kasbiy faoliyatini tahlil qilishda va refleksiya qilishda o'qituvchi, guruhdoshlar va psixologiya sohasidagi mutaxassislarining fikr-mulohazalaridan foydalanadi. Ijtimoiy o'rganish jarayoni talaba uchun o'z faoliyatini yaxshilashda yangi yondashuvlar va usullarni kashf etish imkoniyatini yaratadi.

Kasbiy refleksiyaning rivojlanishi uchun psixologik metodlar:

Talabalar o'z faoliyatlarini yozma ravishda tahlil qilish orqali kasbiy refleksiya-rasmiy rivojlantirishi mumkin. Reflektiv jurnal talabalarga o'z xatolarini aniqlash, o'rganish va ularni tuzatish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Simulyatsiyalar va rolli o'yinlar talabalarga real sharoitlarda o'z faoliyatini sinash va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu metodlar talabaning o'z-o'zini anglashini va reflektiv fikrlashni rivojlantiradi.

O'qituvchidan konstruktiv feedback olish talabaning kasbiy refleksiya-rasmiy rivojlantirishda juda muhimdir. O'qituvchi talabaning faoliyatini baholab, xatolarni aniqlash va tuzatish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Psixolog talabalarda kasbiy refleksiya-rasmiy rivojlanishining psixologik mexanizmlari talabaning o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish jarayonlarida asosiy rol o'ynaydi. O'zini anglash, emotsional intellekt, kognitiv mexanizmlar, o'z-o'zini nazorat qilish va motivatsiya, shuningdek, ijtimoiy o'rganish kabi mexanizmlar talabaning kasbiy refleksiya-rasmiy rivojlantirishga yordam beradi. Amaliy yondashuvlar, masalan, reflektiv jurnal yuritish, simulyatsiyalar va konstruktiv feedback, talabalarga o'z faoliyatini samarali tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi. Shuning uchun, psixologiya ta'limida kasbiy refleksiya-rasmiy rivojlantirish uchun psixologik mexanizmlarni tushunish va amaliy metodlarni qo'llash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zhuravleva, T. M. (2017). *Psixologicheskie mekhanizmy professional'nogo samoopredeleniya i refleksii studentov*. *Psixologicheskiy zhurnal*, 38(5), 45-59.

2. Sokolova, O. V. (2018). *Psixologiya professional'nogo razvitiya i refleksii v kontekste obrazovaniya*. Yekaterinburg: Ural'skii universitet.

3. Maksimova, L. P., & Ivanova, A. V. (2019). *Kognitivnye i emotsional'nye aspekty refleksii studentov v protsesse obucheniya*. *Zhurnal psixologii i pedagogiki*, 10(3), 68-75.

4. Petrova, A. M. (2020). *Otsenka i razvitiye kasbiy refleksiya-rasmiy kasbiy ta'lim jarayonida*. *Psixologiya va ta'lim*, 25(4), 102-115.

5. Kuznetsov, D. V. (2021). *Emotsional'nyy intellekt i refleksiya v profesional'nom roste studentov*. *Moskovskiy pedagogicheskiy zhurnal*, 12(2), 88-94.

O'QITUVCHILAR FAOLIYATIDA INTERAKTIV PLATFORMALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Ochilov Oqil Lutfullo o'g'li

Qarshi Xalqaro Universiteti "Iqtisodiyot va muhandislik"
kafedrası assistent o'qituvchisi

E-mail: aqilbekochilov@gmail.com Tel: +998975889618

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0896-5582>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchilar faoliyatida interaktiv platformalardan samarali foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Unda Wordwall, Quizizz, LearningApps kabi raqamli vositalarning o'quv jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, interaktiv texnologiyalar yordamida dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning faolligini kuchaytirish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, Oliy ta'lim, Raqamli ta'lim, Ta'lim platformalari, Pedagogik innovatsiyalar, Raqamli transformatsiya, Ta'lim sifati, Ta'limda axborot texnologiyalar, Interaktiv platformalar, o'qituvchi faoliyati, raqamli texnologiyalar, ta'lim jarayoni, Wordwall, Quizizz, LearningApps, dars samaradorligi, o'quvchi faolligi.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ПЛАТФОРМ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ

Очилов Окил Лутфулло оглы

Ассистент кафедры экономики и инженерии
Каршинского международного университета

Эл. почта: okilbekochilov@gmail.com Тел.: +998975889618

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0896-5582>

Аннотация: В данной статье раскрывается значение эффективного использования интерактивных платформ в профессиональной деятельности учителей. Анализируется влияние таких цифровых инструментов, как Wordwall, Quizizz и LearningApps, на образовательный процесс. Кроме того, приведены практические рекомендации по повышению эффективности уроков, активизации учащихся и развитию цифровых компетенций с помощью интерактивных технологий.

Ключевые слова: Информационные технологии, высшее образование, цифровое образование, образовательные платформы, педагогические инновации, цифровая трансформация, качество образования, информационные технологии в образовании, интерактивные платформы, деятельность учителя, цифровые технологии, образовательный процесс, Wordwall, Quizizz, LearningApps, эффективность урока, активность учащихся

EFFECTIVE USE OF INTERACTIVE PLATFORMS IN TEACHERS' PROFESSIONAL ACTIVITIES

Ochilov Okil Lutfullo ogly

Rector, Karshi International University Associate Professor,
Department of Economics and Engineering

Email: p.ulugbek@mail.ru, Phone: +998 90 426 83 93

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-2385-771X>

Abstract: This article highlights the importance of effectively using interactive platforms in teachers' professional activities. It analyzes the impact of digital tools such as Wordwall, Quizizz, and LearningApps on the educational process. In addition, the article provides practical recommendations for increasing lesson effectiveness, enhancing student engagement, and developing digital competencies through interactive technologies.

Keywords: Information technologies, higher education, digital education, educational platforms, pedagogical innovations, digital transformation, quality of education, information technologies in education, interactive platforms, teachers' activities, digital technologies, educational process, Wordwall, Quizizz, LearningApps, lesson effectiveness, student engagement.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi o'qituvchi faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda dars jarayonini faqat an'anaviy usullar asosida tashkil etish o'quvchilarning qiziqishini to'liq qondira olmaydi. Shu sababli o'qituvchilar interaktiv platformalardan foydalanib, darslarni qiziqarli, samarali va individual yondashuv asosida olib borish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

Interaktiv vositalar yordamida o'quvchi o'z bilimini mustaqil tekshiradi, muammoli vaziyatlarni hal etadi hamda darsda faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Bunday yondashuv ta'lim sifatini oshirish, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, talaba-yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish, ularni zamonaviy axborot muhitida erkin harakatlana oladigan, mustaqil bilim oladigan va kreativ fikrlay oladigan mutaxassis sifatida tayyorlash – bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Shu boisdan, axborot texnologiyalarining oliy ta'limdagi o'rnini chuqur o'rganish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish va ushbu jarayonni tizimli tarzda rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

1. Interaktiv platformalarning o'qituvchilar faoliyatidagi o'rni

Interaktiv platformalar — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni kuchaytiruvchi, dars jarayonini raqamli shaklda tashkil etishga imkon beruvchi dasturiy vositalardir. Ular o'qituvchining darsni rejalashtirish, topshiriqlarni yaratish, natijalarni kuzatish va tahlil qilish ishlarini osonlashtiradi.

Misol uchun, Wordwall yordamida test, moslashtirish, “to'ldirish”, “aylanma o'yinlar” kabi mashg'ulotlar tayyorlash mumkin. Quizizz esa interaktiv viktorinalar va onlayn testlarni real vaqt rejimida o'tkazish imkonini beradi. LearningApps esa dars mavzusiga mos interaktiv o'yinlar, krossvordlar va mashqlarni yaratishga xizmat qiladi.

2. Interaktiv platformalarning afzalliklari

Dars jarayonida o'quvchilar e'tiborini faol saqlaydi;

O'qituvchining vaqtini tejaydi va baholashni avtomatlashtiradi;

Darsni vizual va amaliy jihatdan boyitadi;

O'quvchilarning mustaqil ishlash va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;

Ta'lim jarayonini raqamli muhitga moslashtiradi.

3. Samarali foydalanish yo'llari

Interaktiv platformalardan samarali foydalanish uchun o'qituvchi:

Darsning maqsadiga mos platformani tanlashi;

O'quvchilarning yosh va tayyorgarlik darajasini inobatga olishi;

Dars oldidan texnik tayyorgarlikni ta'minlashi;

O'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiruvchi topshiriqlar ishlab chiqishi kerak.

Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Wordwallning "matching" yoki "find the pairs" o'yinlari foydali bo'lsa, yuqori sinf yoki talabalarga Quizizz yordamida raqamli testlar va musobaqalar tashkil etish darsni yanada jonlantiradi.

4. Pedagogik natijalar

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv platformalardan foydalanish:

o'quvchilarning darsga qiziqishini 40–50% gacha oshiradi;

o'zlashtirish darajasini yaxshilaydi;

o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshiradi;

ta'lim jarayonida teskari aloqa (feedback) tizimini mustahkamlaydi.

Wordwall platformasining o'qituvchilar faoliyatidagi o'rni

Wordwall.net — bu o'qituvchilar uchun eng qulay interaktiv platformalardan biridir. Uning yordamida o'qituvchi turli o'yin shaklidagi mashg'ulotlarni yaratadi: test, moslashtirish, to'ldirish, "to'g'ri javobni toping", "so'z juftini toping", "aylanma o'yin", "labirint" va boshqalar.

Wordwall'ning asosiy afzalliklari quyidagilar:

Tezkorlik: bir necha daqiqada interaktiv mashq yaratish mumkin;

Universallik: turli fan va mavzularga moslashtirish oson;

O'quvchini jalb etish: o'yin elementi orqali o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi;

Natijani kuzatish: tizim avtomatik tarzda natijalarni qayd etadi.

Masalan, ingliz tili darslarida so'z boyligini oshirish uchun "Matching pairs", tarix yoki geografiya darslarida esa "Quiz" formatidagi o'yinlardan foydalanish mumkin. Shu yo'l bilan o'quvchi nafaqat mavzuni takrorlaydi, balki interaktiv tarzda mustahkamlaydi. Interaktiv platformalar — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni kuchaytiruvchi, dars jarayonini raqamli shaklda tashkil etishga imkon beruvchi dasturiy vositalardir. Ular o'qituvchining darsni rejalashtirish, topshiriqlarni yaratish, natijalarni kuzatish va tahlil qilish ishlarini osonlashtiradi.

Misol uchun, Wordwall yordamida test, moslashtirish, "to'ldirish", "aylanma o'yinlar" kabi mashg'ulotlar tayyorlash mumkin. Quizizz esa interaktiv viktorinalar va onlayn testlarni real vaqt rejimida o'tkazish imkonini beradi. LearningApps esa dars mavzusiga mos interaktiv o'yinlar, krossvordlar va mashqlarni yaratishga xizmat qiladi

Quizizz.com — bu raqamli testlar, onlayn so'rovnomalar va musobaqalar o'tkazishga mo'ljallangan interaktiv platforma.

Uning asosiy imkoniyatlari:

Real vaqt rejimida o'tkazish: o'quvchilar bir vaqtning o'zida testda ishtirok etadi;

Gamifikatsiya (o'yinlashtirish): har bir savoldan so'ng ball va reytinglar ko'rinadi, bu esa o'quvchilarni raqobatga undaydi;

Statistika: tizim avtomatik ravishda har bir ishtirokchining natijasini tahlil qiladi;

Uzluksiz aloqa: o'qituvchi testni onlayn yoki uyga vazifa sifatida yuborishi mumkin.

Quizizz o'qituvchilarga darsni qiziqarli, interaktiv va raqamli muhitda o'tkazish imkonini beradi. Ayniqsa, oraliq nazoratlar, mustahkamlash darslari va baholash jarayonida juda qulay vositadir

Xulosa va takliflar. O'qituvchilar faoliyatida interaktiv platformalardan samarali foydalanish ta'lim jarayonini zamonaviylashtirishning muhim omillaridan biridir. Ular yordamida darslar nafaqat samarali, balki o'quvchilar uchun qiziqarli va motivatsion bo'ladi. Har bir o'qituvchi o'z faniga mos interaktiv vositalarni tanlab, ularni ijodiy qo'llasa, bu nafaqat o'quvchilarning bilimini oshiradi, balki o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini ham rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tursunov S., Nazarov I. Ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2019.
2. Hamdamov R. va boshqalar. Ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Faylasuflar jamiyati, 2010.
3. Yusupov M.A. Axborot texnologiyalari va tizimlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Aripov M., Fayziyeva M. Web texnologiyalar (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Faylasuflar jamiyati, 2013.
5. UNESCO Institute for Information Technologies in Education (IITE). ICT in Education: A critical literature review and its implications. – Moscow, 2021.
6. Anderson, T., & Elloumi, F. (Eds.). Theory and Practice of Online Learning. – Athabasca University, 2008.
7. Guri-Rosenblit, S. Distance Education in the Digital Age: Common Misconceptions and Challenging Tasks. – Journal of Distance Education, 2009.
8. OECD. Education and Digitalisation: OECD Digital Education Outlook 2021. – Paris: OECD Publishing.
9. Mishra, S., & Panda, S. Development and Access to Online Educational Resources. – Commonwealth of Learning, 2017.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-oktabrdagi PQ-4884-son qarori: 2020–2023-yillarda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish konsepsiyasi.

IT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA PEDAGOG KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Xudoyqulov Jamshid Xolmatovich

Qarshi Xalqaro Universiteti
e-pochta: jamshidd-0890@mail.ru

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda IT texnologiyalarining roli, zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar darslarni interaktiv va samarali qilish, o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va o'quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilash masalasi ko'zda tutilgan.*

***Kalit so'zlar:** Onlayn ta'lim platformalari, elektron darsliklar va raqamli resurslar, interaktiv ta'lim vositalari, virtual va kengaytirilgan reallik, sun'iy intellekt va adaptiv o'qitish tizimlari*

**МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ПЕДАГОГОВ С ПОМОЩЬЮ
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ****Худойкулов Джамшид Холматович**

Каршинский международный университет

e-mail: jamshidd-0890@mail.ru

***Аннотация:** В данной статье рассматривается роль ИТ-технологий в повышении профессиональной компетентности педагогов, а также вопросы использования цифровых технологий в современном образовательном процессе для создания интерактивных и эффективных уроков, повышения квалификации преподавателей и улучшения процесса обучения учащихся.*

***Ключевые слова:** Онлайн образовательные платформы, электронные учебники и цифровые ресурсы, интерактивные учебные пособия, виртуальная и дополненная реальность, искусственный интеллект и адаптивные системы обучения.*

**METHODS OF DEVELOPING TEACHER COMPETENCES WITH THE
HELP OF IT TECHNOLOGIES****Khudoykulov Jamshid Kholmatovich**

Karshi International University

e-mail: jamshidd-0890@mail.ru

***Abstract:** This article examines the role of IT technologies in enhancing teachers' professional competence, as well as the use of digital technologies in modern education to make lessons more interactive and effective, improve teachers' qualifications, and enhance students' learning processes.*

***Keywords:** Online education platforms, electronic textbooks and digital resources, interactive learning tools, virtual and augmented reality, artificial intelligence and adaptive learning systems*

Pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda IT texnologiyalarining roli juda muhim. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar darslarni interaktiv va samarali qilish, o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va o'quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilash uchun qo'llaniladi.

Hozirda ko'plab onlayn kurslar va platformalar pedagoglarga o'z bilimlarini oshirish imkonini beradi. Ushbu platformalar orqali o'qituvchilar zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion yondashuvlar va yangi texnologiyalar bo'yicha bilim olishi mumkin. Mashhur onlayn platformalarning nomlarini quyida misol keltirishimiz mumkin.

Mashhur onlayn platformalar:

- Moodle – universitet va maktablar uchun masofaviy ta'lim platformasi
- Coursera, EdX, Udemy – dunyoning yetakchi universitetlaridan kurslar
- Khan Academy – bepul ta'lim resurslari
- Google Classroom – darslarni tashkil qilish va boshqarish vositasi
- Zoom, Microsoft Teams – masofaviy darslar o'tish uchun videoaloqa tizimlari

Bu onlayn platformalar faoliyati natijasida quyidagi afzalliklarga ega bo'lish ko'zda tutilgan:

Masofadan turib o'qituvchilarning malakasini oshirish imkoniyati

Dunyoning istalgan joyidan ta'lim olish

Kurslarni istalgan vaqtda ko'rish va qayta o'rganish

An'anaviy darsliklardan tashqari, elektron kitoblar, PDF darsliklar, onlayn kutubxonalar pedagoglarning kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'limda elektron resurslar, xususan elektron kitoblar, PDF darsliklar va onlayn kutubxonalar, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishida muhim vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar o'qituvchilarga yangi bilimlar olish, zamonaviy metodikalarni o'rganish va ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Bu borada quyidagi mashhur elektron ta'lim resurslarini misol sifatida ko'rsatish mumkin:

- Ziyonet – O'zbekistondagi ta'lim portali
- Google Books – bepul kitoblar va ilmiy adabiyotlar
- National Geographic, BBC Learning – fan va texnologiyalar bo'yicha o'quv resurslari
- YouTube Edu, TED-Ed – pedagoglar uchun maxsus videodarslar

Bunday elektron ta'lim resurslari axborotga tez va qulay tarzda kirish, yangilanib turuvchi ma'lumotlar bazasi, o'quvchilarga zamonaviy ta'lim berish kabi Afzal imkoniyatlarni beradi.

Interaktiv texnologiyalar yordamida pedagoglarning dars o'tish usullari sezilarli darajada o'zgarib, o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.

Interaktiv texnologiyalar – bu o'quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va tushunarli qilish uchun qo'llaniladigan innovatsion vositalardir. Ushbu texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqani kuchaytiradi, darslarni vizual va interaktiv tarzda tashkil qilishga yordam beradi. Interaktiv vositalar sifatida quyidagi tizimlarni keltirish mumkin.

- Smart doskalar (Promethean, SmartBoard) – ta'lim jarayonini yanada jonlantirish
- Taqdimotlar va animatsiyalar (PowerPoint, Prezi, Canva) – vizual ta'lim uchun
- Test tizimlari (Quizizz, Kahoot, Google Forms) – bilimni baholash va qayta aloqa olish

Shu kabi Interaktiv vositalari yordamida O'quv jarayoni qiziqarli va interaktiv bo'ladi, murakkab mavzularni tushuntirish osonlashadi hamda o'quvchilarning faol ishtirok etishlari taminlanadi.

Shu jumladan VR (Virtual Reality) va AR (Augmented Reality) yordamida pedagoglar darslarni yanada jonli va real ko'rinishda o'tishlari mumkin. Bu kabi imkoniyatni quyidagi platformalar orqali amalga oshirish mumkin.

- Google Expeditions – virtual ekskursiyalar
- Merge Cube – 3D modellar orqali ta'lim
- Anatomy 4D – biologiya va tibbiyot bo'yicha interaktiv ta'lim

VR (Virtual Reality) va AR (Augmented Reality) vositalar yordamida murakkab fanlarni tushuntirish osonlashadi, o'quvchilar dars jarayonini chuqurroq tushunishadi va amaliy tajribalar uchun xavfsiz muhit yaratadi

Hozirgi kunda ko'plab zamonaviy imkoniyatlarni yaratishda faol tizimga aylangan sun'iy intellekt asosida ishlovchi ta'lim dasturlari o'qituvchilarga o'quvchilarning bilim darajasini baholash, individual ta'lim yo'nalishlarini aniqlash va darslarni moslashtirishda o'ziga xos imkoniyatlarga ega bo'lib, bunday imkoniyatlarni quyidagi platformalar orqali amalga oshirish mumkin.

- ChatGPT, Google Bard – avtomatik dars tayyorlash va maslahat berish
- Duolingo, Rosetta Stone – til o'rganishda AI yordamida shaxsiy yondashuv
- Grammarly – matn tahlili va grammatik tuzatishlar

Bu platformalar o'qituvchilarga yuk kamayadi (test tekshirish, baholash), har bir o'quvchiga individual yondashish imkoniyati, pedagoglar o'z malakasini oshirish uchun AI yordamidan foydalanish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – Toshkent: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 90 bet.
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.
3. Kompetensii pedagoga XXI veka [Elektronnyy resurs]: sb. materialov resp. konferensii (Minsk, 25 noyab. 2021 g.) / M-vo obrazovaniya Resp. Belarus, GUO «Akad. poslediplom. obrazovaniya», OO «Belorus. ped. o-vo». – Minsk: APO, 2021.

**IQTISODIYOTDA INNOVATSIYALARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY
MOHIYATI VA ULARNI TASNIFLASHNING NAZARIY ASOSLARI
TAHLILI.****Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li**

Qarshi xalqaro universiteti "Iqtisodiyot va muhandislik" kafedrasida katta o'qituvchisi

e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998914899592ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5954-3942>**Raximova Nazokat G'olib qizi**

Qarshi xalqaro universiteti magistranti

e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998883819717

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida real sektor tarmoqlarida innovatsion loyihalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan. Ishda Qashqadaryo viloyati misolida ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash holati, ularning iqtisodiy natijalarga ta'siri hamda mavjud muammolar tahlil qilingan. Tadqiqotda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari, ularni baholash mezonlari va samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash usullari yoritilgan.

Shuningdek, viloyat real sektorida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Natijada innovatsion loyihalarni samarali boshqarish orqali ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, xarajatlarni kamaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlarida innovatsion rivojlanish strategiyasini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: real sektor, innovatsion loyiha, iqtisodiy samaradorlik, Qashqadaryo viloyati, investitsiya muhiti.

**АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СУЩНОСТИ
ИННОВАЦИЙ В ЭКОНОМИКЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВ ИХ
КЛАССИФИКАЦИИ****Рамазонов Шамил Улугбек угли**

Старший преподаватель кафедры "Экономика и инженерия" Каршинского

международного университета

электронная почта: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998914899592ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5954-3942>**Рахимова Назокат Голиб кизи**e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998883819717

магистрант Каршинского международного университета

Аннотация: В данной работе исследуются пути повышения экономической эффективности инновационных проектов в реальном секторе экономики. На примере Кашкадарьинской области проанализировано внедрение инновационных технологий на производственных предприятиях, их влияние на экономические результаты и существующие проблемы. В исследовании рассмотрены источники финансирования инновационных проектов, критерии их оценки и показатели эффективности.

Также разработаны практические рекомендации по стимулированию инновационной деятельности, улучшению инвестиционного климата и повышению конкурентоспособности в региональном реальном секторе. В результате обоснованы возможности увеличения объемов производства, снижения затрат и создания новых рабочих мест за счёт эффективного управления инновационными проектами.

Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования стратегии инновационного развития промышленного сектора Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: реальный сектор, инновационный проект, экономическая эффективность, Кашкадарьинская область, инвестиционный климат.

ANALYSIS OF THE SOCIO-ECONOMIC ESSENCE OF INNOVATIONS IN THE ECONOMY AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THEIR CLASSIFICATION

Shamil Ulugbek ogli Ramazonov

Senior Lecturer, Department of Economics and Engineering,
Qarshi International University.”

email: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel:+998914899592

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5954-3942>

Rakhimova Nazokat Gholib qizi

Master's Student at Karshi International University

e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com ,Tel: +998883819717

Abstract: *This research explores ways to enhance the economic efficiency of innovative projects in the real sector. The study analyzes the implementation of innovative technologies in production enterprises of the Kashkadarya region, their impact on economic performance, and existing challenges. It examines the sources of financing for innovation projects, their evaluation criteria, and efficiency indicators.*

Additionally, the paper presents practical recommendations for stimulating innovation activity, improving the investment climate, and increasing competitiveness in the regional real sector. As a result, effective management of innovation projects is shown to contribute to increasing production volumes, reducing costs, and creating new jobs.

The findings have practical significance for improving innovation development strategies in the industrial sectors of the Kashkadarya region.

Keywords: *real sector, innovative project, economic efficiency, Kashkadarya region, investment climate.*

Kirish. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va uning yangi texnologik rivojlanishga o'tish jarayoni dunyo tovar va moliya bozorlarida, raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasida va aholining ijtimoiy-iqtisodiy, o'sib borayotgan muammolarini hal qilish usullarida tobora raqobatning tobora kuchayishiga olib kyelmoqda. Ushbu masalalarning asosiy yechimi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin olish, to'rtinchi sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish, to'plangan institusional muammolarning yangi yechimlarini izlab topish, shuningdek globallashuv tufayli yuzaga kyelayotgan bahsli masalalarni hal qilishdan iborat bo'lishi lozim.

Hozirgi raqobat sharoitida iqtisodiyotda ustuvor yo'nalishlar rivojini ta'minlovchi ilmiy tadqiqotlar hamda innovatsion ishlanmalarni amalga oshiruvchi ekotizimni shakllantirish eng asosiy vazifa hisoblanadi. Shu sababdan, rivojlanayotgan mamlakatlar raqobatbardoshlikni oshirish va mustahkamlash bo'yicha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni va global markyetingni faol o'zlashtirish, ustuvor yo'nalishlarda o'z ilmiy maktablarini tashkil etish, tajribali va malakali mutaxassislarni jalb etish, innovatsion salohiyatga ega istiqbolli startaplarni qo'llab-quvvatlash, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning moliyaviy va institusional asoslarini yaratish uchun davlat imtiyozlaridan maqsadli foydalanish kabi choralarni ko'rmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ham bu borada mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga taraqqiyotimizning yangi bosqichi bo'lgan 2019 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2020 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "yangi fikr, yangi g'oyaga, innovasiyaga tayangan davlat yutadi. Innovasiya—bu kelajak dyegani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovasion g'oyalar, innovasion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.

Innovasion tyexnologiyalarning asosiy mohiyati va tamoyillari asosida rivojlanish stratyegiyasini tanlash va uning samaradorligi, innovasiyaviy loyihalar portfyelini shakllantirish va boshqarish usullari, innovasiyalarning samaradorligi, real sektor iqtisodiyotini modyernizasiyalash, divyersifikasiyalash hamda tarkibiy o'zgartirishlar, iqtisodiyotni rivojlanishini ta'minlovchi yangi ilmiy asoslangan g'oya va yangi innovasion loyihalar amalga oshirilishini ta'minlovchi tyexnologiya, tizimlar rivojlanishini boshqarish, innovasion mahsulot ishlab chiqarish bilan bozorni to'ldirish iqtisodiyotning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekistoni 2030 yilga qadar global innovasion indyeks ryeytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari qatoriga kiritish bo'yicha ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan stratyegik ryeja e'lon qilindi. Mazkur maqsad ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'z navbatida, ilm-fandagi tyegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy, moliyaviy hamda kadrlar va infratuzilmaga oid islohot-o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Milliy iqtisodiyotdagi korxonalar faoliyatida innovasiyalar va ularning tutgano'ni bo'yicha ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, shu jumladan: Harvard University (AQSH), Indiana University (AQSH), Toyo University (Yaponiya), Kyoto University (Yaponiya), Adam Smith Institute (Buyuk Britaniya), Institute for European Environmental Policy (Buyuk Britaniya), Institute of Economic Affairs (Buyuk Britaniya), The Halle Institute of Economic Research (Gyermaniya), The Hamburg Institute of International Economics (Gyermaniya) hamda Xalqaro Lyeont'yevev markazi, Iqtisodiyot va sanoat ishlab chiqarishni tashkil etish institutida (Rossiya) olib borilmoqda.

Korxonalar faoliyatida innovasion jarayonlar kabi masalalari J.B. Budvil, N. Grosjan, P. Krugman, A. Lyosh, B.O. Lundval, J. Mansinyen, E. Mey, F. Pyerru, P. Romyer, E. Raynyert, X. Richardson, Dj. Fridman, K. Frimen, P. Xaggyet, T. Xagyerstrand, M. Portyer, Y. Shumpyetyer va shu kabi boshqa innovasion iqtisodiyot nazariyalari mualliflari tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatlarning innovasion iqtisodiyot sharoitida bosqichidagi xususiyatlari B. Garryett, G. Jyeryeffi, R. Kaplinski, F. Kotlyer, M. Loryens, P. Maskyell, S. Ryezyenfyel'd, M. Simaguti, M. Storpyer, E. Shmits, M. Enrayt kabi olimlarning innovasion rivojlanish konsyepsiyalari, nazariyalari va amaliy izlanishlarida o'z aksini topgan.

MDH davlatlarida innovasion rivojlanish nazariyalarini tadqiq qilish, korxonalar ishlab chiqarishida innovasion loyihalarni jalb qilishasosiy vazifalar qatorida turibdi. Bularga misol tariqasida A.G. Granbyerg, YU.A. Gadjiyev, S.M. Drobishevskiy, V.K. Lomakin,, YA.D. Lisovolik, G.L. Azoyev, B.S. Jixaryevich, R. Fatxutdinov, YU.V. Savyelyev, YE.A.Kolomak, A.S. Novosylov, S.S. Artobolyevskiy, B.M. Grinchyel kabi olimlarning izlanishlarini kyeltirish mumkin.

O'zbekistonda innovasion raqobatdoshlikni milliy korxonalar darajasida o'rganish nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar ilk izlanishlar hisoblanadi. Milliy iqtisodiyot maktabi olimlari M. Abdusalyamov, K. Abirqulov, N. Aimbyetov, T.M. Axmyedov, SH. Imomov, B. Ro'zmyetov, A.M. Sodiqov, A. Soliyev, A.M. Qodirov, A.A. Qayumov, F.T. Egambyerdiyev¹ va boshqalar erishgan ilmiy natijalar mamlakatimizda korxonalar raqobatdoshligini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda korxonalar raqobatdoshligini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asosini hududiy ishlab chiqarish kompyekslari, iqtisodiy rayonlashtirish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish konsyepsiyalari tashkil etadi. Bu esa raqobatdoshlikning hududiy jihatlarini chuqurroq tadqiq etish va uning uslubiy jihatlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Magistrlik dissyetsiya ishida qiyosiy tahlil qilish, monografik o'rganish, taqqoslash, statistik guruhlash, iqtisodiy tahlil usullaridan kyeng foydalanishnazarda tutilgan.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda jahon taraqqiyoti informasion-innovasion davrida kyechnoqda. Bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi - bu ilmiy yutuqlar, yangi tyexnologiyalarni jadal o'zlashtirish va samarali boshqarishga asoslanadigan o'zgarishlardir. Natijada iqtisodiy faoliyat sub'yektlari o'rtasida innovasiyalarni ayirboshlash va amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiy jarayonlardagi tub o'zgarishlar (bozorning globallashuvi, axborot tyexnologiyalardan kyeng foydalanish, rivojlanishni boshqarish, biznesni tashkil etishdagi tarkibiy o'zgarishlar)turli korxonalarda islohotlar ko'lamini o'sishiga sabab bo'lmoqda.

Ilmiy-tyexnik taraqqiyotning asosi bo'lib tashkilotning har xil sohalarida qo'llaniladigan va innovasiyalarni yaratilishiga sabab bo'ladigan ixtirolar va kashfiyotlar xizmat qiladi. Amaliy qo'llanilishidan so'ng ixtirolar innovasiyalarga aylandi. Ular jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarining faol bo'g'ini hisoblanmoqda. Zamonaviy makonni bunday o'zgarishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. "Innovasiya" tushunchasi dyeyarli barcha sohalarda qo'llaniladi, uy sharoitida ham, profyessional darajada ham, shu jumladan davlat rahbarlari va xalqaro tashkilotlar darajasida ham dolzarb mavzu hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanish innovasiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilayotganiga qaramay, ushbu jarayonning o'tgan asrdagi syekinlik bilan kyechishi uni to'liq sinab ko'rishga imkon byermadi. Postindustrial davridagi jadal iqtisodiy rivojlanish sifat jihatdan yangi xususiyatlarga ega bo'ldi: innovasion jarayonlar taraqqiyot shartiga

aylandi; innovasiyalar ishlab chiqarishning yetakchi omiliga aylanmoqda; o'zgarishlar tyezligi oshmoqda. Innovasion faoliyat asosiy faoliyat maqomiga davogarlik kilmoqda va korxonaning stratyegik rivojlanishi uchun zarur shartidir.

Adabiyotlarda "innovasiya" tushunchasining turli xil ta'riflari mavjud bo'lib, ular ko'pincha "yangilik" tushunchasi bilan chalkashtirib tavsiflanadi. Shu munosabat bilan ularning o'ziga xos farqlariga e'tibor qaratish lozim.

Iqtisodiy adabiyotlarda innovasiya (ingl. *innovation*) – potyensial ilmiy-tyexnik taraqqiyotni (ITT) yangi mahsulot va tyexnologiyalar ko'rinishida real taraqqiyotga aylanishi, dyeb ta'riflanadi. Bozor iqtisodiyotida innovasiyalarni tizimli taqdim etish uslubiyoti xalqaro standartlarga asoslangan va ularga muvofiq *innovasiya* dyeganda, bozorga kirib kyelgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliyotda qo'llanilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan yangicha yondashuv ko'rinishidagi innovasiyaviy faoliyat natijasi tushuniladi. Innovasiya bu insonning xayolida, ijodida yetilgan, "pishgan", aqliy mehnatning yakuniy natijasi sifatida o'ylab topilgan, joriy qilingan, kiritilgan, ishlayotgan yangilikdir. Ushbu muammo bo'yicha ko'p sonli tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramasdan, bugungi kunda innovasiyaviy faoliyat sohasida yagona, umumiy tarzda qabul qilingan tyerminologiya mavjud emas. Shuning uchun ham adabiyotlarni qisqacha tahlilini kyeltirish va innovasiyaviy faoliyat sohasidagi asosiy tushunchalarni konkryetlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Innovasiyaviy nazariyani asosiy rivojlanish bosqichi V.Zombart, V.Mitchyerlix, Y.Shumpyetyer ishlariga to'g'ri kyelgan. Innovasiyalar nazariyasini shakllanishi va rivojlanishiga avstriyalik olim Y.Shumpyetyer katta hissa qo'shgan. Y.Shumpyetyer kon'yunktura siljishlari manbalarinitahlil qilish natijasida, ishlab chiqarish va bozor rivojlanishidagi o'zgarishlarning *yangi omillarini* ajratdi va ularga quyidagilarni kiritdi:

- yangi xususiyatlarga ega mahsulotni ishlab chiqarish;
- yangi ilmiy kashfiyot yoki tijoratlashtirish usuliga asoslangan ishlab chiqarishning yangi uslubini joriy etish;
- sanoatning mazkur tarmog'i taqdim etilmagan, yangi savdo bozorlarini o'zlashtirish;
- xom-ashyo yangi manbasidan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tyegishli tarzda qayta tashkil etilishini amalga oshirish, masalan, monopollikni ta'minlash.

Innovasiya" tushunchasi o'zining yangi hayotini "innovasion kombinasiyalar"ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX-asrning boshida avstriyalik va amyerikalik iqtisodchi Y.Shumpyetyerning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpyetyer 1900-yillarda iqtisodda ushbu tyerminni ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi. Innovasiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Kyeng tarqalgan yanglish fikrlashlarga qaramasdan innovasiyalar kashfiyotlardan farq qiladi Innovasiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi shundaki, ilm-fan–bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish. Innovasiyalar – bu bilimlar va g'oyalarni mablag'larga aylantirishdir. Ixtiro–bu yangi

konsyepsiyani yaratish dyemak. Innovasiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

Xulosa va takliflar. Yurtimizda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda real sektor tarmoqlarida innovatsion faoliyatni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarish korxonalarining aksariyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ayrim tarmoqlarda modernizatsiya sur'atlari yetarli darajada yuqori emas. Bunga investitsiya resurslarining cheklanganligi, ilmiy-tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilish darajasining pastligi va innovatsion boshqaruv tizimining to'liq shakllanmaganligi sabab bo'lmoqda.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi oshib, mahsulot tannarxi kamayadi, eksport salohiyati kengayadi va yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shu bois real sektor korxonalarida innovatsion siyosatni kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini tatbiq etish zarur.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Qashqadaryo viloyatining sanoat tarmoqlarida innovatsion loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maxsus hududiy innovatsion fond tashkil etish;

Korxonalar va ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasida hamkorlik platformalarini yaratish, bu orqali ilmiy ishlanmalarning amaliyotga joriy etilishini ta'minlash;

Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari va preferensiyalar tizimini kengaytirish, ayniqsa kichik biznes va startaplar uchun qulay sharoit yaratish;

Korxonalarda raqamli transformatsiya va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash;

Innovatsion boshqaruv va loyihalarni baholash sohasida mutaxassislar malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish.

Umuman olganda, real sektor tarmoqlarida innovatsion loyihalarni samarali boshqarish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki Qashqadaryo viloyatining raqobatbardoshligini mustahkamlash, yangi texnologiyalarni keng joriy etish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-5544-son qarori. — 2018-yil 21-sentabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. — 2022-yil 28-yanvar.

3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari. — 2024-yil.

4. Abdulkarimov, I. A. *Innovatsion faoliyat va iqtisodiy o'sish omillari*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

5. Raxmonov, S. R. *Sanoat tarmoqlarida innovatsion boshqaruv mexanizmlari*. — Qarshi: QarDU nashriyoti, 2022.
6. Xodjayev, B. X. *Milliy iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish strategiyasi*. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
7. Muminov, A. M. *Real sektor iqtisodiyotida investitsion jarayonlarni boshqarish*. — Samarqand: SamDU, 2019.
8. Porter, M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. — New York: Free Press, 1990.
9. Schumpeter, J. A. *The Theory of Economic Development*. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.
10. Karimov, M. Sh. *Qashqadaryo viloyatining sanoat salohiyatini oshirishda innovatsion yondashuvlar*. — “Iqtisodiyot va innovatsiyalar” jurnali, №3, 2023.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI KO‘PAYTIRISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH TAHLILI

Ramazonov Shamil Ulug‘bek o‘g‘li

Qarshi xalqaro universiteti “Iqtisodiyot va muhandislik” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998914899592

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5954-3942>

Saidov Soxibislombek Sobir o‘g‘li

Qarshi xalqaro universiteti magistranti
e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998973139595

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati misolida chorvachilik tarmog‘ining hozirgi holati, mahsulot yetishtirish hajmlari, mavjud muammolar hamda samaradorlikni oshirishning zamonaviy yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, chorvachilikni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, yem-xashak bazasini mustahkamlash, genetik seleksiya va davlat qo‘llab-quvvatlash dasturlarining roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: chorvachilik, samaradorlik, genetik seleksiya, yem-xashak bazasi, agrosanoat majmuasi, Qashqadaryo viloyati, iqtisodiy samaradorlik.

АНАЛИЗ УВЕЛИЧЕНИЯ ПРОИЗВОДСТВА И ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОДУКЦИИ ЖИВОТНОВОДСТВА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ.

Рамазонов Шамил Улугбек угли

Старший преподаватель кафедры “Экономика и инженерия” Каршинского
международного университета

электронная почта: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998914899592

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5954-3942>

Саидов Сохибисломбек Собир угли.

e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998973139595
магистрант Каршинского международного университета

Аннотация: В данной статье на примере Кашкадарьинской области анализируется современное состояние животноводческой отрасли, объёмы производства продукции, существующие проблемы, а также современные пути повышения эффективности. Кроме того, рассматривается роль инновационных технологий, укрепления кормовой базы, генетической селекции и государственных программ поддержки в развитии животноводства.

Ключевые слова: животноводство, эффективность, генетическая селекция, кормовая база, агропромышленный комплекс, Кашкадарьинская область, экономическая эффективность.

ANALYSIS OF INCREASING LIVESTOCK PRODUCTION AND IMPROVING ITS EFFICIENCY IN AGRICULTURE.

Shamil Ulugbek ogli Ramazonov

Senior Lecturer, Department of Economics and Engineering,
Qarshi International University.”

email: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel:+998914899592

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5954-3942>

Sokhibislombek Sobir ogli Saidov

Master's Student at Karshi International University

e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998973139595

Abstract: *This article analyzes the current state of the livestock sector, production volumes, existing problems, and modern ways to improve efficiency using the example of the Kashkadarya region. It also highlights the role of innovative technologies, strengthening the feed base, genetic selection, and government support programs in the development of livestock farming.*

Keywords: *livestock farming, efficiency, genetic selection, feed base, agro-industrial complex, Kashkadarya region, economic efficiency.*

Kirish. Bugungi kunga kelib O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning asosiy maqsadi - mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, aholi daromadlarini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishdan iboratdir. Ayniqsa, chorvachilik tarmog‘i iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki u nafaqat go‘sh, sut, jun, teri, tuxum kabi muhim oziq-ovqat va sanoat xomashyosini yetkazib beradi, balki qishloq joylarda aholi bandligini ta‘minlashda ham muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da chorvachilikni modernizatsiya qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, yem-xashak bazasini kengaytirish hamda genetik seleksiya asosida yuqori mahsuldor zotlarni yaratish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Shu bilan birga, “Har bir oila - tadbirkor”, “Har bir oila - chorvador” kabi dasturlar orqali aholining chorvachilik bilan shug‘ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Qashqadaryo viloyati respublikaning yirik agrar hududlaridan biri bo‘lib, bu yerda chorvachilik sohasining salohiyati juda yuqori. Viloyat iqlimining o‘ziga xosligi, keng yaylov maydonlari va mavjud suv resurslari tarmoqni rivojlantirish uchun tabiiy imkoniyat yaratadi. Biroq mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish darajasi hali yetarli emas. Aksariyat hollarda yem-xashak resurslarining cheklanganligi, naslchilik ishlarining sustligi, ishlab chiqarishning texnik darajasi pastligi va marketing tizimining rivojlanmaganligi chorvachilik samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotida chorvachilik tarmog‘ining ulushi ortib borayotgan bo‘lsa-da, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxi yuqori, qayta

ishlash darajasi esa pastligicha qolmoqda. Shu bois ushbu sohani ilmiy asosda takomillashtirish, samaradorlikni oshirish yo'llarini aniqlash, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Qashqadaryo viloyatida so'nggi yillarda chorva mollari bosh soni, sut va go'sht ishlab chiqarish hajmlarida ijobiy o'sish kuzatilgan. Biroq bu o'sish hali iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini to'liq qoniqtira olmaydi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, chorvachilikni intensivlashtirish, oziqa ishlab chiqarish zanjirini rivojlantirish va ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy rag'batlantirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Shu sababli, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - Qashqadaryo viloyatida chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish va uning samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

Maqolada Qashqadaryo viloyatidagi chorvachilik tarmog'ining bugungi holati, o'sish tendensiyalari, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlik omillari tahlil qilinadi. Shuningdek, samaradorlikni oshirishda innovatsion texnologiyalar, davlat qo'llab-quvvatlovi va mahalliy resurslardan oqilona foydalanishning o'rni yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. So'ngi yillarda qishloq xo'jaligida chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha bir qancha dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Xususan Ellis F o'zining "Dehqon xo'jaligi iqtisodiyoti: Fermer xo'jaliklari va agrar rivojlanish." nomli asarida qishloq xo'jaliklarining ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan foydalanish, risk va foyda o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qiladi. Asar rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekiston sharoitiga o'xshash agrar tuzilmalarni o'rganishda asosiy nazariy manba hisoblanadi.

Jo'rayev, A o'zining "Chorvachilikni rivojlantirishda resurslardan samarali foydalanishning iqtisodiy asoslari" maqolasida esa O'zbekiston qishloq xo'jaligida chorvachilikni rivojlantirish jarayonlarini iqtisodiy tahlil qilgan. Tadqiqotda yem-xashak bazasini kengaytirish, zotli chorva mollari sonini oshirish, va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni imtiyozli kreditlar orqali qo'llab-quvvatlash samaradorlikni oshirishning asosiy omillari sifatida keltirilgan. Shuningdek, maqolada Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida olingan statistik ma'lumotlar asosida chorvachilik rentabelligi va ishlab chiqarish xarajatlari tahlil qilingan.

Jo'rayev, R. M o'zining "Chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy asoslari va rivojlanish yo'nalishlari" nomli kitobida chorvachilikni modernizatsiya qilish, naslchilikni rivojlantirish, yem-xashak bazasini mustahkamlash, va chorvachilik mahsulotlarining bozor qiymatini oshirish yo'llari chuqur tahlil qilingan. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyatida mavjud iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish va yaxshilashda xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish,

tahlil, sintez kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston va uning hududlari aynana Qashqadaryo viloyatida kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini yaxshilash dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Quyida Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2020–2024 yillar oralig'idagi kambag'allikni qisqartirish jarayoni tahlil va natijalarni keltirib o'tmoqchimiz.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida chorva mollari bosh sonining o'sishi (2020–2024-yillar)

Yil	Qoramol (ming bosh)	Qo'y va echki (ming bosh)	Parranda (mln dona)
2020	1190	2870	7,5
2021	1230	2940	8,1
2022	1270	3050	8,9
2023	1315	3120	9,6
2024	1360	3210	10,4

advaldan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida Qashqadaryo viloyatida chorva mollari bosh sonida barqaror o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, qoramol soni 5 yilda 14,3 foizga, qo'y va echkilar soni 11,8 foizga, parranda soni esa 38,6 foizga ko'paygan. Bu holat hududda chorvachilik faoliyatiga bo'lgan qiziqish ortib borayotganini ko'rsatadi.

Mazkur o'sish "Har bir oila - chorvador" dasturi, imtiyozli kreditlar va subsidiya mexanizmlarining kengaytirilishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, kichik fermer xo'jaliklari va oilaviy tadbirkorlik subyektlarining soni ortgani ham ijobiy natija bergan.

2-jadval

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (Qashqadaryo viloyati, 2020–2024-yillar)

Yil	Go'sht (ming tonna)	Sut(ming tonna)	Tuxum(mln dona)
2020	180	620	1050
2021	188	640	1120
2022	196	660	1200
2023	205	685	1280
2024	215	710	1360

Ushbu jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2020-2024-yillar mobaynida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham muntazam o'sib borgan. Go'sht ishlab chiqarish hajmi 19,4 foizga, sut - 14,5 foizga, tuxum esa 29,5 foizga oshgan.

Bu o'sishga bir nechta omillar sabab bo'lgan:

- naslchilik ishlarining yaxshilanishi,
- yem-xashak bazasining kengaytirilishi,
- kichik ishlab chiqaruvchilarga berilayotgan kredit va subsidiya yordamlari.

Shuningdek, so'nggi yillarda zamonaviy mini-ferma va agroklastar tizimlari joriy etilgani ishlab chiqarish hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ammo ayrim tumanlarda (masalan, G'uzor va Dehqonobod) ishlab chiqarish o'sishi respublika o'rtacha darajasidan past bo'lib qolmoqda - bu yerda suv ta'minoti va yem-xashak yetishmovchiligi dolzarb masala bo'lib turibdi.

3-jadval

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari (2020–2024-yillar)

Yil	Ishlab chiqarish tannarxi(so'm/kg)	O'rtacha sotuv narxi(so'm/kg)	Rentabellik(%)
2020	21000	23500	11,9
2021	22000	25200	14,5
2022	23400	27000	15,4
2023	24600	28500	15,9
2024	25800	30000	16,3

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, 2020-2024-yillar davomida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxi yiliga o'rtacha 5–7 foizga oshgan bo'lsa-da, sotuv narxlari ham shunga mos ravishda ko'tarilgan.

Eng muhim ko'rsatkich - rentabellik darajasi 2020-yildagi 11,9 foizdan 2024-yilda 16,3 foizgacha oshgan. Bu esa ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ortib borayotganini anglatadi.

Xulosa va takliflar. Yurtimizda qishloq xo'jaligi tarmog'ining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan chorvachilik sohasini rivojlantirish, nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki aholining daromad manbalarini kengaytirish va qishloq joylarda bandlikni oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Qashqadaryo viloyati misolida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda chorvachilik tarmog'i sezilarli darajada rivojlanib, qoramol, qo'y, echki va parranda soni ortgan, ishlab chiqarilayotgan go'sht, sut va tuxum hajmi yilma-yil ko'paymoqda.

Davlat tomonidan qabul qilingan "Har bir oila – chorvador", "Fermer – klaster – kooperatsiya" dasturlari va boshqa qo'llab-quvvatlov mexanizmlari chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirishda ijobiy natijalar bergan. Shu bilan birga, aholini imtiyozli kreditlar bilan ta'minlash, yem-xashak bazasini kengaytirish, zamonaviy mini-fermalarni tashkil etish va naslchilikni rivojlantirish yo'nalishidagi ishlar ijobiy siljishlarni ta'minlagan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2020-2024-yillar davomida Qashqadaryo viloyatida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'rtacha 15–18 foizga o'sgan, rentabellik darajasi esa 11,9 foizdan 16,3 foizgacha oshgan. Bu holat sohada mehnat unumdorligining oshganidan va ishlab chiqarishning iqtisodiy foydaliligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, ayrim tumanlarda hali ham resurslardan samarali foydalanmaslik, yem-xashak yetishmovchiligi, suv ta'minotining pastligi, sovutish va saqlash infratuzilmasining zaifligi kabi muammolar mavjud. Bu holat chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash va bozorga yetkazish jarayonida yo'qotishlar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, naslchilikni rivojlantirish, yem-xashak ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hamda kooperatsiya tizimini kengaytirish sohada samaradorlikni yanada oshiradi. Bundan tashqari, chorvachilik tarmog'ida xorijiy tajribalarni, xususan, Turkiya, Niderlandiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarning klaster tizimi, ilmiy yondashuv va boshqaruv modellarini o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish ham dolzarb hisoblanadi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatida chorvachilikni rivojlantirish orqali nafaqat ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, balki eksport salohiyatini oshirish, qishloq aholisi daromadini barqarorlashtirish va mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash mumkin.

Berilgan xulosalardan kelib chiqib biz quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

1. Yem-xashak bazasini kengaytirish va arzonlashtirish.

Har bir tuman miqyosida yem-xashak ekinlari uchun alohida yer maydonlari ajratilishi lozim;

Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi fermerlarga ozuqa ishlab chiqarish texnikalari (presslash, maydalash, saqlash uskunalari) uchun imtiyozli kreditlar berilishi zarur.

2. Naslchilik va veterinariya tizimini takomillashtirish.

Mahalliy zotlarni yuqori mahsuldor chet el zotlari bilan chatishtirish orqali go'sht va sut mahsuldorligini oshirish;

Veterinariya xizmatlari uchun mobil laboratoriyalarni tashkil etish va veterinarlarga raqamli monitoring tizimini joriy etish.

3. Mahsulotni qayta ishlash va saqlash tizimini rivojlantirish.

Qishloq joylarda kichik qayta ishlash korxonalari (sutni qadoqlash, go'shtni muzlatish, konservalash) tarmog'ini rivojlantirish;

Mahsulotni iste'molchiga yetkazish uchun sovutish zanjiri (cold chain) infratuzilmasini yaratish.

4. Chorvachilik klasterlarini tashkil etish.

Har bir tuman yoki hudud ixtisoslashgan klasterga ajratilib, "Fermer–Qayta ishlovchi–Bozor" zanjiri yaratilishi kerak;

Klasterni boshqarish tizimida ilmiy markazlar, agrotahlil laboratoriyalari va konsalting xizmatlari ishtirok etishi lozim.

5. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish.

Sun'iy urug'lantirish, genetik monitoring va raqamli hisob tizimlarini kengaytirish;

Chorva uchun aqlli oziqlantirish tizimlari va avtomatik sog'ish uskunalari bosqichma-bosqich tatbiq etish.

6. Eksport salohiyatini oshirish.

Chorvachilik mahsulotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, sertifikatlash tizimini soddalashtirish;

Go'sht, sut va tuxum mahsulotlarini qo'shni davlatlar bozorlariga chiqarish uchun logistika markazlarini tashkil etish.

7. Kadrlar salohiyatini oshirish.

Chorvachilik sohasida malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

Qishloq xo'jaligi oliygohlari va kollejarida amaliy laboratoriyalar va innovatsion o'quv bazalarini kengaytirish.

Qashqadaryo viloyatida chorvachilik tarmog'ini modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish va mahsulotlarni chuqur qayta ishlash orqali hududning iqtisodiy mustahkamligi, oziq-ovqat xavfsizligi va eksport salohiyatini kuchaytirish mumkin. Bu esa mamlakat miqyosida agrosanoat kompleksining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. *"Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2030"* hujjati. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi hisobotlari (2020–2024-yillar). *Qashqadaryo viloyatida chorvachilik tarmog'ining rivojlanish ko'rsatkichlari.* - Qarshi: Viloyat statistika boshqarmasi, 2024.
3. Qodirov, A. & Karimov, I. *Chorvachilikda samaradorlikni oshirishning iqtisodiy mexanizmlari.* - Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021. - 188 b.
4. Abdullayev, M. A. *Qishloq xo'jaligi sohasida resurslardan samarali foydalanish muammolari va yechimlari.* - Qarshi: Nasaf, 2020.
5. Rosenzweig, M. R. & Binswanger, H. P. *Wealth, Weather Risk, and the Composition and Profitability of Agricultural Investments.* - *The Economic Journal*, Vol. 103, No. 416, 1993, pp. 56–78.
6. World Bank. *Livestock Development and Agrifood Systems Transformation in Central Asia.* - Washington D.C.: World Bank Publications, 2022.
7. Food and Agriculture Organization (FAO). *Livestock Sector Brief: Uzbekistan.* - Rome: FAO Publishing, 2023.
8. Tursunov, B. & Yuldashev, F. *Agrosanoat majmuasida innovatsion boshqaruv mexanizmlari.* - Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim, 2022.
9. Porter, M. E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance.* - New York: Free Press, 1985. (Klaster yondashuvi va tarmoq samaradorligini tahlil qilishda foydalanilgan.)
10. Sodiqova, D. X. *Qishloq joylarda bandlik va daromad manbalarini kengaytirish yo'nalishlari.* - Toshkent: TDIU Ilmiy nashriyoti, 2023.

**YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH TADBIRLARI VA YO'NALISHLARI TAHLILI****Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li**Qarshi xalqaro universiteti "Iqtisodiyot va muhandislik" kafedrasida katta o'qituvchisi
e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998914899592ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5954-3942>**Xudayqulova Zulfira Farxodjon qizi**Qarshi xalqaro universiteti magistranti
e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998910701166

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston davrida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning hududiy (Qashqadaryo viloyati) darajadagi samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada davlat siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligi, aholining daromad manbalarini kengaytirish, bandlikni ta'minlash hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, hudud miqyosida kambag'allikni qisqartirishda mahallabay ishlash tizimining roli ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, qashshoqlik, qashshoqlik tuzog'i, bandlik, ijtimoiy siyosat, mahallabay tizim, Qashqadaryo viloyati, iqtisodiy islohotlar.

**АНАЛИЗ МЕР И НАПРАВЛЕНИЙ ПО СОКРАЩЕНИЮ БЕДНОСТИ В
УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА****Рамазонов Шамил Улугбек угли**Старший преподаватель кафедры "Экономика и инженерия" Каршинского
международного университетаэлектронная почта: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998914899592
ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5954-3942>**Худайкулова Зульфира Фарходжон кизи**e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998910701166
магистрант Каршинского международного университета

Аннотация: В данной статье анализируются реформы, проводимые в период Нового Узбекистана по сокращению бедности, а также их эффективность на региональном уровне (на примере Кашкадарьинской области). В статье рассматривается социальная направленность государственной политики, механизмы расширения источников доходов населения, обеспечения занятости и поддержки предпринимательства. Кроме того, освещается роль махаллинной системы работы в сокращении бедности на региональном уровне.

Ключевые слова: бедность, нищета, ловушка бедности, занятость, социальная политика, махаллинная система, Кашкадарьинская область, экономические реформы.

**ANALYSIS OF MEASURES AND DIRECTIONS FOR POVERTY
REDUCTION IN THE CONTEXT OF NEW UZBEKISTAN****Shamil Ulugbek ogli Ramazonov**Senior Lecturer, Department of Economics and Engineering,
Qarshi International University."email: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998914899592
ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5954-3942>**Khudaykulova Zulfira Farkhodjon qizi**Master's Student at Karshi International University
e-mail: ramazonovshamil2022@gmail.com, Tel: +998910701166

Abstract: . This article analyzes the reforms implemented during the New Uzbekistan period aimed at reducing poverty and their effectiveness at the regional level (using the example of the Kashkadarya region). The article examines the social orientation of state policy, mechanisms for expanding income sources of the population, ensuring employment, and supporting entrepreneurship. In addition, it highlights the role of the mahalla-based system in reducing poverty at the regional level.

Keywords: Poverty, destitution, poverty trap, employment, social policy, mahalla-based system, Kashkadarya region, economic reforms.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Aholining farovonligini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta‘minlash va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish mamlakat taraqqiyotining muhim omillari sifatida e‘tirof etilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan **“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2030”** hujjatida aholining daromadlarini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, kambag‘allikni qisqartirish hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Kambag‘allik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, demografik va ma‘naviy jihatlariga ham taalluqlidir. U aholining turmush darajasi, bandlik holati, ta‘lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, kambag‘allikni kamaytirish masalasiga kompleks, tizimli va hududiy yondashuv zarur. Har bir viloyatning o‘ziga xos iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslari, ijtimoiy infratuzilmasi va bandlik darajasi mavjud bo‘lib, bu omillar kambag‘allik darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston hukumati tomonidan so‘nggi yillarda **“Har bir oila – tadbirkor”**, **“Yoshlar daftari”**, **“Ayollar daftari”**, **“Temir daftar”** kabi manzilli dasturlar joriy etilib, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning yangi bosqichi boshlab berildi. Ushbu dasturlar orqali aholining ehtiyojmand qatlamlari aniqlanib, ularga bandlikni ta‘minlash, tadbirkorlik faoliyatini boshlash, kasb-hunarga o‘qitish va kredit ajratish orqali iqtisodiy faollikni oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Maqolada aynan **Qashqadaryo viloyati** misolida kambag‘allikni kamaytirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ularning samaradorligi, shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Ushbu hudud O‘zbekistonning agrar-sanoat salohiyati yuqori bo‘lgan mintaqalaridan biri bo‘lib, so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘shish jarayonlari bilan bir qatorda ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, aholining daromadlarini oshirish va kambag‘allikni kamaytirish yo‘nalishlarida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola Yangi O‘zbekiston sharoitida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning amaliy natijalarini tahlil qilish, kambag‘allikni qisqartirishda mahallabay ishlash tizimining o‘rni va ahamiyatini aniqlash hamda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlarni belgilashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Yangi O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikni qisqartirishda muhim chora-tadbirlar olib borilmoqda va bu bo‘yicha bir qancha dasturlar ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021–2023-yillardagi nutqlari hamda “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2030” kambag'allikni qisqartirishda quyidagilar belgilab olindi.

Ushbu strategiya kambag'allikni qisqartirish masalasini davlat siyosatining markaziga qo'ygan birinchi hujjatlardan biridir. Strategiyada iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ijtimoiy himoya tizimini isloh qilish, aholining bandligini ta'minlash, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Hujjatning ahamiyati shundaki, u kambag'allikka qarshi kurashni faqat ijtimoiy yordam emas, balki kompleks iqtisodiy islohot sifatida ko'radi. Ayniqsa, mahallabay ishlash tizimini joriy etish orqali kambag'allikni joylarda aniqlash va hal etish mexanizmlari kuchaytirildi. Ushbu strategiya Qashqadaryo viloyatida ham iqtisodiy faollikni oshirish va daromad manbalarini kengaytirish uchun asos bo'ldi.

World Bank, *Uzbekistan Poverty Assessment Report*, Washington, D.C., 2023. Mazkur xalqaro hisobotda O'zbekistonda kambag'allikning dinamikasi, asosiy sabablari va hududlar kesimidagi tafovutlar tahlil qilingan. Xususan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida kambag'allik darajasi mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan yuqoriligi qayd etilgan.

Hisobotda kambag'allikni kamaytirish uchun ta'lim va kasbiy malaka darajasini oshirish, xususiyl sektorini rivojlantirish, mikromoliyalashtirishni kengaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Jahon banki tahlilicha, mahalliy darajadagi islohotlar (masalan, Qashqadaryoda kasanachilikni qo'llab-quvvatlash) samarali, lekin barqaror bo'lishi uchun tizimli monitoring zarur.

Mahkamov, A. (2022). *Ijtimoiy siyosat va iqtisodiy barqarorlik*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. Muallif ijtimoiy siyosatning iqtisodiy barqarorlikdagi o'rni, kambag'allikni kamaytirishdagi davlat va jamiyat hamkorligi masalalarini chuqur tahlil qiladi. Asarda “ijtimoiy adolat” tushunchasi iqtisodiy islohotlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida yoritiladi.

Mahkamovning qarashlariga ko'ra, kambag'allikka qarshi kurash faqat moddiy yordam bilan cheklanmasligi, balki inson kapitalini rivojlantirish, bandlik siyosatini kuchaytirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi kerak. Ushbu yondashuv Yangi O'zbekiston sharoitidagi iqtisodiy islohotlar mohiyatiga to'liq mos keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlari yaxshilashda xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, tahlil, sintez kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek kambag'allikni qisqartirish borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston va uning hududlari aynana Qashqadaryo viloyatida kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini yaxshilash dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Quyida Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2020–2024 yillar oralig'idagi kambag'allikni qisqartirish jarayoni tahlil va natijalarni keltirib o'tmoqchimiz.

1-jadval

**Qashqadaryo viloyatida kambag'allik darajasi (2020–2024 yillar, %
hisobida)**

Yil	Kambag'allik darajasi(%)	Ishsizlik darajasi(%)	Band aholining ulushi(%)	Aholi o'rtacha oylik daromadi(ming so'm)
2020	15.2	10.8	58.3	1720
2021	13.6	9.9	60.1	1950
2022	12.4	8.5	61.8	2230
2023	10.9	7.6	63.5	2680
2024	9.7	7.0	65.2	3150

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida Qashqadaryo viloyatida kambag'allik darajasi 15,2 foizdan 9,7 foizgacha kamaygan. Shu bilan birga, ishsizlik darajasi 10,8 foizdan 7 foizgacha tushgan, bu esa iqtisodiy faollik oshganidan dalolat beradi.

O'rtacha oylik daromadlar esa 1,72 million so'mdan 3,15 million so'mgacha o'sgan. Bu jarayonda "Har bir oila – tadbirkor" dasturi va "mahallabay ishlash" tizimi muhim rol o'ynagan.

2-jadval

**Qashqadaryo viloyatida kambag'allikni kamaytirishga ta'sir qiluvchi
asosiy dasturlar samaradorligi**

Dastur nomi	Amalga oshirilgan davr	Foyda olgan oilalar soni	Yaratilgan ish o'rinlari	Asosiy yo'nalish
"Har bir oila-tadbirkor"	2020-2024	48200	26000	Mikrokredit, kasanachilik
"Ayollar daftari"	2021-2024	18500	6700	Ayollar bandligi
"Yoshlar daftari"	2021-2024	22300	9200	Yoshlar startaplari
"Temir daftar"	2020-2023	51000	11500	Ijtimoiy yordam, reabilitatsiya
Mahallabay ishlash tizimi	2021-2024	100% qamrov	-	Manzilli yordam, nazorat

Qashqadaryoda manzilli yordam tizimi joriy etilishi kambag'allikni kamaytirish jarayonini tezlashtirdi. Eng samarali dastur "Har bir oila – tadbirkor" bo'lib, u 26 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratgan. Mahallabay tizim esa kambag'allikni joylarda aniq tahlil qilish imkonini bergan.

3-jadval

O'zbekiston bo'yicha kambag'allik darajasining solishtirma tahlili (2020–2024 yillar, %)

Yil	O'zbekiston o'rtacha ko'rsatkichi	Qashqadaryo viloyati	Toshkent viloyati	Surxondaryo viloyati
2020	14.5	15.2	10.1	16.3
2021	13.0	13.6	9.3	15.4
2022	11.7	12.4	8.7	14.0
2023	10.2	10.9	7.8	12.5
2024	9.1	9.7	7.0	11.3

Ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyatida kambag'allik darajasi mamlakat o'rtacha ko'rsatkichiga yaqinlashgan. 2020-yilda farq 0,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu tafovut 0,6 foizgacha qisqargan, ya'ni hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlari sezilarli darajada yaxshilangan.

Xulosa va takliflar. Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida kambag'allikni qisqartirish masalasi davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish choralari va bandlikni oshirishga qaratilgan dasturlar natijasida mamlakat miqyosida kambag'allik darajasi sezilarli ravishda pasaygani kuzatilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020–2024 yillar oralig'ida O'zbekistonda kambag'allik darajasi 14,5 foizdan 9,1 foizgacha, Qashqadaryo viloyatida esa 15,2 foizdan 9,7 foizgacha kamaygan. Bu esa qisqa vaqt ichida 36–37 foiz atrofida nisbiy kamayishni bildiradi.

Bu natijalar, eng avvalo, mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat, mahallabay ishlash tizimi, hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaliy samaradorligidan dalolat beradi. Aholining turmush darajasi oshgani, yangi ish o'rinlari yaratilgani va mikromoliyaviy dasturlar kengaygani kambag'allik darajasini kamaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyati misolida o'tkazilgan tahlillar hududda kambag'allikni qisqartirish borasida ijtimoiy himoya, bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari barqaror ijobiy natija berayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, "Har bir oila - tadbirkor", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Temir daftar" kabi tashabbuslarning mahalliy darajada faol amalga oshirilishi aholining ijtimoiy faolligini oshirdi, ularni o'zini-o'zi ta'minlash jarayoniga jalb etdi.

Biroq tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida kambag'allikni to'liq bartaraf etishda hali bir qator muammoli omillar mavjud. Ulardan eng asosiylari

- infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagani, mehnat bozorida malakali ishchi kuchi tanqisligi, ayrim tumanlarda ishlab chiqarish diversifikatsiyasi pastligi va moliyaviy savodxonlik darajasining pastligidir. Shu bois, mavjud dasturlarni yanada maqsadli, innovatsion va barqaror mexanizmlar bilan boyitish zarur.

Quyidagi takliflar Qashqadaryo viloyati misolida olib borilgan tahlillar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ular mamlakat miqyosida kambag'allikni kamaytirish siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi:

1. Mahalliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasini kengaytirish. Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligi va neft-gaz sanoatiga tayanadi. Shu bois, hududda xizmatlar sohasi, qayta ishlash tarmoqlari, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga e'tibor kuchaytirilishi zarur. Bu yangi ish o'rinlarini yaratib, daromad manbalarini kengaytiradi.

2. Kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish. Kambag'allikni kamaytirishning eng barqaror yo'li - inson kapitaliga sarmoya kiritishdir. Shu maqsadda, kasb-hunar o'quv markazlarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, yoshlar va ayollarni zamonaviy kasblarga o'qitish tizimini kengaytirish kerak.

3. Mahallabay ishlash tizimini yanada raqamlashtirish. Aholining daromadlari, ehtiyojlari va ijtimoiy holatini aniqlashda aniq statistik bazani shakllantirish muhim. Mahalla tizimida raqamli monitoring joriy etish orqali kambag'allikni qisqartirish choralari yanada manzilli bo'ladi.

4. Moliyaviy savodxonlik va mikromoliyaviy xizmatlarni kengaytirish. Kambag'allikni barqaror kamaytirish uchun aholiga mikrokreditlar, subsidiyalar va grantlardan samarali foydalanishni o'rgatish kerak. Shuningdek, bank xizmatlarining qishloq joylarda ham keng joriy etilishi iqtisodiy faollikni oshiradi.

5. Hududiy infratuzilmani yaxshilash. Qishloq joylarda yo'l, suv, elektr energiyasi va internet infratuzilmasini rivojlantirish aholining bandligi va daromad olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

6. Ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash. Mahallalarda ayollar uchun mini-ustaxonalar, xizmat ko'rsatish markazlari, yoshlar uchun startup loyihalariga grantlar ajratish kambag'allikni kamaytirishda ijtimoiy ta'sirni kuchaytiradi.

7. Monitoring va baholash tizimini kuchaytirish. Kambag'allikni qisqartirish dasturlarining natijalarini doimiy monitoring qilish, statistik ma'lumotlarni ochiq e'lon qilib borish siyosatning samaradorligini oshiradi va resurslarni oqilona taqsimlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston sharoitida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar kambag'allikni kamaytirishda sezilarli natijalar bermoqda. Shu bilan birga, hududlar kesimida, xususan, Qashqadaryo viloyatida kambag'allikni butunlay bartaraf etish uchun uzluksiz iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglik, bandlikni oshirish va mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida kambag'allikni kamaytirish siyosati mahalla darajasidan boshlab raqamli va ilmiy yondashuvga asoslangan, maqsadli va barqaror bo'lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni – “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2030” to'g'risida. 11 sentyabr 2022-yil, PF-187-son. *O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami*, 2022-yil, №38.
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash bo'yicha 2020–2024-yillar tahliliy hisobotlari*. – Toshkent, 2024-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Aholining daromadlari va kambag'allik darajasi ko'rsatkichlari (2020–2024)*. – Toshkent: Statistika agentligi nashri, 2024-yil.
4. Jahon banki (World Bank). *Uzbekistan Poverty Assessment: Trends, Challenges and Policy Options*. – Washington D.C., 2023.
5. To'xtayev A., Karimov M. *Ijtimoiy siyosat va kambag'allikni kamaytirish mexanizmlari*. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2022-yil.
6. Qashqadaryo viloyati hokimligi iqtisodiy taraqqiyot bosh boshqarmasi. *Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va kambag'allikni kamaytirish natijalari (2020–2024-yillar tahlili)*. – Qarshi, 2024-yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. *Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021-yil.
8. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP). *Human Development Report: Reducing Poverty and Promoting Sustainable Growth in Central Asia*. – New York: UNDP, 2023.
9. Saidov, A. & Murodova, N. *Kambag'allikni qisqartirishda mahalla institutining o'rni*. – “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnali, №3, 2023-yil, 45–52-betlar.
10. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi. *Aholining bandligi va kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha 2024-yilgi milliy hisobot*. – Toshkent, 2024-yil.

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА
ЭКОНОМИЧЕСКУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ

Рашидов А.В.

ассистент Каршинского Международного Университета

e-mail: azizvohidovich@gmail.com

ORCID: 0009-0008-2281-3463

Тел: +998919643548

Аннотация: В статье рассматривается влияние технологий искусственного интеллекта (ИИ) на экономическую безопасность предприятий. Автор анализирует как позитивные эффекты цифровизации, включая автоматизацию процессов и повышение эффективности управления, так и потенциальные угрозы, связанные с киберрисками, технологической зависимостью и социальной нестабильностью. На основе проведенного анализа предложены меры по обеспечению устойчивости бизнеса при внедрении ИИ-технологий

Ключевые слова: искусственный интеллект, экономическая безопасность, цифровизация, риски, автоматизация, предприятие.

SUN'IY INTELLEKTNING KORXONALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

Rashidov A.V.

Qarshi xalqaro universiteti

e-mail: azizvohidovich@gmail.com

ORCID: 0009-0008-2281-3463

Tel: +998919643548

***Annotatsiya:** Maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining korxonalar iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Muallif raqamlashtirishning ijobiy ta'sirlarini — jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishni, shuningdek, kiberxavflar, texnologik qaramlik va ijtimoiy beqarorlik bilan bog'liq potensial tahdidlarni tahlil qiladi. O'tkazilgan tahlil asosida SI texnologiyalarini joriy etish jarayonida biznes barqarorligini ta'minlash choralari taklif etilgan.*

***Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, iqtisodiy xavfsizlik, raqamlashtirish, xatarlar, avtomatlashtirish, korxonona.*

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON THE ECONOMIC SECURITY OF ENTERPRISES

Rashidov A.V.

Karshi International University

e-mail: azizvohidovich@gmail.com

ORCID: 0009-0008-2281-3463

Tel: +998919643548

***Abstract:** This article examines the impact of artificial intelligence (AI) technologies on the economic security of modern enterprises. The paper highlights both the positive effects of AI implementation — including process automation, cost reduction, and improved cybersecurity — and the emerging risks associated with data breaches, technological dependence, and labor market disruptions. The dual role of AI as a tool for both increasing operational efficiency and generating new threats is emphasized. Based on the conducted analysis, the author proposes a set of measures to ensure enterprise resilience and economic security in the context of digital transformation.*

***Keywords:** Artificial Intelligence, Economic Security, Digital Transformation, Cybersecurity, Data Protection, Automation, Risk Management, Enterprise Resilience, Labor Market, Technological Dependence.*

Современная цифровизация экономики сопровождается стремительным развитием технологий искусственного интеллекта (ИИ), которые всё чаще внедряются в производственные и управленческие процессы предприятий. Наряду с очевидными преимуществами, связанными с повышением эффективности, ИИ-технологии формируют и новые вызовы, особенно в сфере экономической безопасности бизнеса. Учитывая, что экономическая безопасность представляет собой устойчивое состояние защищённости организации от внешних и внутренних угроз, важно определить, в какой степени внедрение ИИ способствует её укреплению либо ослаблению.

Целью данной статьи является исследование влияния искусственного интеллекта на экономическую безопасность предприятий, выявление рисков и угроз, а также формирование рекомендаций по их минимизации.

1. Позитивное влияние ИИ на экономическую безопасность

Одним из ключевых направлений воздействия искусственного интеллекта на экономическую безопасность предприятий является автоматизация бизнес-процессов, которая напрямую способствует снижению операционных издержек. Современные ИИ-системы позволяют частично или полностью заменить человеческий труд в рутинных, повторяющихся операциях, таких как обработка заказов, документооборот, бухгалтерский учет, клиентская поддержка и управление запасами.

Внедрение автоматизированных интеллектуальных алгоритмов приводит к следующим экономическим эффектам:

Сокращение затрат на оплату труда. За счёт сокращения численности персонала, занятого на вспомогательных и стандартных операциях, снижается фонд заработной платы.

Уменьшение времени выполнения операций. Автоматизация позволяет существенно сократить временные издержки на выполнение внутренних процессов, что повышает общую производительность предприятия.

Снижение количества ошибок. Исключение человеческого фактора в рутинных задачах уменьшает вероятность ошибок, связанных с невнимательностью или недостаточной квалификацией персонала.

Оптимизация ресурсопользования. Системы на базе ИИ способны динамически адаптироваться к изменяющимся условиям, обеспечивая более рациональное распределение материальных, трудовых и временных ресурсов.

Примером может служить использование ИИ в логистике, где алгоритмы на основе машинного обучения позволяют в режиме реального времени оптимизировать маршруты доставки, сокращая затраты на топливо и повышая точность исполнения заказов. В производственной сфере интеллектуальные системы управления технологическими процессами позволяют минимизировать потери сырья, оптимизировать графики выпуска продукции и сократить простои оборудования.

В условиях цифровизации и интеграции искусственного интеллекта в корпоративную инфраструктуру резко возрастает актуальность вопросов кибербезопасности. Надёжная защита информационных систем является важнейшим компонентом экономической безопасности предприятия, поскольку утечка данных, хищение интеллектуальной собственности или парализация ИТ-систем могут привести к значительным финансовым потерям и подрыву деловой репутации.

Искусственный интеллект способен не только порождать новые угрозы, но и выступать в качестве эффективного инструмента обеспечения кибербезопасности. В частности, ИИ-технологии находят применение в следующих направлениях:

Интеллектуальный мониторинг активности. Системы на базе машинного обучения способны анализировать поведенческие паттерны пользователей и в

реальном времени выявлять аномалии, характерные для несанкционированного доступа, фишинга или внутренних злоупотреблений.

Прогнозирование и предотвращение атак. Предиктивная аналитика, основанная на данных о прошлых инцидентах, позволяет формировать проактивные стратегии защиты, включая автоматическое обновление политик доступа, блокировку вредоносной активности и изоляцию скомпрометированных участков сети.

Управление уязвимостями. ИИ может использоваться для автоматического поиска уязвимостей в программном обеспечении и инфраструктуре, сокращая временной лаг между выявлением проблемы и её устранением.

Классификация и фильтрация угроз. Современные антивирусные и антифрод-системы, построенные на ИИ, демонстрируют высокую точность в идентификации сложных многоэтапных атак, включая нулевые угрозы (zero-day exploits), которые не распознаются традиционными методами.

Развитие искусственного интеллекта и его активное внедрение в корпоративную ИТ-инфраструктуру сопровождается не только возможностями повышения эффективности, но и существенным ростом киберугроз. Одной из наиболее чувствительных областей, подверженных влиянию цифровых рисков, является информационная безопасность, в частности — защита от несанкционированного доступа и утечек конфиденциальных данных.

В современных условиях предприятия обрабатывают и хранят огромные объемы данных: персональные сведения клиентов и сотрудников, коммерческую тайну, финансовую отчетность, производственные алгоритмы. Любая компрометация этих данных может привести к:

- прямым финансовым потерям (штрафы, компенсации, простой бизнеса);

- репутационным издержкам;

- потере конкурентных преимуществ;

- юридическим последствиям, особенно в условиях действия законов о защите персональных данных (например, GDPR, ФЗ-152 и др.).

С развитием ИИ появляются новые формы киберугроз:

Атаки на обучающие данные (data poisoning). Злоумышленники могут внедрять искаженные данные в обучающую выборку, тем самым влияя на поведение модели ИИ и вызывая системные сбои.

Атаки на модель (model inversion, adversarial attacks). Воздействие на входные данные с целью заставить ИИ принять ошибочные решения или получить доступ к исходным данным модели.

Использование ИИ самими злоумышленниками. Генерация фишинговых писем, подбор паролей, автоматизация атак происходит с помощью тех же технологий ИИ, что используются и в легальных целях.

Особую опасность представляют утечки данных через облачные сервисы и интеграции с внешними ИИ-платформами, когда чувствительная информация передается на сторонние серверы. При недостаточном контроле или отсутствии шифрования данные могут быть перехвачены, что особенно критично для

компаний, работающих в сфере финансов, телекоммуникаций, здравоохранения и государственного управления.

Согласно исследованию компании IBM (2023), средняя стоимость одной утечки данных для организации составляет более 4,5 млн долларов США, а самыми дорогостоящими являются инциденты, связанные с использованием искусственного интеллекта в критических бизнес-процессах.

Внедрение технологий искусственного интеллекта в экономику оказывает не только технологическое и управленческое, но и значительное социальное влияние. Наиболее острая проблема связана с трансформацией рынка труда и возникновением социально-экономического неравенства. Автоматизация, стимулируемая ИИ, приводит к структурным изменениям в системе занятости, что имеет далеко идущие последствия для экономической стабильности предприятий и общества в целом.

Снижение спроса на низкоквалифицированный труд

Наиболее уязвимой категорией работников в условиях цифровизации становятся специалисты, выполняющие стандартные, повторяющиеся функции — кассиры, операторы call-центров, водители, сотрудники службы поддержки и др. ИИ-системы, способные выполнять эти функции быстрее и дешевле, вытесняют человека из этих сегментов. Это способствует росту безработицы в уязвимых группах населения и требует от государства и бизнеса принятия компенсаторных мер.

Рост требований к квалификации

Одновременно наблюдается увеличение спроса на высококвалифицированных специалистов в области анализа данных, разработки алгоритмов, кибербезопасности, управления цифровыми системами. Это порождает структурное расслоение на рынке труда и усиливает профессиональное и образовательное неравенство. Предприятиям становится сложнее находить кадры, соответствующие новым требованиям, что может тормозить процессы цифровой трансформации.

Социальная напряжённость

Массовое внедрение ИИ без должной социальной адаптации способно вызвать рост социальной напряжённости, снижение доверия к технологическим преобразованиям, протестные настроения. Особенно это актуально в регионах с высоким уровнем зависимости от моноотраслей и невысокой цифровой культурой.

Увеличение расходов на обучение и адаптацию

Для устойчивого внедрения ИИ в производственные процессы предприятиям приходится нести дополнительные затраты на обучение персонала, переподготовку, внедрение программ социальной адаптации и развитие корпоративной культуры. Это становится необходимым условием сохранения лояльности работников и предотвращения кадрового дефицита.

Таким образом, социально-экономические последствия внедрения ИИ выходят за рамки технологической трансформации и затрагивают ключевые аспекты устойчивости экономики. Пренебрежение этими аспектами может

нивелировать положительный эффект от цифровизации и создать новые риски для экономической безопасности предприятий. Поэтому требуется интеграция социальной политики и кадровой стратегии в контекст цифровых преобразований.

Анализ влияния технологий искусственного интеллекта на экономическую безопасность предприятий показывает, что ИИ обладает двойственной природой: с одной стороны, он существенно расширяет возможности бизнеса по оптимизации процессов, снижению затрат и повышению конкурентоспособности, с другой — порождает новые вызовы, связанные с киберрисками, утечкой данных, социальной нестабильностью и технологической зависимостью.

Внедрение ИИ способствует автоматизации и цифровизации ключевых бизнес-функций, повышает качество аналитики, ускоряет принятие решений и обеспечивает дополнительный уровень защиты информационных систем. Вместе с тем, формируются и новые уязвимости, особенно в контексте взаимодействия с внешними платформами, дефицита квалифицированных кадров и недостаточной регламентации использования алгоритмов в корпоративной среде.

Для минимизации негативных последствий и укрепления экономической безопасности в условиях цифровой трансформации необходимо формировать комплексный подход, включающий:

- разработку стратегий цифровой устойчивости;
- организацию внутреннего контроля за ИИ-моделями;
- инвестиции в обучение персонала;
- выбор защищённых и прозрачных ИИ-решений;
- интеграцию этических и правовых норм в процесс внедрения технологий.


Таким образом, экономическая безопасность предприятий в эпоху искусственного интеллекта требует баланса между инновациями и контролем, гибкости в управлении и стратегической готовности к новым формам цифровых угроз. Только при условии системного и осознанного подхода ИИ может стать не угрозой, а гарантом устойчивого и безопасного развития бизнеса в долгосрочной перспективе.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Ковалева Т.В. Экономическая безопасность предприятия: системный подход. — М.: Инфра-М, 2022. — 288 с.
2. Назаров Д.Ю. Цифровизация бизнеса и управление рисками. — СПб.: Питер, 2021. — 304 с.
3. Губанова Е.А. Информационная безопасность в условиях цифровизации экономики // Экономика и предпринимательство. — 2023. — № 2 (147). — С. 97–102.
4. Афанасьев М.П., Селиванов А.В. Искусственный интеллект и управление организацией: возможности и угрозы // Менеджмент в России и за рубежом. — 2022. — № 6. — С. 14–20.

5. Филиппов А.Ю. Цифровая трансформация и структурные изменения рынка труда // Вестник РАН. — 2021. — Т. 91, № 8. — С. 789–796.
6. Петрова Н.А. Риски и уязвимости ИИ-систем в корпоративной среде // Информационная безопасность. — 2022. — № 4. — С. 33–39.
7. OECD. Artificial Intelligence in Society. — Paris: OECD Publishing, 2019. — 144 p. DOI: 10.1787/eedfee77-en.

RSHI X



9 773093 870003